

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

Qo'l yozma huquqida

**UDK 93/99
945.5.950**

SHAROPOVA NIGORA AKBAROVNA

**Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan
siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari mavzusida**

5A120302 - tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

t.f.n. Rajabova N.N.

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Vizantiya imperiyasining tashkil topishi	8
1.1. Vizantiya imperiyasi haqida umumiy ma'lumot.....	8
1.2. IV – XV asrlarda Vizantiya imperiyasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti	19
I bob bo'yicha xulosa	31
II bob. O'rta asrlarda O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyat	33
2.1. Ilk o'rta asrlar O'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.....	33
2.2. Rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyat	42
II bob bo'yicha xulosa	51
III bob. Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari	54
3.1. Vizantiya imperiyasining ilk o'rta asrlardagi O'rta Osiyo davlatlari bilan aloqalari.....	54
3.2. Rivojlangan o'rta asrlarda Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari.....	65
III bob bo'yicha xulosa	78
Xulosa	82
Foydalanilgan manba va adabiyotlar	86
Ilova	89

K I R I S H

Tadqiqot mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mustaqil Respublikamizning ijtimoiy fanlar sohasi olimlari oldida xalqimiz tarixini haqqoniy va to'laqonli o'rganish masalasi dolzarb vazifa sifatida turibdi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov mamlakatimizning yetakchi tarixchi olimlari bilan o'tkazgan uchrashuvida va boshqa mazkur soha bilan bog'liq yig'ilishlarda bir necha marta ta'kidlab o'tgan¹. Shuningdek, bu vazifalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator Qarorlarida ham o'z aksini topgan².

Prezident I.A. Karimov e'tirof etganidek: “Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda... Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rku tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi”³.

Hozirda olimlar va keng jamoatchilik shahar madaniyati masalasiga katta e'tibor qaratishmoqdaki, ular qatoriga qadimiy shaharlarimizning yoshini aniqlash va mamlakatimizda shahar madaniyati taraqqiyotining ildizlarini ko'rsatib berish kabi masalalar kiradi. Bu, albatta, bejizga emas. Chunki har qanday jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida shaharlar ulkan rol o'ynaydi. Ular ma'muriy, harbiy-mudofaa va iqtisodiy vazifalarni bajarib, fan, din hamda madaniyat markazlari sifatida davlatchilik taraqqiyoti va sivilizatsiya darajasini belgilaydi.

Ma'lumki, V-VIII asrlaridagi ijtimoiy munosabatlar sohasida, boy yer egalari-dehqonlar sinfining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan, tub o'zgarishlar sodir bo'la

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. 7-жилд. Т., Ўзбекистон, 1999. 128-132-бетлар; Каримов И.А. Озод ва обод, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. Т., 2000. 430-448-467-476-бетлар; Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008.

² “Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузурида Ўзбекистоннинг Энг Янги тарихи бўйича жамоатчилик кенгашини ташкил этиш тўғрисида”ги ЎзР Президентининг Қарори // Халқ сўзи, 12 феврал 2002 йил; “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг Қарори // Халқ сўзи, 27 июн 1998 йил.

³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008. 30-бет.

boshladi. Mana shu davrga oid siyosiy vaziyatlar O'rta Osiyo Ikki daryo oralig'idagi buyuk saltanatlarning yangi viloyatlarni qo'lga kiritish bo'yicha raqobatchiligi bilan belgilanadi: V asrning ikkinchi yarmi - VI asrning birinchi yarmida Sosoniylar Eroni va Eftalitlar davlati, VI asr ikkinchi yarmi va VII asr birinchi yarmida Sosoniylar Eroni va Turk xoqonligi, so'ngra Turk xoqonligi, Tan xitoyi va arab xalifaligi, VIII asr o'rtalarida bu mintaqani abbosiylar xalifaligi tarkibiga butkul qo'shib olinishi bilan yakuniga yetgan.

Rivojlangan o'rta asrlarga kelib arab xalifaligi hukmronligining tugatilishi va uning o'rniga mahalliy davlatlar - Qarluqlar, O'g'uzlar, Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining tashkil topishi, mo'g'ullar istilosi va Amir Temur davlatining tashkil topishi bilan bog'liq siyosiy jarayonlar yuz bergan.

Tadqiq etilayotgan davrda Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyoning ilk va rivojlangan o'rta asrlardagi davlatlari bilan aloqalari qanday darajada bo'lganligini yozma manbalar, arxeologik materiallar bilan o'zaro qiyosiy solishtirgan holda tahlil qilish va ularni tizimlashtirish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning obyekti va predmetining belgilanishi. Vizantiya imperiyasi mavjud bo'lgan davr (395-1453 yillar) mobaynida uni O'rta Osiyo davlatlari bilan olib borgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini manbalar asosida yoritib berish.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi arxeologik, yozma, lingvistik va numizmatik materiallarni kompleks jalb etgan holda Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan ilk va rivojlangan o'rta asrlardagi aloqalarining shakllanishi va rivojlanishini ochib berishdan iborat. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Vizantiya imperiyasi haqidagi umumiy ma'lumotlarni yoritib berish;
- IV – XV asrlarda Vizantiya imperiyasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini ochib berish;
- Vizantiya imperiyasining ilk o'rta asrlardagi O'rta Osiyo davlatlari bilan aloqalarini aniqlash;

- Rivojlangan o'rta asrlarda Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarini tahlil qilish.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Tarixshunoslik nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, mazkur mavzu yagona bir tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan. Asosan, Vizantiya imperiyasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot alohida olib borilgan tadqiqot ishlarida, shuningdek O'rta Osiyo davlatlari bilan aloqalari haqida qisman to'xtalib o'tilgan.

Mavzuga taalluqli adabiyotlarni ilmiy xususiyatiga qarab, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhdagi adabiyotlarda asosan rus olimlari tadqiqotlari natijalarida Vizantiya imperiyasining tashkil topishi, taraqqiyoti va tanazzulga yuz tutish tarixi alohida o'rganilganligini⁴ ko'rish mumkin.

Ikkinchi guruhdagi adabiyotlarga asosan O'rta Osiyo davlatlarining Vizantiya imperiyasi bilan aloqalari umumiy tarixi bo'yicha respublikamizdagi taniqli olimlarning ishlarini qayd etish mumkin⁵. O'rta Osiyoning ilk va rivojlangan o'rta asrlar davri tarixi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan davlatlarning Vizantiya imperiyasi bilan aloqalari haqida o'sha davrga oid arxeologik yodgorliklar, shahar va qal'alar xarobalarini arxeolog olimlar tomonidan o'rganilishi hamda aynan Vizantiya hunarmandchiligi va numizmatikasi namunalarining topilishi bilan bog'liq ma'lumotlar yozma manbalarga asoslangan holda ilmiy muomalaga kiritilgan.

⁴ Византийские очерки. М., 1996; Дашков С.Б. Императоры Византии. М., 1996;Каждан А. П. Византийская культура (X-XII вв.). — СПб.: Алетея, 2006; Кулаковский Ю.А. История Византии. М., 1996. Т. 1 и 2; Удальцова З. В. Византийская культура / Отв. ред. д-р ист. наук Е. В. Гутнова. — М.: Наука, 1988. — 289; Успенский Ф. И. История Византийской империи. — М.: АСТ, Астрель, 2001; Успенский Ф. И. История Византийской империи: Становление. М.: АСТ, Астрель, 2012. — 608 с.; Успенский Ф. И. История Византийской империи: Рассвет (Комнины). М.: АСТ, Астрель, 2012. — 480 с.; Успенский Ф. И. История Византийской империи: Эпоха смут. М.: АСТ, Астрель, 2012. — 608 с.; Успенский Ф. И. История Византийской империи: Македонская династия. М.: АСТ, Астрель, 2011. — 800 с.; Успенский Ф. И. История Византийской империи: Крушение. М.: АСТ, Астрель, 2011. — 576 с.; Чичуров И.С. Византийские исторические сочинения. М., 1980.

⁵ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. — Т., 2001; Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. М.- Л., 1950-1953; Города Центральной Азии на Великом шёлковом пути. ТД конференции, посвящённой 60-летию профессора Ю.Ф. Бурякова. Самарканд, 1994; Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М., 1951; Пигулевская Н.В. Сирийские источники по истории народов СССР. М.-Л., 1941; Пугаченкова Г.А. На среднеазиатских трассах Великого шелкового пути: очерки истории и культуры. Т., 1990; Пўлатов Х. Шаҳарсозлик маданияти. Т., 2008; Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник. Т., 1999; Rtveldaze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. Т., 2009.

Yozma manbalar va arxeologik izlanishlar natijasi Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan o'zaro aloqalarini paydo bo'lishi va bu aloqalar tarixini tiklashda asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Bugungi kunda ham mazkur yo'nalish bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Mavzuni yoritishda yozma manbalardagi ma'lumotlar arxeologik materiallar asosida qiyosiy solishtirildi hamda tarixiy lingvistika (toponimlar) dan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda dialektikaning umumfan – mantiqiy, tizimli yondashuv va analiz-sintez uslublari hamda maxsus tarixiy – tarixiy-genetik, xronologik-diaxron va tarixiy qiyoslash uslublaridan foydalanildi. Shuningdek, tarixiy bilmoqning xolislik, sababiylik (determinizm), tarixiylik va tizimlilik (sistemali) tamoyillaridan ham foydalanildi. Turli manba va ma'lumotlarni tahlil qilishda ularga qiyosiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashildi. Davr xususiyatlarini nazarda tutgan holda voqealar tarixiylik, tadrijiylik, sivilizatsion yondashuv usullari asosida umumlashtirildi va tahlil etildi.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini ishlab chiqishda Prezident I.A. Karimov tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy ko'rsatmalar, tarixiy shaxslar va qadimiy shaharlarning yubiley tantanalarida so'zlagan nutqlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida belgilangan muhim vazifalar haqidagi ko'rsatmalardan ham foydalanildi.

Dissertatsiya ishida keltirilgan ma'lumotlar va xulosalardan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik liseylar, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida o'tiladigan tarix fani darslarida, o'lka tarixini o'rganishda, universitetlardagi tarix fakultetlarida maxsus kurs ma'ruzalarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Yozma manbalar, arxeologik materiallar va lingvistik ma'lumotlarni kompleks jalb etish bilan birga eng so'nggi tadqiqotlarga suyanan holda Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan aloqalarining

shakllanishi va rivojlanishini ochib berish tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi. Shuningdek,

- Vizantiya imperiyasining tashkil topishi uchun turtki bo'lgan asosiy omillar;
- IV – XV asrlarda Vizantiya imperiyasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti dunyo xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'liq ekanligi;
- Vizantiya imperiyasining ilk o'rta asrlardagi O'rta Osiyo davlatlari bilan aloqalari rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan omillar;
- Rivojlangan o'rta asrlarda Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari paydo bo'lishi va uning ta'siri tufayli o'ziga xos madaniyatning yuzaga kelishi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi Qarshi davlat universiteti “Jahon tarixi va arxeologiya” kafedrasida muhokamasida tasdiqlangan va ish shu kafedrada bajarilgan. Tadqiqot yuzasidan universitet miqyosida o'tkazilgan an'anaviy “Fan, taraqqiyot va yoshlar” ilmiy konferensiyasi va “Janubiy O'zbekiston arxeologiyasi va etnologiyasining dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumanda ilmiy ma'ruza bilan qatnashildi. Shuningdek “Osiyo ovozi” gazetasida ham maqola chop ettirilgan. Tadqiqot natijalari bo'yicha uchta ilmiy maqola va bitta tezis e'lon qilindi.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, olti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 94 betni tashkil etadi.

I BOB. VIZANTIYA IMPERIYASINING TASHKIL TOPISHI

1.1. Vizantiya imperiyasi haqida umumiy ma'lumot

Vizantiya (Vizantiya imperiyasi) - Rim imperiyasi parchalangach, uning iqtisodiy jihatdan rivojlangan sharqiy qismida vujudga kelgan davlat (IV-XV asrlar). Eng ravnaq topgan davrida uning tarkibiga Bolqon yarim orolining katta qismi, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Misr, Kirenaika, Mesopotamiyaning bir qismi, G'arbiy Armaniston va Gruziya, Xersones, Kipr va Krit orollari kirgan. Poytaxti - Konstantinopol shahri bo'lgan. Mamlakatning nomi Bosfor sohilidagi yunon koloniyasi - Vizantiydan olingan. Aholisi - yunonlar, suryoniyalar, qibtiylar, armanlar, gruzinlar va b. Davlat tili IV-VI asrlarda lotin tili, keyinchalik yunon tili bo'lgan⁶.

Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanish darajasi, shahar turmushining jo'shqinligi jihatidan o'sha davrda Vizantiya G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan ancha ilgarilab ketgan edi. Arabiston, Qora dengiz bo'yi, Eron, Hindiston, Xitoy bilan savdo-sotiq bir oz ko'paydi. Vizantiya geografik jihatdan qulay joylashganligi tufayli Sharq bilan G'arb o'rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga sabab bo'ldi, siyosiy va harbiy markazga aylandi. Imperator Yustinian I hukmronligi davri (527-565) da ma'muriy va huquqiy islohotlar o'tkazildi, markaziy davlat mustahkamlandi, kuchli armiya vujudga keltirildi. Bu esa Yustinianga 533-534 yillarda Shimoliy Afrikadagi vandallar davlatini, 555 yilda Italiyadagi ostgotlar qirolligini, Janubi-Sharqiy Ispaniyani bosib olish imkonini berdi⁷.

IV asrning so'nggi o'n yilligi va VII asr boshlarida ichki tanazzul va tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizliklar ro'y berdi. Armiyada g'alayon boshlandi, keng xalq ommasi unga qo'shildi. VI asr oxiri – VII asr boshlarida Vizantiya hududining anchagina qismini slavyanlar ishg'ol etdi. VII asrning 70-yillarida Vizantiyaning shimoli-g'arbiy chegarasida qadimgi bulg'orlar davlati - Bolgariya barpo bo'ldi. 636-

⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. 448-450-бетлар.

⁷ www.wikipedia.org

642 yillarda arablar Vizantiyadan Suriya, Falastin, Yuqori Mesopotamiya va Misrni, 693-698 yillarda Shimoliy Afrikadagi erlarni tortib oldi. Italiyadagi langobardlar Vizantiya hududining anchagina qismini bosib oldi. VIII-IX asrlarda Vizantiya hududiga slavyanlar ko'chib kelishi munosabati bilan ulardagi hukmron jamoa munosabatlari ta'sirida erkin qishloq jamoala-ri mustahkamlandi. Biroq X asrda yirik yer egaligi kuchayib, Vizantiya shaharlari VII-IX asrlardagi tanazzuldan so'ng yana qad rosladi, savdo-hunarmandchilik uyushmalari vujudga keddi, davlat ularning faoliyatini qo'llab-quvvatladi. X asr o'rtalarida Vizantiya arablardan Yuqori Mesopotamiyani, Kichik Osiyo va Suriyaning bir qismini, Krit va Kipr orollarini qaytarib oldi. Armaniston va Gruziyada Vizantiyaning ta'siri kuchaydi. Vizantiya G'arbiy Bolgar podsholigini bosib oldi (1018)⁸.

XIII asr boshlaridan ichki tarqoqlik avj oldi, markaziy hokimiyat inqirozga yuz tutdi, chet ellik istilochilarning xuruji kuchaydi. Salib yurishi qatnashchilari Vizantiya hududining bir qismini bosib olib, Lotin imperiyasiga asos soldilar. Shu bilan birga Vizantiya yerlarida mustaqil yunon davlatlari: Nikey, Trapezund imperiyalari, Epir davlati paydo bo'ldi. 1261 yilda Nikey imperatori Mixail VIII Paleolog Vizantiya imperiyasini qayta tikladi. Paleologlar sulolasi (1261-1453) qaror topdi. Biroq Vizantiya o'zining qadimiy qudratini tiklay olmadi. 1453 yilda Konstantinopol usmonli turklar tasarrufiga o'tgan. XV asrning 60-yillari boshida Vizantiya imperiyasi barham topdi, uning hududi Usmonli turk imperiyasi tarkibiga kirdi. Vizantiya Rim, yunon va ellinizm an'analari ta'sirida vujudga kelgan o'ziga xos madaniyat markazi bo'lgan edi⁹.

Maorifi. Vizantiyada antik davr ta'limi an'analari saqlanib qoldi va XII asrgacha maorif Yevropaning boshqa joylariga qaraganda yuqori saviyada edi. Boshlang'ich ta'lim (o'qish va yozishni o'rgatish) xususiy maktablarda 2-3 yil davomida amalga oshirilgan. VII asrgacha o'quv dasturi majusiylar afsonalariga, keyinroq Bibliya kitoblariga asoslangan. O'rta ma'lumot grammatika o'qituvchisi

⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. 451-бет.

⁹ Кулаковский Ю.А. История Византии. - М., 1996. Т. 1. Стр. 45.

rahbarligida olingan. Dasturga orfografiya (imlo qoidalari), grammatika normalari, talaffuz, she'r yozish qoidalari, notiqlik san'ati, shuningdek hujjatlar tuzish uslubi kiritilgan. Falsafa ham o'quv darslari jumlasiga kirgan. Ayrim maktablar dasturida tarix darsi ham bo'lgan. Vizantiyada monastir maktablari ham bor edi. IV-VI asrlarda qadimgi davrdan qolgan oliy maktablar (Afrika, Iskandariya, Bayrut, Antioxiya, G'azo, Falastin Kesariyasida) o'z faoliyatini davom ettirdi. 425 yil Konstantinopolda barpo etilgan oliy maktab (auditoriy) boshqa oliy maktablarni siqib chiqardi. Konstantinopol auditoriysi davlat muassasasi, uning professorlari davlat xizmatchilari hisoblanar, poytaxtda dars berish faqat ularga ruxsat etilgan¹⁰. IX asr o'rtalariga kelib, Magnavr oliy maktabi ishlay boshladi. Bu maktab oliy dunyoviy amaldor va din peshvolarini tayyorlar edi. XI asr o'rtalarida Konstantinopolda yuridik va falsafiy maktablar davlat muassasasi sifatida ochildi. XII asrda oliy maktabda tibbiyot fani ham o'qitila boshlandi. 1204 yildan keyin Vizantiyada oliy maktab tugatildi. Monastirlar huzuridagi maktablar davlat maktablarini tobora siqib chiqaraverdi. Bunday maktablar, odatda, muallimning vafotidan keyin yoki u quvg'inga uchragach, yopilib qolardi. Vizantiyaning qadimgi kutubxonalari ilk davrdan nari o'tmadi. Iskandariya kutubxonasi 391 yilda vayron etildi. Konstantinopol kutubxonasi (356 yilda asos solingan) 475 yilgi yong'inda kuyib ketdi. Keyingi davr kutubxonalari haqidagi ma'lumotlar kam bo'lsa ham, imperator, patriarx, monastirlar kutubxonalari, oliy maktablarning va xususiy shaxslarning kutubxonalari bo'lganligi ma'lum¹¹.

Texnikasi. Vizantiyaga antik davr qishloq xo'jalik texnikasi (ho'kizga qo'shiladigan omoch va pichan yiqqich, sun'iy sug'orish tizimi) hamda hunarmandchiligi meros bo'lib qolgan. Bu hol Vizantiyaning dehqonchilik, zargarlik, shoyi to'qish, hashamatli inshootlar qurish, kemasozlik (IX asrdan boshlab qiyalama elkandan foydalanilgan) va boshqa sohalarda XII asrgacha Yevropada ilg'or davlat bo'lib qolishiga imkon berdi; IX asrdan boshlab sirkor keramika, shisha tayyorlash (qadimiy usullar bo'yicha) rasm bo'ldi. Biroq, Vizantiyaliklarning ota meros

¹⁰ Удалцова З. В. Византийская культура / Отв. ред. д-р ист. наук Е. В. Гутнова. - М.: Наука, 1988. Стр. 23-24.

¹¹ Культура Византии (IV-первая половина VII в.) / Отв. ред. З.В. Удалцова. - М.: Наука, 1984. Стр. 128.

an'analarini saqlab qolishga intilishi texnika taraqqiyotiga ozmi-ko'pmi to'sqinlik qildi. XII asrdan boshlab Vizantiya hunarmandchiligining G'arbiy Yevropa hunarmandchiligi (shishasozlik, kemasozlik va h.k.) dan orqada qolishiga sabab bo'ldi. XIV-XV asrlarga kelib esa, Vizantiya to'qimachiligi italyan to'qimachiligi bilan raqobat qila olmay qoldi¹².

Matematika va tabiiy fanlar. Vizantiyada matematikaning jamoatchilik o'rtasidagi nufuzi o'rta asrlarning asosiy fanlari hisoblangan falsafa va notiqlik san'atiga nisbatan juda past bo'lgan. IV-VI asrlardagi Vizantiya matematiklari asosan qadimgi allomalarning asarlarini sharhlash bilan mashg'ul bo'lishgan: Feon (IV asr) Yevklid va Ptolemey asarlarini chop qildirgan va sharhlagan, Ioann Filopon (VI asr) Aristotelning tabiatshunoslikka doir ilmiy asarlarini sharhlagan, Yevtokiy Askalon (VI asr) esa Arximedning shunday ishlarini sharhlash bilan shug'ullangan. Ba'zi masalalarda Vizantiya fani antik davr faniga nisbatan bir oz ilgari siljidi: Ioann Filopon jismlarning tushish tezligi ularning og'irligiga bog'liq emas, degan xulosaga keldi; Ayo Sofiya ibodatxonasini qurib mashhur bo'lgan me'mor va muhandis trallik Anfiliy o't oldiruvchi ko'zgular ishiga doir yangi talqinini taklif qildi.

IX asrga kelib tabiiy fanlar borasida bir oz yuksalish kuzatildi. Ixtirochi Lev Matematik birinchi marta harflardan algebraik timsollar sifatida foydalandi. Ma'lumotlarga ko'ra, XII asrda arab raqamlarini joriy qilishga urinish bo'lgan bo'lsa kerak. So'nggi Vizantiya matematiklari sharq faniga juda qiziqishgan. Trapezund olimlari (Grigoriy Xioniad, XIII asr, uning izdoshlari Grigoriy Xrisokokk va Isaak Argir, XIV asr) arab va fors matematikasi va astronomiyasini o'rganishgan. Sharq fani merosining o'rganilishi Feodor Melitinnotaning "Uch kitobdagi astronomiya" (1361) majmua asarining yaratilishiga yordam berdi. Kosmologiya sohasida Vizantiyaliklar an'anaviy tasavvurlarga rioya qilishgan. Ulardan ba'zilari Bibliyada keltirilgan dunyoqarashlarga ishongan bo'lsa, boshqalari Yerning sharsimonligi haqidagi ta'limot Bibliyaga zid emas, deb hisoblaganlar. Ilmi nujum inson taqdirini osmon yoritqichlarining harakati bilan bog'langani uchun pravoslav ilohiyotchilari

¹² Успенский Ф. И. История Византийской империи. - М.: АСТ, Астрель, 2001. Стр. 28.

tomonidan qattiq tanqid qilindi va ta'qibga duchor bo'ldi. XIV asrda Nikifor Grigora taqvim (kalendar) ni isloh qilishni taklif etdi, quyosh tutilishini oldindan aytib berdi. Bu taklif va bashoratlar astronomiya kuzatuvlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan¹³.

Vizantiyada geografiyaning boshlanishiga fem (viloyat) lar, shaharlar, episkop boshliq ma'muriy birliklarning rasmiy tavsiflari asos bo'ldi. Taxm. 535 yilda Ierokl 64 fem va 912 shaharning tavsifini o'z ichiga olgan “Sinekdem” to'plamini tuzdi. Bu to'plam keyingi davrlarda yozilgan geografik asarlar uchun zamin bo'ldi. X asrda Konstantin Bagryanorodniy Vizantiya femlari tavsifini o'z davri an'analari asosida tuzib chiqdi. Shu bois uning asaridagi ko'p ma'lumotlar o'sha davrdagi mavjud ma'lumotlarga oid. Savdogarlar, ziyoratchilarning sayohat tavsiflari ham o'sha geografik adabiyotlar toifasiga mansub. IV asrda yozilgan muallifi noma'lum sayohatnomada O'rta dengiz batafsil bayon qilingan, portlar orasidagi masofalar ko'rsatilgan, muayyan joyda ishlab chiqarilgan tovarlar haqida gapirilgan va h.k.¹⁴ Quyidagilarning sayohat tavsiflari saqlangan: savdogar Kosma Indikoplovning (VI asr “Xristian topografiyasi” asari (bunda umumkosmologik tasavvurlardan tashqari bevosita kuzatuv taassurotlari, Arabiston, Afrika va boshqa joylardagi turli mamlakatlar va xalqlar haqida aniq ma'lumotlar mavjud), Ioann Fokning (XII asr) Falastinga, Andrey Livadinning (XIV asr) Falastin va Misrga, Kanan Laskarisning (XIV asr oxiri yoki XV asr boshi) Germaniya, Skandinaviya va Islandiyaga sayohatlari tavsiflari. Vizantiyaliklar geografik xaritalar tuzishni ham bilganlar¹⁵.

Tibbiyoti. Vizantiyada rivojlangan tibbiyot mavjud bo'lgan. IV asrda pergamlilik shifokor Oribasiy tibbiy ensiklopediya yaratgan, shifokor Nikshba jarrohlik bo'yicha darslik yozgan. Konstantinopolda maxsus jarrohlik va ayollar kasalliklari bo'limlari bo'lgan kasalxonalar tashkil etilgan, ularning huzurida tibbiyot bilim yurtlari ochilgan. Simeon Sif ovqatning xossalari haqida kitob yozgan (XI asr). Nikolay Mireps farmakopeyaga oid qo'llanma tuzgan (XIII asr). Ioann Aktuariy tibbiyotga doir asarlarida o'zining amaliy mushohadalarini bayon etgan¹⁶.

¹³ www.wikipedia.org

¹⁴ Чичуров И.С. Византийские исторические сочинения. - М., 1980. Стр. 56-58.

¹⁵ Культура Византии (IV-первая половина VII в.) ... Стр. 55-56.

¹⁶ Каждан А. П. Византийская культура (X-XII вв.). - СПб.: Алетейя, 2006. Стр. 47-49.

Falsafasi. Imperiyaning qaror topishi va xristianlik tarqalishi tufayli (VI-VII asrlardan) paydo bo'la boshladi. Uning taraqqiyotida rasmiy cherkov aqidalari bilan dunyoviy fan, falsafiy fikr vakillarining qarashlari o'rtasidagi kurashning ta'siri bor. Yunon cherkovining peshvolari Prokopiy (465-525), Vizantiyalik Leontiy (475-543), Ioann Damaskin bu falsafaning o'tmishdoshlari bo'lganlar. Vizantiya falsafasi asosan Platon - Aristotel g'oyalari hamda asarlarini tushuntirish va tarqatishdan iborat edi; u “Kutubxona” to'plami (857 yilgacha)ning muallifi Fotiy (820-891) dan boshlanib, Mixail Psell (1018-78) va Nikifor Vlemmid (1272 yil Vizantiya erasi) ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Keyin Italiyada Uyg'onish davrida qayta rivojlandi. Bunda V.Vissarion (1403-72), trapezundlik Georgiy (1396-1484) va boshqalarning xizmati kattadir. Vizantiya falsafasidagi irrasional oqim Simeon (1025-92) mistikasi va Nikolay Kavasila (XIV asr) g'oyalarida namoyon bo'ldi. Vizantiya falsafasi o'rta asr sxolastikasi, Italiya Uyg'onish davri va slavyan mamlakatlari, Gruziya, Armanistondagi falsafiy fikrning rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi¹⁷. Vizantiyada tarix fani bir muncha rivojlangan. Kesariylik Yevseviy qadim zamonlardan milodiy 324 yilgacha bo'lgan dunyo tarixini, jumladan, Shimoliy Qora dengiz bo'yining tarixini bayon etishga harakat qilib ko'rди. Kesariylik Prokopiy va Agafiy imperator Yustinian davridagi Vizantiya tarixini yoritdilar. VI-X asrlarda jahon tarixi voqeanavisligi Ioann Malala, Feofan Ispovednik, Feofilakt Simokatta, Georgiy Amartol kabi tarixchilarning asosiy tarixiy janrlari bo'ldi. XI-XII asr o'rtalarida Vizantiyalik tarixchilar (Lev Diakon, Nikita Xoniat va b.) o'zlari shohid bo'lgan voqealarni qalamga olishga intildilar. XIII asrdan Vizantiya tarix fani inqirozga yuz tutdi.

Huquqshunosligi. Vizantiya madaniyatiga xos an'anaviylik va izchillik Vizantiya huquqshunosligida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Rim huquqini muntazam tartibga solish, fuqarolik huquqi majmualarini tuzish bilan Vizantiya huquqshunosligiga asos solindi. Ulardan eng muhimi Corpus juris civilis (“Kanonik huquq majmuasi”) dir (VI asr) - Vizantiya huquqshunosligi ayni shu majmuaga

¹⁷ Культура Византии (IV-первая половина VII в.) ... Стр. 42-44.

tayandi, huquqshunoslar vazifasi asosan shu majmuani talqin qilish va qayta bayon etishdan iborat bo'lib qoldi. VI-VII asrlarda Corpus juris civilis qisman lotin tilidan yunon tiliga tarjima qilindi¹⁸. Mazkur tarjimalar Vasiliki qurama to'plamining asosini tashkil etadi, undan ko'pincha hoshiyalardagi izohlari bilan birga qayta-qayta nusxa ko'chirildi. Vasilikilarga ilova tarzida xilma-xil ma'lumotnoma - qo'llanmalar, shu jumladan "sinopsislar" tuzilgan, ularda maqolalar huquqqa oid ayrim masalalar bo'yicha alifbo tartibida joylashtirilgan. Vizantiya huquqshunosligida Rim huquqidan tashqari cherkov soborlarining qaror (qoida) lariga asoslangan cherkov fatvolari huquqi ham o'rganilgan. Konstantinopolda oliy huquq maktabi tashkil etilgach, XI asrda sud qarorlari to'plami – "Pir" ("Tajriba") da Konstantinopol sudining tajribasi umumlashtirildi. XII asrda Vizantiya huquqshunoslari (Zonara, Aristin, Valsamon) cherkov soborlari qoidalari talqin etilgan bir necha kitob chiqarib, unda cherkov fatvolari huquqi bilan Rim huquqini muvofiqlashtirishga urinishdi. Vizantiyada notariat ham tashkil qilingan, XIII-XIV asrlarda ayrim femlarning mahkamalari hujjatlar uchun mahalliy xizmat daftarchalari tuzib chiqqan¹⁹.

Adabiyoti. Vizantiya adabiyotio'zigaxosligi, yangi shakl va janrlarning boyligi bilan ajralib turadi. Uning tarixi 3 asosiy davrga bo'linadi. Birinchi davrda (IV-VI asrlar) u antik adabiyot an'alarini davom ettirdi, ayni vaqtda unga xristian dini mafkurasi ta'sir o'tkazdi (shoiralar Nonna, IV-V asrlar, Agafiy, Pavel Silensiariy, VI asr). Avliyo-anbiyolar qissasi (agiografiya) ni yaratish avj oldi. Ikkinchi davrda (VII-IX asrlar) cherkov ta'sirida diniy adabiyot ustunlik qila boshladi (kritlik Andrey, Ioann Damaskin, Feodor Studit). Shoirlardan Kassiya, Ioann Grammatik, Ignatiy, patriarx Fotiy dunyoviy asarlar yozishdi. Xalq ijodiyoti rivojlandi. Oxirgi, uchinchi davrda (X-XV asrlar) diniy, dunyoviy, badiiy va ilmiy adabiyotning turli janrlari rivojlandi. Imperator Konstantin VII Bagryanorodniy, Svida, Simeon Metafrasiy va boshqalar shu davrning eng taniqli yozuvchilaridir. Mixail Asell, mitilenlik Xristofor

¹⁸ Византийские очерки. - М., 1996. Стр. 67-68.

¹⁹ Культура Византии (IV-первая половина VII в.) ... Стр. 359-364.

(XI asr), Manuil Olobol, Manuil Fil (XIII-XIV asrlar) saroy adabiyoti vakillari-dir. Bu davrda hajviya keng ommalashgan (XII asr)²⁰.

Me'morligi. Vizantiya me'morligining rivojlangan davri VI asrga to'g'ri keladi. Bu davrda Konstantinopol jahondagi yirik shaharlardan biri hisoblangan. Shahar atrofi mustahkam qal'a devorlari bilan o'ralib, xandaqlar qazilgan (V asrning 1-yarmi). Shahar markazi (Agustion maydonida Qadimgi Rim me'morligi ta'sirida zafar toki (ark) lari, forumlar, cherkov binolari, imperator saroyi, otchopar, akveduklar qurilgan. Vizantiya me'morlik maktabida "plinfa" (yassi keng g'isht) ko'p qo'llanilgan. Ibodatxona qurilishida bazilika uslubidan foydalanilgan. Keyinchalik bu uslub qo'shni mamlakatlar me'morligiga ta'sir qilgan. Ibodatxonalar tashqi ko'rinishi qo'pol va og'ir bo'lib, ichki ko'rinishi esa, aksincha, o'ta hashamdor bo'lgan (Salonikidagi Avliyo Dmitriy bazilikasi, V asr; Avliyo Georgiy rotondasi, IV asr oxirida qayta qurilgan). Konstantinopoldagi Ayo Sofiya ibodatxonasi (532-537) yuksak mahorat bilan qurilgan mahobatli inshoot bo'lib, gumbazining diametri 31,4 m, balandligi 55 m dir. Turar joy binolari asosan ko'p qavatli, bosh tarzi ravoqli qilib qurilgan, pastki qavatida savdo rastalari va ustaxonalar joylashgan²¹.

VII-IX asrlarda Vizantiya ibodatxona qurilishida o'rta asr italyan me'morligi uslubiga xos bo'lgan renessans an'analari asosida inshootlarning xochsimon gumbazli mumtoz turi qo'llanilgan (Nikeyadagi Uspeniya cherkovi, VII asr; Salonikidagi Ayo Sofiya cherkovi, VIII asr). IX-XIII asrlarda binolar poygumbazidagi qalqonsimon bag'allar tosh bo'laklari va g'ishtdan mavjli bezakdor qilib terilib, ravoqsimon pog'onali shaklda koshin qoplanib, rangli suratlar ishlangan (Mireleyon ibodatxonasi (turkcha Budrum jome, 930 yil), Feodor cherkovi (turkcha Kilise jome, XI asrning 2-yarmi), Pantokrator ibodatxona majmuasi (Zeyrek jome, XII asr) va boshqalar. XIV-XV asrlar me'moriy bezaklarida Bolqon slavyan me'morligi ta'siri ko'zga tashlanadi (Salonikidagi besh gumbazli Apostol cherkovi (turkcha Souksu jome, XII-XV asrlar); pastqam P-simon shakldagi galereyali markaziy katta gumbazli xona va atrofidagi 4 burchakda joylashgan kichik gumbazli xonalardan iborat bo'lgan). Pastki

²⁰ Удалцова З. В. Византийская культура... Стр. 82-83.

²¹ Культура Византии (IV-первая половина VII в.) ... Стр. 574-576.

qavati bazilika shaklida, yuqori qavati esa xochsimon gumbazli ko'rinishdagi binolarning (Konstantinopoldagi Tekfur saroyi, XIV asr; Mistra hukmdorlari saroyi XIII-XV asrlar) intererlari bezaklarida Mistra shahri manzaralari va monastir majmualari (Afon va boshqa) ko'rinishi aks ettirilgan²².

Tasviriy san'ati. Qadimgi davrdan o'rta asrlarga o'tish badiiy madaniyatda chuqur inqirozlarni yuzaga keltirdi; tasviriy san'atning ayrim turlari vujudga keldi, mavjudlari yo'qolib ketdi. Cherkov va davlat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan san'at turlari (ibodatxona tasvirlari, ikona va kitob miniatyurasi) muhim ahamiyat kasb etdi. Qadimgi ijodiy uslub o'rniga o'rta asrlarga xos xususiyatlar (jumladan, shartlilik) shakllandi; haykaltaroshlik inqirozga uchradi, qadimgi nafis shakllar emirildi, ma'lum davrdan keyin Vizantiya san'atida haykaltaroshlik butunlay yo'qolib, faqat bo'rtma tasvirlarda saqlanib qoldi. Badiiy hunarmandlik buyumlari (tosh, suyak, metall), IV-V asrlar cherkov koshinlari (Avliyo Georgiy cherkovi, IV asr oxiri) dagina qadimgi ohanglar muhim bo'lib, borliq go'zalligini avvalgidek his etish sezilib turadi. Qadimgi usullar Vizantiya san'atida kitob miniatyuralarida takrorlandi ("Iisus Navin o'ramli yozuvlari"); rangtasvirning barcha turlari liniy mavzudagi tasvirlarni ishlashga bo'ysundirildi. me'moriy manzaralar o'rnini mavhum hashamdor tilla zamin egalladi, tasvirlar tekis yuzali qilib ishlandi²³.

IX-X asrlarda ibodatxona devoriy rasmlari doimiy bir tizimga keltirildi; devor va gumbazlar qat'iy tartibdagi koshinkori bezaklar va freskalar bilan qoplandi, ichki bezaklarda yagona mazmunga bo'ysundirilgan me'moriy badiiy muhit (bunga ikonalar ham kiradi) yaratildi: Ayo Sofiya ibodatxonasi (VI-XII asrlar), Afina yaqinidagi Dafna monastiri (XI asr) mozaikalari, "Vladimir Momo Havosi" ikonasi va boshqalar²⁴.

Kitob miniatyurasi taraqqiy etdi, bu davrda zargarlik bezagidan unumli foydalanildi, rasmlarda aniq hayotiy lavhalar, tarixiy shaxslar portretlari o'z aksini topdi. Haykaltaroshlik naqshli ikona va o'ymakori bezaklar (kapitel, mehrob to'siklari

²² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. 451-бет.

²³ Удальцова З. В. Византийская культура... Стр. 98-99.

²⁴ Культура Византии (IV-первая половина VII в.)... Стр. 573-575.

va sh.k.)da ko'zga tashlanadi. Amaliy bezak san'ati (badiiy mato, rang-barang emal to'siqlar, fil suyagi va metallardan ishlangan buyumlar) yuksak darajada rivojlandi. Vizantiyaning bu davrdagi tasviriy san'ati an'analari yunon o'rta asrlar san'atidan o'zlashtirilgan hamda Markaziy, Sharqiy va Janubiy Yevropa mamlakatlarida bir qancha milliy badiiy maktablarning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Teatri. Vizantiya dunyoviy teatri antik teatrning vorisi bo'lgan. IV asrda Konstantinopolda 4 ta teatr bor edi, mim va pantomima (so'zsiz, imo-ishorali) hangomalar hamda dolzarb mavzudagi tomoshalar ko'rsatilardi. Cherkov tomosha ko'rsatishni xristian diniga dushman, ma'jusiylilik unsuri deb hisoblab, Vizantiyadagi antik teatr an'alarini yo'qotib, aktyorlarni xristian jamoalaridan chiqarib yubordi. Teatr inshootlari buzib tashlandi, drama asarlarining qo'lyozmalari yo'q qilindi. Cherkov mimlarga ayniqsa shafqatsizlik qildi, ammo ularning an'analari xalq ommasi orasida davom etaverdi. Vizantiya cherkovi diniy targ'ibot maqsadida Bibliya va ibodat rasm-rusumlari ruhida dramalarni avj oldirdi.

Musiqasi. Vizantiya dunyoviy professional musiqasida saroy bayram - ibodatlarida tabrik so'zlari ko'pchilik tomonidan qiroat bilan aytilishi (akklamasiya), she'riy parchalar cholg'ular jo'rnavozligida jimjimador ohanglarda kuylanishi (evfemiya) hamda tantanali tadbirlarda ko'povozli madhiya (polixromiya) larni ijro etish keng tarqalgan. Sozlardan gidravlos (suv organi), truba, simbala, keyinchalik pnevmatik organ kabilar mashhur bo'lgan. Diniy musiqada Bibliya matnlarini bir ovozda, jo'rsiz, o'ziga xos ohang bilan o'qish (psalmodiya), IV asrdan boshlab xalq ohanglariga yaqin bo'lgan badiha (tropar) lar, kuyi rivojlangan falsafiy lirik qo'shiq (gimn)lar asosiy o'rin egallagan. V-VI asrlarda yashagan shoir va musiqachi Roman Xushxon shaklan rivojlangan asar (kondaklar)lar yaratgan. Ioann Damaskin (VII-VIII asrlar) diniy madhiyalarning eng atoqli muallifidir. IX asrgacha Yevropada peshqadamlik qilgan Vizantiya musiqasi keyinchalik inqirozga uchragan. So'nggi davr san'atkorlaridan Ioann Kukuzel (XIV-XV asrlar) musiqasi nazariyotchisi hamda madhiyalar muallifi sifatida mashhur bo'lgan²⁵.

²⁵ Культура Византии (IV-первая половина VII в.)... Стр. 616-618..

Vizantiyaning madaniyati, fani, san'ati, maorifi va adabiyoti Osiyo, Shimoliy Afrika, Yevropadagi ko'pgina mamlakatlarning madaniy taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Shu sababli Vizantiya madaniy merosi olimlar tomonidan hamon o'rganib kelinmoqda. Bu fanda vizantiyashunoslik yoki vizanistika deb ataladi. Ya'ni, Vizantiyaning tarixi, huquqi, tili va madaniy merosini (adabiyoti, falsafasi, san'ati va boshqalarni) o'rganuvchi gumanitar fanlar majmuidir. Vizantiya alohida bilim tarmog'i sifatida XIX asr 2-yarmida, fanda "Vizantiya" termini qaror topgan chog'da shakllandi. Lekin Vizantiyaning ildizlari chuqur bo'lib, u uzoq o'tmishga borib taqaladi. Vizantiyadan tashqarida uning madaniyati va tarixiga qiziqish ilk o'rta asrlardayoq tarixiy taqdirleri Vizantiya imperiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Armaniston, Gruziya, janubiy slavyan mamlakatlari va Qadimgi Rusda namoyon bo'lgan. G'arbiy Yevropada Vizantiyaga bo'lgan e'tibor Uyg'onish davri (XV-XVI asrlar) da, ayniqsa usmonli turklar 1453 yil Konstantinopolni egallab, Yevropadagi boshqa davlatlarga xavf sola boshlaganlaridan so'ng kuchaygan. Macalan, XVII-XVIII asrlarda Fransiyada Vizantiyaga qirol saroyi homiylik qilib, undan siyosiy maqsadlarda foydalanganlar: Vizantiya markazlashgan monarxiyaning namunasi sifatida tasvirlangan. Sh.Dyukanj, P.Lemerl (Fransiya), E.Gibbon (Buyuk Britaniya), K.Krumbaxer (Germaniya), V.G. Vasilevskiy, M.V. Levchenko, YE.A. Kosminskiy (Rossiya), A.Gregar (Belgiya), G.A. Ostrogorskiy (Yugoslaviya), M.Meyendorf (AQSh) va boshqalar vizantiyashunoslik rivojiga salmoqli hissa qo'shganlar. Vizantiyashunoslik bo'yicha 1924 yildan beri xalqaro kongresslar chaqirilib turiladi. Vizantiyashunoslarning xalqaro assosiasiyasi mavjud (1955). Hozirda vizantiyashunoslikning ilmiy markazlari AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Belgiya, Avstriya, Germaniya, Italiya, Rossiya va b. mamlakatlardagi universitet va fanlar akademiyalarida bor. Vizantiyashunoslikka oid davriy nashrlar turli mamlakatlarda chop etilmoqda.

1.2. IV-XV asrlarda Vizantiya imperiyasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti

G'arbiy Rim imperiyasi german qabilalari tomonidan istilo qilingandin keyin ham Rim imperiyasining Sharqiy qismi uzoq vaqt hukm surdi. U hatto o'zini rasmiy suratda Rim (Romeya) imperiyasi deb atayverdi. Lotin tili yana uzoq vaqtgacha Sharqiy imperiyaning davlat tili bo'lib qoldi. Lekin Sharqda xalq yunon tilida gaplashardi. “Rim imperiyasi” degan nom bora-bora yo'qolib, “Vizantiya imperiyasi” degan nom yuritila boshladi. Ba'zi olimlar xuddi shu yilni Vizantiya imperiyasiga asos solingan yil deb hisoblaydilar. Lekin tarixchilarning ko'pchiligi Vizantiya imperiyasi 395 yilda, ya'ni Feodosiy I o'lgach, imperiya uning o'g'illari o'rtasida taqsimlanib, sharqiy yarmi Konstantinopol shahri bilan birga Arkadiyga o'tgan vaqtda tuzilgan deb hisoblaydilar. Bolqon yarim orolidan va Egey dengizidagi ko'pdan-ko'p orollardan tashqari, Vizantiya imperiyasiga yana Kichik Osiyo, Suriya bilan Falasti, Misr, Mesopotomiya bilan Kavkazbo'yining bir qismi, Qrimning janubiy qirg'oqlari kirar edi.

Imperiyaning sharqiy qismi g'arbiy qismiga qaraganda ancha mustaxkam bo'lib chiqqan ekan, buning asosiy sababi shuki undagi iqtisodiy munosabatlar g'arbiy qismidagiga qaraganda biroz taraqqiy topgan va ancha mustaxkam edi. Bu yerda Misrdagi Aleksandriya, Suriyadagi Antioxiya, Kichik Osiyodagi Smirna va Yefes, Bolqon yarim orolidagi Konstantinopol va Fassalonika kabi rivoj topgan savdo-sotiq markalari bor edi. Osiyo bilan olib borilgan qizg'in savdo ishlari uzilmadi, balki kuchaydi, bu savdo Osiyoda III asrda kuchli yangi fors podsholigi - Sosoniylar podsholigi vujudga kelgandan keyin ayniqsa kuchaydi. Sharqiy Rim imperiyasida quldorlik tuzumining o'zi ham G'arbiy imperiyadagidek keskin tushkunlikka uchramadi. Buning sababi avvalo shuki, imperiyaning sharqiy viloyatlarida, ayniqsa qishloq xo'jaligida quldorlik G'arbdagidek katta rol o'ynamadi. Sharq iqtisodiyotida qullar bilan bir qatorda qul bo'lmagan elementlar, ya'ni shaharlardagi erkin hunarmandalar va qishloqlardagi jamoachi dehqonlari bo'lib turib, qaramlik holatiga tushib qolgan bo'lsalar-da (masalan, Suriya va Misrdagi “podsho dehqonlari”) har

holda ularning o'z yer uchastkalari, shaxsiy xo'jaligi bor edi, shunday qilib, ular qullardan anchagina farq qilar edilar²⁶.

Sharqiy imperiyaning yuqorida qayd qilib o'tilgan xususiyatlari natijasida uning varvarlarga bo'lgan munosabatlari ham boshqacha bir xarakterga ega bo'ldi. Vizantiya G'arbiy imperiyaga o'xshab varvarlar german qabilalari - vestgotlar to'xtamadi ham. Jumladan, Vizantiya german qabilalari - vestgotlar, ostgotlarning va boshqa qabilalarning hujumlariga bardosh berdi, bu qabilalar esa Vizantiyadan g'arb tomon kirib borib, u yerda o'zlarining varvarlik qirolliklarini tuzdilar. Vizantiya imperiyasida hali V-VII asrlarda ham quldorlik tuzumi saqlanib qolgan edi. V-VI asrlarda ham quldorlik tuzumi saqlanib qolgan edi. VII-VIII asrlarda Vizantiya qadimgi Rimga xos bo'lgan ijtimoiy va siyosiy an'analarni o'zida saqlab, ilgarigidek «Romeya davlati» ligicha qolib kelayotgan bo'lsa-da uning ijtimoiy tuzumi feodalizm tomon tezlashib bormoqda edi. Shuni e'tirof etish mumkinki, oqibat-natijada germanlar G'arbiy Rim imperiyasiga nisbatan qanday rol o'ynagan bo'lsalar, slavyanlar ham Vizantiyaga nisbatan xuddi shunday rol o'ynaydilar. U yerda, ham, bu yerda ham varvarlarning kelishi quldorlik tuzumining ancha progressivroq ijtimoiy feodal munosabatlarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishiga yordam berdi.

Vizantiya hali G'arbdagi varvar qirolliklariga, shimoldagi slavyan qabilalarga va O'rta Sharqda yangi fors podsholigiga keskin ravishda qarama-qarshi turuvchi quldorlik «Rim imperiyasi» mavjud bo'lgan davrda, VI asrda imperator Yustinian hukmronlik qilgan vaqtda eng katta muvaffaqiyatga erishdi. Yustinian 527-565 yillarda podsholik qildi. U ateklima'mur - qonun chiqaruvchi edi. U imperiyaning sharqiy chegaralarinigina emas, balki g'arbiy chegaralarining ham anchagina qismini tiklagan kishi edi.

Vizantiya varvarlarning (germanlar, slavyanlar va boshqalarning) hujumini qaytarib, o'zi ularga qarshi hujumga bir davrda Yustinian imperatorlik qila boshladi. Yustinian o'z oldiga imperiyaning ilgarigi g'arbiy chegaralarini tiklashni vazifa qilib

²⁶ Успенский Ф. И. История Византийской империи: Становление. - М.: АСТ, Астрель, 2012. Стр. 23-26.

qo'ydi. Yustinian o'z programmasini qisman amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Uning sarkardalari Volizariy va Narsev Shimoliy Afrikadagi Vandal korolligini (534 y) Italiyadagi Ostgot korolligini (555 y) va Ispaniyaning janubiy qirg'og'ini (Betikani) bosib oldi²⁷.

Shunday qilib, O'rta dengiz Vizantiyaliklar uchun yana «bizning dengiz» bo'lib qoldi. Zamondoshlar nazarida imperiya go'yo Avgust va Trayam davridagi «baxtli kunlarga» yana qaytgandek tuyular edi.

Ikkinchi tomondan Ispaniyani bosib olib, ularning Vizantiyaga qo'shib olishning o'zi vaqtinchalik bo'lib chiqdi. Aslida O'rta dengizning Sharqiy qismi bilan G'arbiy qismi o'rtasida iqtisodiy aloqa bu vaqtda to'xtab qolgan edi.

Yustinian o'z davlatining shimoliy chegaralarini qisman gunlar hujumidan, qimsan-slavyanlar siquvidan himoya qilishga juda zo'r berdi. Bolqon yarim orolida bir-biriga parallel ravishda uch qal'alar qurildi. Ammo bu mudofaa to'siqlari slavyanlarning Bolqon yarim oroliga qarab siljishlarini to'xtata olmadi. Boshqalari hatto Bolqon yarim orolining janubida-Makedoniyaga va Egey dengizi bo'ylariga kolonist-yer egalari sifatida joylashtirildi.

Shunday qilib, Yustinianning ulug' davlat tuzish siyosati bir qadar muvaffaqiyatli natijalar berdi, xolos. Shunday bo'lsa-da, uning vaqtida imperiyaning chegaralari ancha kengaydi. Keyingi vaqtlarda Vizantiya imperiyasi bunday yutuqlarga hech bir erisha olmadi.

Yustinian podsholik qilgan davrda Vizantiyaning qonun chiqarish sohasidagi faoliyatini ko'rsatish kerak. U o'z podsholigining boshlanish paytidayoq Rim imperatorligining ilgari nashr qilingan hamma qonunlarini bir qilib to'plab bosib chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Eng atoqli yuristlardan iborat ikki komissiya Tribonian rahbarligida Rim qonunlarini to'plab tartibga solish ustida juda katta ish olib bordi. Bu komissiyalarning 528-534 yillar mobaynida olib borgan ishi natijasida «Grajdan huquqlari to'plami» vujudga keltirildi, bu to'plam Rim imperiyasida butun qonunlari yakunlovchi eng katta yuridik yodgorlik bo'ldi.

²⁷ Дашков С.Б. Императоры Византии. - М., 1996. Стр. 18-22.

Yustinian to'plamida xususiy mulkni himoya qilishga va Rim imperiyasi bilan Vizantiya uchun xos bo'lgan oddiy tovar xo'jaligi sharoitidan kelib chiqadigan har turli mulkiy muammolarni rasmiylashtirishga katta o'rin berildi. To'plamning keyingi ikki xususiyati bu to'plamning keyingi vaqtlarda, o'rta asrlarning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropada juda ham shuprat qozonishiga sabab bo'ldi. Yustinianning «Grajdan huquqlari to'plami» ni Yevropa yuristlari sinchiklab o'rgandi. XII asrdan boshlab, ayniqsa XIII-XIV asrlarda G'arbiy Yevropaning turli mamlakatlarida qirollar chiqargan qonunlarda Rim qonunlaridan foydalanilganligini ko'rish mumkin²⁸.

Yustinian qonunlar to'plamini chiqarishdan maqsad quldorlik ishlab chiqarish usulining yemirilishi juda tezlashib borayotgan sharoitda quldorlik davlatini saqlab agentlarga xalq ommasining revolyutsion chiqishlari bilan kurashda qurol bo'lib xizmat qilar edi. Ayni Yustinian davrida Konstantinopolda va turli viloyatlarda bir necha bor katta-katta xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan edi. 532 yilda Konstantinopolda bo'lib o'tgan qo'zg'olon ayniqsa kuchli bo'ldi. Qo'zg'olon ko'tarilishiga eng asosiy sabab imperator chinovniklarining, ayniqsa Yustinianning erkatoyi - Konstantinopol hukmdori bo'lib turgan Ioani Kappadokiyskiyning xazinani talashi, poraxo'rliigi va shu xildagi suiste'mollari sabab bo'ldi.

Qo'zg'olon 532 yil II yanvarda Konstantinopol sirkida imperator huzurida boshlandi. Yustinian buni rad etib: jahl bilan ippadromni tashlab chiqib ketdi. Bunga javoban qo'zg'olon ko'tarilib ketdi. Qo'zg'olonchilar «Nika» degan shior ko'tardilar. Qo'zg'olon butun poytaxt va uning atrofiga yoyildi. Qo'zg'olon besh kun davom etib. Yustinianning sarkardasi Velizariy tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi. 30 mingtacha kishi o'ldirildi.

«Nika» qo'zg'oloni qatnashchilarining tarkibi juda xilma-xil edi. Bir tomondan, unda Konstantinopolning va uning yon atrofining xalq ommasi qatnashdi. Ikkinchi tomondan, haraktning tashkilotchilari aristokrat senator elementlar bo'lib, ular yangi dinastiyadan va Yustinianning o'zining mustabid hokimiyatidan norozi edilar. Shu

²⁸ Дашков С.Б. Императоры Византии... Стр. 34-37.

bilan bir vaqtda «ko'klar» ham «yashillar» ham Konstantinopoldagi ancha keng demokratik tashkilotlar bilan - dimlar bilan bog'langan edi. Dimlar eski vaqtdagi shahar o'z-o'zini idora qilish boshqarmasining qoldig'i bo'lmish o'ziga xos rayon xalq uyushmalari bo'lib, Yustinian vaqtida hali ancha e'tibori bor edi va hukumat ham aristokrat pozitsiyasi ham ular bilan hisoblashishga majbur edi.

532 yil voqealar Yustinianning ichki siyosatiga katta ta'sir qildi. Yustinian keyingi vaqtlarda ham xalq ommasining bosh ko'tarishdan hadiksirab bordi. 532 yildan keyin dimlar hiyla darajada qayta tuzildi. Konstantinopolda va boshqa yirik shaharlarda politsiya hokimiyati kuchaytirildi. Shu bilan bir vaqtda Yustinian yirik senator zodogonlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Eski zodogonlarga qarama-qarshi ravishda Yustinian harbiy xizmatidagi o'rta darajali elementlarga ko'proq tayandi, musodara qilingan yerlarning ko'p qismi ularga berildi.

Yustinian hukumati davlat moliyasiga ham katta e'tibor berdi. Uning zamonida aholidan olinadigan soliqlar bir necha hissa ko'paydi. Hukumatning juda qattiq diktaturasi xalq ommasini g'oyaviy jihatdan ham ezar edi. Yustinian hukumati shu mahalgacha ham uncha-muncha saqlanib qolgan ma'jusiylarni ta'qib qilib, ularning falsafa maktablarini yopib qo'ydi. Hukmron parvoslav cherkovining ta'limotiga qo'shilmovchi eretiklari juda keskin ta'qib qilindi. Yustinian podsholik qilgan davrda to'xtamay davom qilib turdi, podsholikning oxirlarida esa narsa yanada avj olib ketdi.

Yustinian zamonida davlat mablag'larining hiyla qismi qurilish ishlariga ketdi. Yustinian yuzlab qal'a va yuzdan ko'p maydaroq istehkomlar qurdirdi. Uning zamonida juda ko'p ijtimoiy xarakterdagi inshootlar ham bino qilindi - vodoprovodlar, yo'llar, hammomlar, teatrlar, har turli hukumat binolari qurildi. Ilk Vizantiya arxitekturasida eng muhimi Ayo Sofiya ibodatxonasida ilk Vizantiya arxetekturasi uslubining xususiyatlari juda yaxshi aks etdi. Ayo Sofiya ibodatxonasining mustahkam ishlanganligi kishi hayratda qoldiradi. Bir necha martalab zilzila bo'lishiga qaramay, bu bino hozirgi vaqtgacha saqlanib kelayapti va jahon arxetekturasining ajoyib tarixiy yodgorliklaridan biridir²⁹.

²⁹ Дашков С.Б. Императоры Византии...Стр. 45-46.

Ayo Sofiya ibodatxonasi singari mashhur yodgorliklar qurilishida o'z ifodasini topgan yuksak arxetektura san'ati Vizantiyaning umumiy madaniyati o'sha davrda qanday yuksak bo'lganligini ko'rsatuvchi dalillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Yustinian vaqtidagi yirik tarixchi, Prokopiylar Kesariyskiy buning misolidir. Prokopiylar Yustinianning podsholik qilishiga oid bir qancha tarixiy asarlar, jumladan «Urushlar tarixi» va boshqalar asarlar yaratdi.

Vizantiyaning VI asrda o'tgan yana bir yirik tarixchisi Agafiy edi. Uning «Yustinianning podsholik qilishi» degan asari Prokopiylar asarlariga ancha muhim qo'shimchalar kiritib ularni to'ldiradi, tuzatadi va o'z o'rnida uning bergan ma'lumotlarini bilan tasdiqlaydi.

Vizantiyaning VI asrdagi eng yirik olimlari orasida aniq fanlar bilan shug'ullangan mediklardan Aleksandr Trallskiy va Pavel Eginiskiyni, matematik-mexaniklardan Isidor Miletskiy va Anfimiy Trallskiy, geograflardan Kozma Indikoplavtni ko'rsatish mumkin, Indikoplavt asarlarida geografik noaniqliklar anchagina ko'p bo'lishiga qaramay, u Afrika va Hindiston, Qizil dengiz va Hind okeani to'g'risida bir qancha qimmatli materiallarni o'z ichiga olgan.

Yustinianning podsholik qilishi sirtdan qaraganda gullab-yashnayotgandek ko'rinsa ham, xalq ommasi uchun juda og'ir bo'ldi. Juda ko'p marta ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari, ayniqsa 532 yilgi qo'zg'olon buning yorqin dalilidir. Keksa imperator (84 yoshida) o'lganda, uning vorisi, Yustin II yanada ko'proq oshib ketganligiga qaramay, davlat xazinasi bo'm-bo'sh edi. Og'ir soliqlardan xonavayron bo'lgan aholining joylarda soliq to'lashdan bosh tortish hollari tez-tez yuz berib turadigan bo'ldi.

VI asrning birinchi yarmi - VII asrning birinchi yarmi oralig'ida Vizantiyadagi quldorlik tuzumining yemirilayotganligi ochiq ko'rinib turgan edi, qishloq xo'jaligida, hunarmandchilikda qo'l mehnatini erkin mehnat tobora siqib chiqaryotgan edi. Shunday bo'lsa ham qulchilik tamoman tugatilmagan edi. Yangi, ancha progressiv bo'lgan feodal munosabatlar nisbatan sekinlik bilan tarkib topib kelayotgan edi va uning natijasida ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanishi to'xtalib qolmoqda edi.

Yustinian dinastiyasi 602 yilda saroy to'ntarishi natijasida taxtdan tushdi. Bu dinastiyaning oxirgi vakili imperator Mavrikiy saroy o'zgarishi vaqtida besh o'g'li bilan birgalikda o'ldirildi. Imperiya imperator Irakliy vaqtida (610-641) bir qadar mustahkamlanib olgandek bo'ldi. Irakliy eronliklarga zarba berib, ulardan Suriya, Falastin va Misrni qaytarib oldi. Biroq oradan ko'p vaqt o'tmay, VII asrning 30-yillarni ikkinchi marta bu safar abadiyga qo'ldan berib qo'ydi, ularni arablar bosib oldi.

Vizantiyadagi kelgindi slavyan dehqon aholining ahvoli «Dehqonchilik qonuni» da juda yaxshi ta'riflangan; bu manba VIII asrga oiddir, lekin unda VII asrdagi agrar munosabatlar ham aks etgan. Ushbu manbaga qarab fikr yuritilganda, bu dehqonlar erkin aholi bo'lib, ularning o'z ekinzorlari, tokzorlari va bog'lari bo'lgan. Dehqonlarning xo'jaligida dehqonchilikning o'zidan tashqari, chorvachilik ham katta rol o'ynagan. Har bir dehqonning yer uchastkasi ekinzor, tokzor yoki bog'dan iborat bo'lib, uning o'z xususiy mulki deb hisoblangan, lekin unda jamoa yer egaligining alomatlari ochiq ko'rinib turar edi.

Shunday qilib, «Dehqonchilik qonuni» jamoaning tabaqalarga ajrala boshlaganligidan, jamoa a'zolarining o'z yonidagi katta dunyoviy yer egalari yoki cherkov-monastir yer egalariga qaram bo'la boshlaganligidan ham dalolat beradi. Slavyanlarning o'rta asr Vizantiyasi tarzidagi asosiy roli ana shundan iborat. Son jihatidan ko'paygan, iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan, jamoalarga uyushgan Vizantiya dehqonlari VIII-IX asrlarda ishlab chiqari kuchlarini muvaffaqiyatli rivojlantirdi, mamlakatni g'alla bilan, dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, tokchilik mahsulotlari bilan to'la ta'minlab turdi. Shu bilan bir vaqtda hukumat dehqonlardan muntazam ravishda yer solig'i olib turar edi. Bu narsa davlat moliyasini ancha tartibga soldi. Nihoyat dehqonlar Vizantiya barpo etilayotgan yangi qo'shin uchun manba bo'lib xizmat qildi, imperiya ulardan uning eng xavfli dushmani bo'lgan Arab xalifaligiga qarshi kurashda foydalandi³⁰.

³⁰ Успенский Ф. И. История Византийской империи: Становление... Стр. 44-46.

VIII asrning boshlarida ham Vizantiyaning xalqaro ahvoli juda og'ir edi. Arablar Kichik Osiyoga bostirib kirdilar. Ular Kipr va Rodost orollarini bosib oldilar. Arab qo'shinlari Konstantinopol yaqiniga kelib uni deyarli butun bir yilgacha (717-718) qamal qilib turdilar, lekin arablar Konstantinopolni ololmadilar. Konstantinopolning qulay strategik mavqe, Vizantiyaliklarning «Greklar o'ti» deb atalgan o'tni ishlatishi, imperatorga ittifoqchilar Bolgarlarning yordam berishi natijasida, arablar katta talofat ko'rib; chekinishga majbur bo'ldilar. Yangi saylangan imperator Lev III Isavr iste'dodli tashkilotchi va qobiliyatli oliy qo'mondon bo'lib chiqdi. U Suriya bilan chegaradosh Isavriya viloyatidan chiqqan bo'lib, yangi isavrlar dinastiyasiga asos solgandir. Isavrlar dinastiyasi Vizantiyani butun bir yuz yil davomida (717-802) idora qildi. Lev III (717-740) va unga yordamchi bo'lib, keyin uning o'rniga imperator bo'lgan Konstantin V (740-775) arablarga qarshi kurashda katta tajriba orttirgan harbiylar edi. Lev III imperator bo'lgandan keyin harbiy ishga katta e'tibor berdi. VII asrda Irakliy va uning vorislari davridayoq Vizantiya hukumati yollanma qo'shnilarga qo'shimcha ravishda mahalliy lashkarlar to'plagan qismini amalga oshirgan, bu mahalliy lashkarlar mahalliy mablag'lar hisobidan ta'minlanardi. Lev III zamonida bu harbiy reforma yanada rivoj topdi.

Cherkov yerlarining keng qo'lamda sekulyarizatsiya qilishi (davlat mulkiga aylantirilishi) Isavr imperatorlarning nomi bilan bog'langandir. Isavriyalik imperatorlar o'z zamondoshlaridan «butga qarshi kurashuvchilar» degan laqab oldi. Ular butga sig'inishga qarshi farmonlar chiqardilar, ularning buyrug'i bilan ikonalar ibodatxonalardan olib chiqildi va ularning bir qismi yo'q qilib tashlandi. Cherkov buni asos qilib imperatorni butga qarshi bit'atda ayibladi. Lekin Isavriyalik imperatorning siyosati ular taxtga chiqmasdan ilgari Vizantiyada boshlangan girt diniy janjallar doirasidan hiyla chetga chiqib ketdi. Imperatorlardan Lev III, Konstantin V va ularning vorislari ayni katta cherkov-monastir yer egaligiga qarshi kurash qizib ketgan bir payt butga cho'qinishiga qarshi chiqdilar. Butga qarshi kurash o'ziga xos bir bahona bo'lib, shu bahona bilan xukumat eng yirik monastirlarni yopib qo'ydi va cherkov-monastir mulklarni musodara qildi. Monastirlarning g'azna ixtiyoriga olingan yerlari Vizantiyaning tashkil topayotgan risarlariga benefisiy qilib

taqsimlab berildi. Monastirlarning yerlaridan harbiy xizmat uchun beriladigan bunday uchastkalar Vizantiyada alohida bir termin bilan xaristikiy deb atalgan, bu esa ma'no jihatidan lotinchaq «benefisiy» so'zigsha to'g'ri keladi³¹.

Isvariyaalik imperatorlarning harbiy islohoti yaxshi natija berdi. Imperatorlar katta harbiy kuchga ega bo'la oldi. Fem qo'shinlari o'z okruglarini arablardan juda yaxshi himoya qildi. Vizantiya hukumati kattaroq ko'lamda hujum operatsiyasi olib borishga hali jur'at etolmadi. Lekin hukumatning siyosati cherkov guruhi o'rtasiga katta norozilik tug'dirdi. Yangi dinastiya obro'sining kuchayishidan norozi bo'lgan dunyoviy zodogonlarning bir qismi ham cherkov guruhiga qo'shildi. Butga qarshi kurash tarafdorlari bilan butga cho'qinish tarafdolari o'rtasidagi kurash bir necha o'n yilga cho'zildi va ba'zan bu kurash juda keskin tus oldi. Lekin xalq ommasi o'rtasida ham norozilik kuchayib bormoqda edi. Feodalizimning taraqqiy etib borishi ekspluatatsiyaning yangi formalarini vujudga keltira boshladi. Feodal yer egasining qo'shinligi erkin dehqon jamoalarini krepostnoylashtirish xavfi ostida qoldirgan edi. IX asrning boshlarida arablar xavfi ostida qoldirgan dehqonlarning ahvoli juda ham yomonlasha boshladi. Yangi «qudratli odamlar»-dinatlar yoki (slavyanlar ataganidek) «vlastellar»-jamoaga qarashli ekin ekiladigan yerlari va yaylovlarni tap tortmay hayosizlarcha bosib olib, stratiotlarni esa o'z krepostnoylariga aylantira boshladilar.

IX asrning yarmidan to XI asrning yarmigacha Vizantiyani Makedoniyaliklar dinastiyasi idora qildi. Vasiliy I Makedonlik bu dinastiyaning birinchi namoyandasidir (867-886). X asrda bu dinastiyadan bir necha mashhur imperator chiqdi, o'z zamoning atoqli olimi va yozuvchisi Konstantin VII Bagryanorodniy (912-959), mashhur harbiy sarkardalar - Nikifor Foka (963-969), Ioan Simisxiy (969-976) va Vasiliy II Bolgaroboysa (976-1025) ana shular jumlasidandir³².

Makedoniyaliklar dinastiyasi idora qilgan vaqtga kelib Konstantinopol juda katta savdo markaziga aylandi va Yevropa bilan Osiyo o'rtasidagi sadoda asosiy vositachilik rolini o'ynadi. Osiyo o'rtasidagi savdoda asosiy vositachilik rolini o'ynadi. Arab rus-slavyan, italyanlarning savdo-sotiqdari Konstantinopolga kelib

³¹ Успенский Ф. И. История Византийской империи: Становление... Стр. 49-50.

³² Успенский Ф. И. История Византийской империи: Македонская династия. - М.: АСТ, Астрель, 2011. Стр. 25.

to'planib,uning juda katta shuxrat qozonishiga va joylanishiga sabab bo'ldi. Vizantiya imperatori tashqi savdodan shunday katta daromad oldiki, IX va X asrlarda G'arbiy Yevropadagi qirol va imperatorlardan birortasi ham bunday daromad ololmas edi. Shu bilan birga IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab arablar xavfi Vizantiya uchun qo'rqinchli bo'lmay qoldi. Arab xalifaligi bu vaqtda ayrim-ayrim mustaqil davlatlarga bo'linib ketgan edi. Vizantiyaning o'zi endi arablar Sharqiga qarshi hujumga o'tishga molik bo'lib qolgan edi.

Makedoneyaliklar dinastiyasi vaqtida imperiyaning territoriyasi yana kengaydi. Sharqda arablardan Krit, Kipr orollari, Antioxiya shahri bilan birga Suriyaning katta bir qismi tortib olindi; g'arbda, ya'ni Italiyada imperiya Apuliya bilan Sisiliyani birmuncha vaqtga qaytarib oldi.

Makedoniyaliklar dinastiyasi vaqtida Vizantiya bilan Rus o'rtasidagi munosabatlar totuvlashdi. Qizg'in savdo munosabatlari, mustahkamlangan madaniy aloqa, umumiy dushmanlarga-pecheneglar, xazarlar va poloveslarga qarshi birgalikda kurash olib borilishi natijasida Vizantiya bilan Rus o'rtasida X asrning ikkinchi yarmida do'stona munosabatlar o'rnatildi. Bu do'stlik munosabatlari kamdan-kam hollardagina dushmanlik harakatlari tufayli uzilib turdi. Konstantinopol patriarxi Rus cherkovi boshlig'ini Kiyev metropolitini tayinlash huquqini da'vo qildi. Biroq Rusning cherkov yo'li bilan Vizantiyaga bo'lgan qaramligini Yaroslav I rus popi Illarionni 1051 yilda Kiyev Metropolitini qilib tayinlash bilan ancha bo'shashtirdi. Rus cherkovi Konstantinopol cherkovining hukmronligidan 1448 yilda uzil-kesil qutulib oldi. Rus metropolitlari, hatto greklardan bo'lganida ham rus cherkovini mustaqil idora qilar va odatda olisdagi Konstantinopol patriarxidan ko'ra Rusning buyuk knyazi irodasi bilan ko'proq hisoblashardi³³.

XI asr o'rtalarida Vizantiya cherkovining hayotida ikkinchi bir muhim voqea-Rim papasi bilan ajralish yuz berdi. Bir tomonda, Konstantinopolning Italiya bilan aloqasi susayib ketishi, ikkinchi tomonda, G'arbda Rim papalari siyosiy qudratning kuchayishi shunday oqibatlariga olib keldiki, o'sha vaqtgacha yagona bo'lib kelgan

³³ Успенский Ф. И. История Византийской империи: Македонская династия... Стр. 28-31.

xristian cherkovi g'arbiy-katolik va sharqiy-provaslavga ajralib ketdi. Bu vaqtda kelib ularning diniy marosimlari toat ibodat tili va boshqarish sistemasining o'zi ham (g'arbda-papa va kardinallar, sharqda-poytaxt shahar Konstantinopolning patriarxi boshchiligidagi patriarxlar) ancha o'zgarib ketdi. Cherkovlardagi ajralish 1054 yilda, Rim papasining legatlari, ya'ni elchilari grek cherkovini rim cherkovi bilan aloqa qilishini rad etib, Konstantinopolni tashlab chiqib ketgan payitdan boshlandi. Bunga javoban Konstantinopol patriarxi Rim cherkovi bilan uning boshlig'i papaga la'nat o'qidi.

Makedoniyaliklar dinastiyasi vaqtida Vizantiyaning feodallashuv jarayoni yanada avj olib bordi. Erkin dehqonlarning soni shu qadar tez kamayib bordiki, mamlakat mudofaa qobiliyatining pasayishidan, shuningdek, aholidan tushadigan soliq mablag'larning kamayishidan qo'rqib, imperatorlarning o'zlari ham tashvishga tusha boshladilar. Dinatlar tomonidan dehqon yerlarining bosib olinishiga qarshi X asrning birinchi yarmida imperatorlar bir necha marta famonlar-novellalar (922, 934 va 947 yillardagi novellalar) chiqardi. Imperator Vasiliy II nechta yangi farmon chiqardi. Feodal zadogonlar shu qadar kuchayib ketgan ediki, 1057 yilda makedoniyaliklar dinastiyasining o'rnini va Kichik Osiyodagi zadogon yirik yer egalaridan chiqqan Komninlar dinastiyasi erkin dehqonlarning qolgan-qutganlarini ham feodallarga yem qilib berishga har tomonlama ko'maklashdi.

Komninlar vaqtida katta cherkov yer egaligi makedoniyaliklar dinastiyasi vaqtidagiga qaraganda kengroq ko'lamda qayta vujudga kela boshladi. Shu bilan birga Vizantiya pomestelarida hali bir muncha qullar ham bor edi. Ular asosan xovli ichidagi har hail ishlarni qilish bilan birga, ulardan qishloq xo'jalik ishlarida, ayniqsa sug'orish, yo'li qurilishi ishlarida, tosh konlarida va shu qabilalarda ham foydalanadilar³⁴.

Vizantiya o'zining ko'p asrli hayoti davrida boy va rang-barang madaniyat yaratdi, bu madaniyat janubiy slavyanlarga va Rusga katta ta'sir ko'rsatdi. Hali VI asrillardayoq o'zining ilk namunalarini bergan Vizantiya arxitekturasini (Yustinian

³⁴ Успенский Ф. И. История Византийской империи: Рассвет (Комнины). - М.: АСТ, Астрель, 2012. Стр. 38.

imoratlari) keyingi asrlarda ham rivojlanishda davom etib, pishiq monumentlar Vizantiya ibodatxonalari tipini bunyod qildiki, bu tipdagi ibodatxona namunalari XI asrdagi qadimiy rus yodgorliklari tutish kerakki, ruslardagi «Vizantiya» uslubi o'zi namuna olgan grek uslubidan ko'p jihatdan farq qilardi. Qadimgi slavyan motivlarini ham o'z ichiga olgani holda bundan keyingi rivojlanish prosessida o'zining original formalarini yaratgan o'sha uslub umuman olganda ruslarning o'ziga xos ijodi edi.

Shuni aytib o'tish kerakki, Vizantiyada qurilish texnikasi: g'isht qilish, juda ajoyib ohak qorishmasi tayyorlash, g'isht terish san'ati, monumental qubbalar, ulug'vor gumbazlar va shu kabilar yaratish texnika o'z zamonasi uchun juda yuksak darajada edi.

Vizantiyada IX-XI asrlarda rassomlik-devorga rasm solish ham, koshinkorlar tasvirlari ham zo'r berib rivojlana bordi; rassomlikning bu shakillari Vizantiyada tobora qat'iy tus olib va uslublashib bordi.

Konstantin VII dan ilgari esa o'z zamonasining eng atoqli to'plovchisi, bibliofili va ensiklopedisti patriarx Fotiy bo'lib (820-891), u o'zidan keyin «Miriobibliin» deb ataladigan to'plam qoldirgan, bu to'plamga 300 ga yaqin ocherk kirgan, bular qadimgi grek avtorlarining asarlaridan ko'chirma bo'lib, ularning har qaysisiga tegishli she'rlar berilgan.

Vizantiyada yilnoma yozish juda ham rivoj topdi. VI-IX asrlardagi eng atoqli voqenavislar Ioann Malala, Fervan va Georgiy Amartoldir, tarixchilardan biri Anna Komninani, Nikita Akominatdir.

I bob bo'yicha xulosa

Vizantiya imperiyasining tashkil topishi bilan bog'liq ma'lumotlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

- Vizantiya imperiyasi Rim imperiyasi parchalangach uning sharqiy qismida vujudga kelgan, IV-XV asrlar davomida mavjud bo'lgan iqtisodiy jihatdan rivojlangan, poytaxti Konstantinopol shahri bo'lgan davlat hisoblanadi.

- Vizantiya geografik jihatdan qulay joylashganligi tufayli Sharq bilan G'arb o'rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga sabab bo'ldi, siyosiy va harbiy markazga aylandi.

- Imperator Yustinian I hukmronligi davri (527-565) da ma'muriy va huquqiy islohotlar o'tkazildi, markaziy davlat mustahkamlandi, kuchli armiya vujudga keltirildi. Imperiyaning aynan gullab-yashnagan davri uning hukmronligi vaqtiga to'g'ri keladi.

- Avliyo Sofiya ibodatxonasi ilk Vizantiya me'morchiligi uslubining xususiyatlari juda yaxshi aks etdi yodgorlik bo'lib, uning mustahkam ishlanganligi kishi hayratda qoldiradi. Bir necha marta zilzila bo'lishiga qaramay, bu bino hozirgi vaqtgacha saqlanib kelayapti va jahon arxetekturasining ajoyib tarixiy yodgorliklaridan biridir.

- XIII asr boshlaridan ichki tarqoqlik avj oldi, markaziy hokimiyat inqirozga yuz tutdi, chet ellik istilochilarning xuruji kuchaydi. Salib yurishi qatnashchilari Vizantiya hududining bir qismini bosib olib, Lotin imperiyasiga asos soldilar. Shu bilan birga Vizantiya yerlarida mustaqil yunon davlatlari: Nikey, Trapezund imperiyalari, Epir davlati paydo bo'ldi.

- 1453 yilda Konstantinopol usmonli turklar tasarrufiga o'tgan. XV asrning 60-yillari boshida Vizantiya imperiyasi barham topdi, uning hududi Usmonli turk imperiyasi tarkibiga kirdi.

- Vizantiya Rim, yunon va ellinizm an'analari ta'sirida vujudga kelgan madaniyat markazi bo'lgan. Uning o'ziga xos maorifi, texnikasi, san'ati, ilm-fani taraqqiy etganki, buni o'sha davrlarda yashab o'tgan qator olimlari misolida ko'rsh mumkin.

- VIII asrga oid «Dehqonchilik qonuni» VII asrdagi Vizantiya jamoasining tabaqalarga ajrala boshlaganligidan, jamoa a'zolarining o'z yonidagi katta dunyoviy yer egalari yoki cherkov-monastir yer egalari qaram bo'la boshlaganligini yoritib beruvchi manbadir. Unda son jihatidan ko'paygan, iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan, jamoalarga uyushgan Vizantiya dehqonlarini VIII-IX asrlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarini muvaffaqiyatli rivojlantirib, mamlakatni g'alla bilan, dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, tokchilik mahsulotlari bilan to'la ta'minlab turganliklari, shu bilan bir vaqtda hukumat dehqonlardan muntazam ravishda yer solig'i olib turganligi aytib o'tilgan. Bu esa davlat moliyasini ancha tartibga solib, dehqonlarni Vizantiyada barpo etilayotgan yangi qo'shin uchun manba bo'lib xizmat qilishini ta'minlab berganligini ko'rish mumkin.

- IX asrning yarmidan-XI asrning yarmigacha Vizantiyani Makedoniyaliklar dinastiyasi idora qildi. vaqtga kelib Konstantinopol juda katta savdo markaziga aylandi va Yevropa bilan Osiyo o'rtasidagi savdoda asosiy vositachilik rolini o'ynadi. Osiyo o'rtasidagi savdoda asosiy vositachilik rolini o'ynadi. Arab rus-slavyan, italyanlarning savdo-sotiqdari Konstantinopolga kelib to'planib, uning juda katta shuhrat qozonishiga sabab bo'ldi. Vizantiya imperatori tashqi savdodan shunday katta daromad oldiki, IX va X asrlarda G'arbiy Yevropadagi qirol va imperatorlardan birortasi ham bunday daromad ololmas edi.

II BOB. O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYODAGI TARIXIY VAZIYAT

2.1. Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy,

iqtisodiy va madaniy hayot

Markaziy Osiyoda V asrning o'rtalarida Eftalitlar nomi bilan tarixda yangi yirik bir davlat paydo bo'ladi. Eftalitlar davlati, Mamlakatimiz hududida ilk feodalizm davrida tashkil topgan yirik davlatlardan biridir.

Feodal-lotincha so'z bo'lib, katta yer egasi ma'nosini anglatadi. Feodalizm-yerga egalik munosabatlari demakdir. Yer feodalning xususiy mulki, dehqon esa unga tobe kishilar. Mamlakatimiz hududida milodning IV-V asridan boshlab yerga egalik munosabatlari, ya'ni feodal ishlab chiqarish munosabatlari qaror topa boshlaydi. VI-IX asrlar oralig'ida feodal ishlab chiqarish uzil-kesil qaror topadi.

Eftalitlar davlati O'rta Osiyo xalqlari tarixida muhim rol o'ynagan sak-massagetlar va boshqa yirik qabilalar birlashmasidan tashkil topgan edilar. Ularning tarkib topgan erlari asosan Sirdaryo va Amudaryoning yuqori xavzasi edi. Shuningdek, Eftalitlar Orol bo'yilaridan ham kelib chiqqan. Ko'pgina tarixiy manbalar Eftalitlarning turkiy etnik elementlar bilan aralashgan holda O'rta Osiyo qabilalari negizida vujudga kelganligidan guvohlik beradi. V asrning ikkinchi yarmiga kelib, eftalitlar davlati nihoyatda kuchayadi. Ularning dastlabki elchisi 456 yilda Hitoygacha borib yetadi. Eftalitlarning tobora kuchayib, borayotganligidan xavfsiragan eronlilar eftalitlarga qarshi 459-484 yillarda uch marta yurish qiladi, lekin urush natijasiz tugaydi. Eftalitlar V asrning ikkinchi yarmi va VI asr boshlarida O'rta Osiyo, Eronni Sharqiy qismi, Shimoliy Hindistonni yagona davlat sifatida birlashtiradilar³⁵.

Eftalitlarning bosqinchilik yurishlari insoniyat ishlab chiqarish kuchlarini inqirozga olib kelishiga qaramay, bu davrda bir qator shaharlar bunyod bo'lib, savdo-sotiq kengaydi, Shaharlarda yirik karvonsaroylar, ibodatxonalar qad rostladi. Eftalitlar xalqaro tijorat sohasida Eron, Hindiston, Xitoy bilan keng aloqada

³⁵ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. - T., 2009. 56-57-betlar.

bo'lishgan. Ularning tili aralash edi, ular Eron va Turkiy tillarda gapirishgan. Eftalitlar davri xalq qo'shiqlari Firdavsiyning «Shohnoma» sida tasvirlangan. Eftalitlar davlati O'rta Osiyoda 100 yilga yaqin (bir asr, V asr o'rtalaridan VI asr o'rtalarigacha) hukm suradi. Keyin Eftalitlar davlati boshqa bir ko'chmanchi xalq-turklar tomonidan tor-mor etiladi.

VI asrda Oltoy o'lkasida Turkiy qabilalarining birlashuvi natijasida Turk xoqonligi tashkil topadi. 563-567 yillarda Turk xoqonligi qo'shinlari zarbalari ta'sirida O'rta Osiyodagi Eftalitlar davlati barbod bo'ladi. Turk xoqonligi yerlari yana kengayib, u Amudaryo va Kaspiy dengizi yerlarigacha yoyiladi. Turk xoqonligi O'rta Osiyoda o'z hukmronlik mavqeyini o'rnatadi.

Turk xoqonligi O'rta Osiyoni o'ziga xos usulda boshqarib bordi. Ularning zodagonlari va amaldorlari ishg'ol qilingan yerlarga ko'chib kelib yashamadilar. Ular o'zlari ilgari istiqomat qilgan yerlarida qolib to'lovlar, o'lponlar, sovg'a-salomlar hisobiga hayot kechirishni afzal ko'radilar. Bu esa mahalliy zodagonlarga qo'l keldi. Ular mamlakatning ichki iqtisodiy va siyosiy hayotini o'z tasarrufiga olib uni o'zlari boshqaradilar. Faqat mahalliy zodagonlar o'rtasida jiddiy ichki ziddiyatlar, kelishmovchiliklar kelib chiqqandagina Turk xoqonligi ishga aralashar edilar.

Xoqonlik davrida O'rta Osiyoda feodal munosabatlari o'sib mustahkamlanib bordi. Mahalliy hukmron tabaqalarning yirik zamindorlari va din xomiylarining mavqei yanada ortib bordi. Turk xoqonlari va ularning amaldorlari, harbiy sarkardalar ham katta-katta boyliklarga, yer-suvlarga savdogarchilik sarmoyalariga ega edilar³⁶.

Turk xoqonligi savdo-sotiq ishlarini jonlantiradi. G'arbiy Osiyo, Eron va O'rta Osiyodan boshqa mamlakatlarga, Xitoyga boradigan savdo karvonlarini «Ipak yo'li» ni osoyishta bo'lishini ta'minlashga ham katta e'tibor beradi. Buning yorqin ifodasi shuki, bu davrda qurilgan va obod bo'lgan shaharlar va aholi o'lkalari asosan karvon yo'llari bo'yiga qurilgan edi.

³⁶ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi... 62-66-betlar.

Turkiylar Markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga muhim hissa qo'shdilar. O'z navbatida ular O'rta Osiyo xalqlarining (So'g'dlar, Xorazmliklar va boshqalar) madaniy yutuqlarini ham o'zlashtirib oldilar. Kushon va Eftalitlar davrida boshlangan iqtisodiy o'sishlar turklar davrida ham davom etdi. Mamlakat asta-sekin quldorlikka nisbatan ijtimoiy siyosiy hayotning xiyla ilg'or shakli bo'lmish yer egaligi tizimiga o'ta boshlaydilar³⁷.

VI-VII asrlarda xoqonlik tasarrufidagi aholi ikki qismga: o'troq (dehqonlar) va ko'chmanchi (chorvadorlar)larga bo'linib ketgan edi. Madaniy nuqtai nazardan o'troq dehqon aholi jamiyatning ilg'or va yetakchi qismini tashkil qilardi. Aholi yerga ishlov berib, ekinlar (bug'doy, arpa, sholi, tarik) ekishda davom etib, uzumchilik va bog'dorchilik bilan ham shug'ulannar edi. Shuningdek, ular g'o'za, beda, tutchilikka va uy hayvonlarini parvarishlashga ko'proq e'tibor berar edilar.

Biroq, turk xoqonligi vaziyati sog'lom emas edi. Bir biriga qarama qarshi bo'lgan turli ijtimoiy va siyosiy kuchlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar hokimiyatni zimdan yemirib borardi, xoqonlik mahalliy hokim sinflar, tabaqalar bilan ham til topisha olmadi, ularni o'z qo'l ostida birlashtira olmadi. Markaziy Osiyoda turk xoqonligiga qarshi VI boshlarida Mazdak (O'rta Osiyo janubida) Abruy (Buxoroda) boshchiligida xalq qo'zg'olonlari bo'ladi. Ikkala qo'zgalon ham mag'lubiyatga uchrashiga qaramay yer egaligi zulmiga qarshi sinfiy kurash katta kuch bilan davom etadi. VI-VII asrlarda O'rta Osiyo yer egaligi va mehnatkash xalq o'rtasida keskin kurash maydoniga aylanadi. VI asr oxiriga kelib Turk xoqonligi sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketadi. Bunday vaziyatdan Arab istilochilari foydalanib qoladilar.

VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida Arab xalifaligi degan ulkan davlat vujudga keldi. Arabiston yarim orolida yashovchi ko'chmanchi chorvador arab qabilalarini yaxlit bir davlatga birlashtiradigan g'oya islom dini bo'ldi. VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalifalik chegaralari kengayib bordi. Arablar Falastin, Misr, Suriya, Iroq, Eron hududlarini egallaydilar, u yerdagi xalqlar majburan islom diniga bo'ysundiriladi.

³⁷ Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник. - Т., 1999. Стр. 43-45.

VIII asr boshlaridan arab bosqinchilari O'rta Osiyoga bostirib kiradi. Qutayba ibn Muslim rahbarligidagi arab qo'shinlari Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo hududlarini egallaydi. Arablar O'rta Osiyoni bosib olgach bu hududlarda o'z qo'shinlarini joylashtiradi. Bu harbiy kuchlar mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turadi.

Arablar o'z hukmronligini ta'minlashda islom dinining keng yoyilishiga e'tiborni qaratdi. Zardushtiylik, Buddizm, moniylik dinlari ta'qib qilinadi.

Islom - arabcha-xudoga o'zini topshirish, itoat, bo'ysunish degani. Shundan "Muslim" – bo'ysunuvchi, itoatkor ma'nosini bildiradi. Muslim so'zi "Muslimun", Markaziy Osiyo xalqlarida "Musulmon", forslarda Musalmon tarzida talaffuz qilinadi.

Islom dini VI-VII asrlarda Arabiston yarim orolida shakllangan, qabilaviy ko'p xudolar o'rniga el-yurtni jipslashishga xizmat qiladigan yakka xudolikni targ'ib qilgan.

Islom dinining targ'ibotchisi Muhammad payg'ambar (570-632) dir. U o'z targ'ibotini 609-610 yillarda Makkada boshlagan va qarshilikka uchragach, 622 yilda Madinaga ko'chgan. Shundan Xijriy yil boshlangan. Xijriy yil hisobi ikki xil bo'ldi: Kamariy-oy hisobi, Shamsiy-quyosh hisobi.

Islom dini ta'limotining asoslari Qur'onda, hadislarda o'z ifodasini topgan. Din asoslari deb nom olgan besh: Kalima keltirish, namoz o'qish, ro'za tutish, zakot berish va imkoni bo'lsa Xaj qilish musulmon bo'lishning shartlaridir.

Islom dini dunyoda eng keng tarqalgan uch dining, ya'ni Jahon dinlarining (buddaviylik, xristianlik, islom) biri. Hozir yer yuzidagi 5,7 mlld aholidan, bir milliarddan ortiqrog'i unga e'tiqod qiladi.

Arablar bosib olgan o'lkalarida tabiiy yer osti va yer usti boyliklarini taladilar, xalqqa yovuzlik qildilar, og'ir miqdordagi «Juz'ya», «Xiroj» deb nom olgan soliqlarni to'lashga majbur qildilar. Mahalliy din va san'at arboblari namoyondalarini yaratgan meroslarini yondirdilar. Arab istilochilarining mahalliy xalqqa o'tkazgan zulmi, ayniqsa islomlashtirish siyosatini amalga oshirishda yorqin namoyon bo'ldi. Bundan maqsad yerli aholini majburiy tarzda bo'ysundirish, islomdan boshqa dinlarni va

ularning namoyondalarini yo'q qilish ko'zda tutardi. Islomni yoyish uchun iqtisodiy tadbir ko'llanildi. Bunda islomdan boshqa dindagi odamlardan “jiz'ya” (jon boshiga solinadigan soliq) olinardi. Islom dinini qabul qilgan, musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda hiroj va jiz'ya soliqlaridan ozod etilib, ularga anchagina imtiyoz berildi. Jiz'ya va xiroj soliqlarini o'z vaqtida to'lamagan boshqa din kishilari tutib olinib bo'yinlariga “qarzdor” deb yozilgan taxtachalar osib qo'yilar edi.

Arablar o'zlarini mahalliy xalq vakillaridan ustun tutur edilar. Ular o'zlarini “ho'jalar” va “saidlar” avlodiga mansub ekanliglari bilan mag'rurlanardilar. Xalq orasida “ho'ja” va “qoracha” degan tushunchalar mavjud ijtimoiy tengsizlikning ramzi sifatida o'sha davrdan qolgan. Arab bosqinchilarining zo'rovonligi zulmi va asoratiga qarshi O'rta Osiyo xalqlari juda uzoq vaqt kurash olib bordilar. Xalq harakatlarini ichida eng kattasi Muqanna qo'zgoloni bo'lib, u 776-783 yillarda davom etdi. Xoshim bin Haqim (Muqanna) qo'zgoloni Marvda boshlanib, so'ngra Movarounnaxrning ko'pgina shaharlariga yoyildi. Qo'zgalon tenglik, erkin hayotga da'vat etardi. Bu qo'zg'alon butun arab xalifaligini larzaga soldi. Movarounnahr, Xorazm va Xurosonda islom dini bilan bir qatorda arab alifbosi va arab tili davlat tili, fan va adabiy til darajasiga ko'tarildi.

Arab bosqinchilari o'z hukmronligini dastlabki davrlarida bosib olingan o'lkalarda mahalliy tilda yozilgan asarlarni yo'q qiladi. Yerli bilimdonlarni quvg'in qiladi. Biroq vaqt o'tishi bilan arablar bosib olgan hududlardagi xalqlarni o'z tasarrufida faqat zo'ravonlik bilan ushlab turish mumkin emasligini tushundilar. Ular bosib olgan xalqlarni moddiy madaniy yutuqlarini o'z g'oyalariga, zamon talabiga moslashtirishga harakat qildilar. Arab tili va Islom dini, bo'yicha mukammal bilim va malakaga ega bo'lganlarni poytaxtga to'plashga intila boshladilar. Xususan IX asrda Bag'dodda «Bayt ul-hikma» - «Donishmandlar uyi» - Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi, xalifalik tasarrufidagi o'lkalardan qator bilimli kishilar taklif etildi.

Movarounnahr va Xorazmdan arab xalifaligini markaziy shaharlariga borib o'qigan va fan-madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimiz soni borgan sayin ko'payib bordi. Kezi kelganda shu narsani e'tirof etish lozimki, O'rta

Osiyo hududida islom dinining yoyilishi hamda u bilan bog'liq bo'lgan diniy rasm-rusumlar, shariat qonun-qoidalari uchun, ularning istiqboli uchun muayyan ijobiy rol o'ynadi. Odamlar har xil xudolar, muqaddas sanalgan narsalarga sig'inishdan xalos bo'lib, yakkayu yagona Alloh taolo timsoliga, uning rasuli, payg'ambari Muhammad (s.a.v) alayhissalom ko'rsatmalariga amal qiladigan bo'ldilar.

Islomning muqaddas kitobi “Qur'on” va uning odamlarni hurlik, ozodlik, tinchlik, yaxshilik, sahiylik hamda birodarlik, qardoshlikka da'vat etuvchi g'oyalari O'rta Osiyo halqlari ongiga asta-sekinlik bilan singib bordi. Shu tariqa, islom qadryatlari manaviy hayotining uzviy qismi sifatida uning turmush tarzidan munosib o'rin olib bordi.

IX asrning boshlariga kelib Markaziy Osiyoning tub o'lkalari xalqlari hayotida katta o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Bu hududlarda markazlashgan mustaqil davlatlar Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlati tashkil topadi.

Bu davrda hunarmandlar markazi sifatida shaharlarning roli ortib bordi, qishloq qo'rg'onlarining ro'li yuksalib, ko'plab dehqon qasrlari va hovlilari qad rostlay boshladi.

VI-VIII asrlarda O'rta Osiyoda So'g'd katta ro'l o'ynay boshladi, u turli hukmronliklarga ega bo'lgan (Samarqand, Maymurg', Kesh, Nahshob, Ishtixon, Buxoro va boshqalar) aralash-quralash (konglomerat) hukmdorliklardan tashkil topgandi. So'g'd Panjikentdan Karmanagacha bo'lgan hududni, Kesh (Shahrisabz) va Nahshob (Qarshi yaqinida) vodiylarini ham o'z ichiga olgan. Hukmronliklar shahar va viloyatlardan tarkib topgan (dehqonchilik okruglari). Hukmdorlar Kan sulolasiga mansub bo'lib, ularning ichida kattasi "Ixshid" unvoni bilan Samarqandda hukmronlik qilgan. Ijtimoiy munosabatlarda So'g'd jamiyati oqsuyaklar dehqonchiligiga ajralgan bo'lib, ular boy savdogarlar, shahar aholisi va dehqonlar qatlamidan iborat bo'lgan³⁸.

³⁸ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.- Л., 1950-1953. Т. 1. Стр. 38-39.

Samarqand uchun VI-VIII asrlar shahar hayotining ko'tarilishi, hunarmandchilikning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. 1965 yili Afrosiyob shaharchasida VII asrga taalluqli samarqandlik hukmdorning saroyi qazib ochilgan, u yerda g'aroyib devoriy naqshlar mavjud edi. Jumladan, devorlarning birida oq filda kelayotgan chog'oniyon malikasi-kelinchak boshchiligidagi to'y sahnasi tasvirlangan: ularni oq tuya va otlarda amaldorlar Samarqand hukmdorining saroyiga boshlab kelishmoqda.

Buxoro vohasi ham Buxorxudod tomonidan boshqarilayotgan, mayda mulkchilar ittifoqi tarzida namoyon bo'lgan. Shaharning o'zi alohida joylashgan ark-kuxandizdan iborat bo'lib, 3,5 ga maydondagi to'g'ri burchakli Shahriston va shahar atrofini o'z ichiga olgan.

Olimlar tomonidan olib borilgan, ko'p yillik tadqiqotlar, So'g'd hududida madaniy hayot yuksak darajaga ko'tarilganidan dalolat bermoqda. Buxorodan 35-40 chaqirim uzoqlikdagi, Qizilqum cho'llarida joylashgan, VI-VII asrlarda Buxorxudodlarning qarorgohi hisoblangan, shimoli g'arb tomondagi Varaxsha shaharchasi, alohida o'rin tutgan. Saroyda olib borilgan qazilma ishlarida, devorga bitilgan rasmlar va haykalsimon naqshga o'tadigan (geometrik va uslublashtirilgan-o'simliksimon naqshli, shuningdek zoomorfli bezatilgan manzaralar hamda ziyofat va shikor sahnalari tasvirlangan) o'yma donacha topilgan. Mifologik xarakterdagi tasvirlar ham uchraydi, masalan, ayol-qush tasviri.

G'aroyib tarzidagi devoriy rasmlar ov, fillarga o'tirib olgancha, qoplon va grifonlarga o'xshash, fantastik hayvonlar bilan kurash olib borayotgan, chavandozlarning bellashuv sahnalari tasvirlangan.

Bu davrdagi ichki va xalqaro savdo aholining eng muhim mashg'ulotlaridan biriga aylanib qolgan. Buyuk ipak yo'li sharqiy qismining kattagina uchastkasi, turklar tomonidan nazorat qilinadigan hududda joylashgan edi. Turklar savdo qilishda unchalik mahoratga ega bo'lishmagan, shu bois savdo ishlaridagi asosiy vositachilik roli, hatto Qpra dengiz va Shimoliy Kavkaz orqali dengiz savdosi bilan ham shug'ullanadigan, so'g'dlar qo'liga o'tadi. Ularning savdo manzillari tarmoqlashgan zich holda, Buyuk ipak yo'lining butun sharqiy uchastkasi bo'ylab,

Chanyandan to Samarqandgacha bo'lgan hududlarni egallagan edi. Poykend savdogarlar shahri deb nom olgandi. Bu paytga kelib so'g'diylarning o'zlari ipak ishlab chiqarayotgan va bu mahsulotni boshqa mamlakatlarga sota boshlagan edi. Shimoliy Kavkaz va G'arbiy Yevropa dahmalaridan topilgan, VII-VIII asrlarga mansub so'g'diylarning "zandanachi" deb nomlangan ipak matolari, So'g'diyona ushbu mamlakatlarga ipak yetqazib beruvchi asosiy importchi bo'lib qolganidan dalolat beradi. Mug' tog'ida joylashgan Panjikent hukmdori Divashtichning qasridan topilgan matolar va o'rilgan bosh kiyimlarining namunalari, Afrosiyob devorlariga ishlangan liboslarning matolaridagi naqshinkor bezak namunalari, So'g'ddagi to'quvchilik kasbi qay darajaga ko'tarilgani xususida fikr yuritishga imkon beradi.

Imperator Yan-dining (605-617) elchisi, xitoylik Vey-Szening So'g'd aholisi haqidagi hisobotida yozilishicha: "So'g'd aholisining hammasi mohir savdogarlardir. O'g'il bola 5 yoshga to'lganidan so'ng, uni savodini chiqara boshlashadi. U o'qishni bosbJashi bilan, uni savdo ishlarini o'rganishga majbur qilishadi".

So'g'd ixshidlari - markazida to'rt burchakli dumaloq teshigi bo'lgan, xitoycha turdagi tangalar chiqara boshlashgan, Buxoroda esa Sosoniylar shohi Varaxran tangalariga taqlid qilib tangalar zarb qildirishgan.

V-VIII asrlar - Xorazm tarixidagi murakkab davr bo'lib, shoh Afrig' hukmronlik qilib turgan sulola, Afrig'iylar nomi ostidagi, shohlik davrida, O'rta asrlargaxos madaniyat shakllanayotganbirpayt edi. Shu vaqtgamansub arxeologik yodgorliklar Berkutqal'a vohasidan topilgan, bu yerda irrigasiya ishlari keng rivojlangan ekan. Qasr va qal'alar - mustahkamlangan turar-joyli minoralar - donjonlardan iborat bo'lgan. Harbiy istehkomlari rivojlangan tizimli yirik qal'alar jumlasiga- Teshikqal'a, Yakkaparson, Berkutqal'a kabilarni kiritish mumkin. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligida suv yer bilan babbaravar darajada ulkan ro'l o'ynagan. Ziroatchilarni iqtisodiy qaramlikda ushlab turish uchun, dehqonlar irrigasiya inshootlari boshini qulfdan ushlab turishga harakat qilishgan.

Toshkent vohasidagi boshqa mulk - Iloq poytaxti - Tunket shahri bo'lib qoldi. Shaharda radani qayta ishlash va metall eritish bo'yicha ustaxonalar joylashgan.

VI-VIII asrlarda Chochning pul muomalasi turli tanga qiymatlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ularning old tomoni uchun hukmdorlarning yon tomonga yoki uch chorak burilgan holdagi tasviri xos bo'lsa, orqa tomonida -turli ko'rinishdagi tamg'alar so'g'd yozuvi doirasida berilgan, unda hukmdor nomi, unvoni va viloyatning nomlanishi aks etgan.

Bu paytlarda Farg'ona yozma manbalarda Boxan, Paxanna, Feyxan deb atalgan. Hukmdorlari "ixshid" unvoniga egabo'lishgan. Farg'onaliklar xalqaro savdolarida faolishtiroketaboshlaydilar, ajoyib barg'umoqlar, bo'yoq moddalari, dori-darmonlar, rangli shishava boshqa tovarlarni chetga olib chiqqanlar. 739 yildan e'tiboran Farg'onani turk hukmdorlari boshqara boshladilar. Ayrim manbaa bo'yicha uning poytaxti - Axsikent, boshqasi bo'yicha - Koson bo'lgan.

VII-VIII asrlarda Farg'ona va So'g'dning pul muomalasiga Xitoy bilan aloqalari ta'sir ko'rsata boshladi. Xitoycha tipdagi - o'rtasi to'rt burchak teshikli tangalar zarb qilinib kelgan.

Ilk o'rta asrlarda bu o'lkada shishasozlik ham jadal suratda taraqqiy topgan. Toxaristonlik ustalar havorang, ko'k shishalardan turli-tuman juda nafis idishlar tayyorlaganlar. Manbalarda "Toxaristonlik ustalar xitoyliklarni shisha tayyorlashning ba'zi sirlaridan voqif etganlar" deb ta'kidlangan.

Ilk o'rta asrlarda Shimoli-g'arbiy Tohariston shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning ko'plab turlari taraqqiy etgan. O'lkada to'qimachilikning rivojlanganligidan Eski Termizdagi "Qo'rg'on"dan va Bolaliktepadan topilgan kiyimlar va mato bo'laklari darak beradi³⁹.

Ilk o'rta asrlar davri Shimoliy-g'arbiy Toxaristondagi mavjud savdo yo'llarining muntazam faoliyat ko'rsatgan davridir. Manbalardan 424 yilda Xitoy "Katta yuechji"(toxar)lar yurtidan elchilar borganligi ma'lum. So'g'd, Shosh va Xitoy bilan aloqalar Boysuntog'dagi "Temir darvoza" dan o'tgan savdo yo'li orqali olib borilgan.

³⁹ Пўлатов Х. Шаҳарсозлик маданияти. - Т., 2008. 22-26-betlar.

2.2. Rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyat

VI asrda O'rta Osiyoga bostirib kelgan arablar madaniyat darajasi o'zinikidan ancha baland bo'lgan mazkur hududni yagona boshqaruvga asoslangan davlat bo'lmay, kichik-kichik mustaqil davlatchalar o'rtasidagi o'zaro urushlaridan foydalanib osonlik bilan egallaydi. Dastlab Umaviylar, keyinchalik Abbosiylar hukmronligi ostida bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari islom dini va arab madaniyatini qabul qilishga majbur etiladi.

O'rta Osiyoda rivojlangan o'rta asrlar davri mahalliy feodal hokimliklari o'rnida yagona markazlashgan feodal davlatlari tashkil topishi bilan boshlanib, to temuriylar davlati inqiroziga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Arablar bosib olingan O'rta Osiyo yerlarini "Movarounnahr" (daryo orti) deb atay boshlaydilar. Bu davrni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlari xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin. Davrning birinchi bosqichi IX-XIII asr boshlarini o'z ichiga oladi. IX asrda O'rta Osiyoda arablar hukmronligi tugatildi. Bu davrda O'rta Osiyoning shimolida Qarluqlar, O'g'uzlar davlatlari, janubi va markazida Tohiriylar, Safforiular, Somoniylar davlatlari tashkil topdi. Dastlab markazlashgan davlat tepasiga Somoniylar (IX-X) sulolasi keladi, so'ngra uning iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan hududlarini uchta turkiy davlatlar - Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar (XI asrda) egallaydi. Shu bilan birga XII asr o'rtalaridan Qoraxoniylar va Saljuqiylarga tegishli yerlarda Buyuk Xorazmshohlar davlati vujudga keldi, biroq bu davlat mo'go'g'ullarning bosqini natijasida tugatiladi⁴⁰.

Ilk o'rta asrlarda uch qism (kuxandiz, shahriston va rabod) dan iborat bo'lib shakllangan shahar hayotida rivojlangan o'rta asrlar davriga kelib tub ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz beradi. O'rta Osiyo shaharlari Eski Termiz, Afrasiyob, Marv, Axsikent, Buxoro, Urganch, Qanqa, Shohruxiya, Kesh, Nasaf va boshqalarda olib borilgan keng ko'lamli arxeologik izlanishlar va ularni yozma manba materiallari bilan qiyosiy solishtirishlar tufayli bu davr shahar madaniyati,

⁴⁰ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi... 61-62-betlar.

shaharlarning tarkibi, ularning tevarak – atrof aholi punktlari bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalari, shaharlarning hunarmandchilik va savdo-sotiq salohiyati, karvon yo'llarining yo'nalishi, ichki va tashqi bozor, har bir shahar hayotida ustivor hisoblangan ishlab chiqarish tarmoqlari o'rganiladi.

O'rta Osiyo shaharlari o'rta asrlarning rivojlangan davrida juda jo'shqin taraqqiy etadi. Manbalarga ko'ra, IX-X asrlarda shahar aholisi Movarounnahr umum aholi sonining 25-30% ni tashkil etgan. XI asrdan shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi o'zgaradi. Ular to'laligicha hunarmandchilik va savdo-sotiq markazi qiyofasini olgan. Shuningdek, shaharlarning u yoki bu hunarmandchilik tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashuvi jadallashadi. Masalan, Qadimgi Farg'onaning poytaxt bo'lgan Axsikent, Toshkent vohasining Ohangaron daryosi havzalarida qad ko'targan qator shaharlarda - Tunkent, Namudlig', Dahketda metallurgiya sanoati jadal rivojlanadi. Shaharlar maydoni kengayadi, shahriston va uning atrofida joylashgan rabodlarda iqtisodiy hayot taraqqiy etdi.

Somoniylarning mamlakatni boshqaruv tizimidagi markazlashtirish siyosati uning iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlanishiga xizmat qildi. Shaharlar o'sdi va ularning iqtisodiy-savdo aloqalari mustahkamlandi. Masalan, arab tarixchi va geograflarining ta'kidlashicha birgina Shosh va Iloqda bu davrda 50 dan ortiq shaharlar bo'lgan. Arxeologik materiallar va yozma manba'larga ko'ra, Shosh – Iloq vohasi IX-X asrlarda Movarounnahrning yirik metallurgiya xom ashyosi bazasi bo'lgan. Arab tarixchisi Makdisining xabariga qaraganda, bu zaminda oltin va kumush konlari ko'p bo'lib, naqshiga tillo suvi berilgan Shoshning keramika mahsulotlari Sharq olamida mashhur bo'lgan. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha Shosh - Iloq vohasida metallurgiya sanoati bilan bir qatorda hunarmandchilikning kulolchilik va shishasozlik, to'qimachilik yo'nalishlari ham yuksak darajada rivojlangan edi.

X asr oxirlaridan Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati shakllandi. Qoraxoniylar mamlakatni boshqarishda somoniylar davlat boshqaruv tizimidan foydalanadi. Shuningdek, pul zarb etish an'analari ham qabul qilganlar. Buxoro, Iloq shaharlarida kumush pul zarbxonalari bo'lgan. Bu haqda arab tarixchisi Ibn

Xavkal «Iloqda oltin va kumush pullar zarbxonalari faoliyat ko'rsatishda davom etardi» deb yozgan edi.

Bu davrning madaniy hayotida yuz bergan yuksakliklar tarixda tengsiz edi. Ilm-fan, din va tasavvuf, me'morchilik va san'at, musiqa san'ati gullab yashnadi. Umuman, IX-XIII asrning boshlari Movarounnahr shaharlari uchun, ilm-fan va madaniyat sohalarida gullash davri bo'ldi. Dunyoga nomi mashhur qomusiy allomalar – Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Umar Hayyom kabilar yashab ijod etishdi.

Dunyoviy bilimlar bilan birga diniy bilimlar rivojiga katta e'tibor qaratildi. Abduholiq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro va boshqalarni diniy bilimlar – tariqat asoschilari sifatida qilgan ishlari tahsinga loyiq.

IX-X asrlarga oid ayrim yodgorliklar saqlanib qolgan bo'lsada, mazkur davrda me'morchilik va binokorlik texnikasi rivojlangan edi. Pishgan g'isht, ganch, ravoq, gumbaz, toqlar qurilish sohasidagi yangiliklar bo'ldi. Pishgan g'ishtdan maqbaralar qurishda, turar joy zallarida, kanalizatsiya quvurlari qurishda ishlatilgan. Turar joylarning asosiy qismida xom g'isht ishlatilgan. Sinchli uylar ko'proq qurila boshlandi. Binolar qurilishida geometriya fanidan tobora ko'proq foydalanildi. O'rta Osiyo me'morchiligida arab xalifaligi xalqlari me'morchiligiga xos umumiy jihatlar ham bor edi. Bu narsa masjid, madrasa va boshqalarda ko'rish mumkin.

Mazkur davr me'morchiligining eng yorqin namunasi Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasidir. Maqbaraga Ismoil, uning nevarasi Nasr ibn Ahmad dafn qilingan. Maqbara binolarni tuzilishi juda sodda. U kub shaklida bo'lib, tosh gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchak xonaning gumbazi sakkizta ravoq ustiga qurilgan va sakkiz qirrali asosga o'rnatilgan. Ravoqlardan 4 tasi xonaning tepa burchaklariga qurilgan. Binoning tepasida yorug'lik teshiklari o'rnatilgan. maqbaraning to'rttala old tomoni ham bir xilda ishlangan. Har qaysi devorning o'rtasiga katta ravoq o'rnatilgan, burchaklari esa uch chorakli mustahkam g'isht ustunlar bilan ishlangan. Devorlarning ichi va tashqi tomoni naqshkor g'isht bilan ishlangan. Maqbara qurilishida O'rta Osiyo an'anaviy me'morchiligini yanada rivojlanganligini ko'rish mumkin.

X asrda Tim qishlog'ida qurilgan Arabota maqbarasi ham O'rta Osiyo me'morchiligining noyob durdonalaridan hisoblanadi. Maqbara X asrning 70-yillarida (977 y.) qurilgan. Arabota maqbarasi XI-XII asrlar O'rta Osiyo me'morchiligining yangi bosqichga ko'tarilishi davri namunasidir. Binoning katta ravoqli baland peshtoqli naqshlar bilan ishlangan, peshtoq atrofida o'ymakor naqsh bilan arab harflari yozilgan.

Afrosiyob, Varaxsha, Poykand va boshqa qadimiy shahar xarobalaridagi bino qoldiqlari o'rganilgan. Afrosiyobning g'arbiy qismidagi juda katta bino xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, devorlari ganch naqshlari bilan bezatilgan. Ganch suvog'idan yelimli bo'yoq bilan solingan uchta odam siymosi tasvirlangan rasm topildi.

1960-1964 yillarda O'z FA arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan yuqoridagi saroy xarobalari bilan birga mustahkam devor bilan o'rab olingan bir nechta binolar topildi. U xona, yo'lak va hovlidan iborat edi. Bino xonalari naqshlar bilan bezatilgan, polga pishgan g'isht to'shalgan. Derazalarga rangdor oynalar ishlatilgan. Afrosiyobdan VII asrda o'ymakorlik keng yoyilganligini ko'rish mumkin. Varaxsha va Afrosiyob aholisining uylari devorlari ganch suvoq qilingan va naqshlangan.

Me'morchilikda turli bezakli uslublardan foydalanila boshlangan. IX-X asrlarda arab imlosining islamiy, kufiy, XI asrdan nasx turlaridan foydalanila boshlangan; pishiq g'ishtlar och malla rangda bo'lgan. XII asrdan boshlab rangli koshinlardan foydalanila boshlangan, musulmon inshootlarida moviy, yashil, zangori koshinlardan keng foydalanilgan. Bu davrda tasviriy san'at va naqqoshlikda murakkab o'simlik-geometrik gulli naqshlar ishlatilgan. X asrning ikkinchi yarmida Samarqand guzarlarida uy hayvonlari tasvirlari sotilgan (Ibn Xavqal). X asr o'rtalarida Buxoroda "sanamlar" sotilgan (Narshaxiy). Afrosiyobdan topilgan sopol idishlar kulolchilik rivojlanganidan dalolatdir.

Bu davrdagi musulmon me'morchiligining eng ko'zga ko'ringan inshootlari orasida masjidlar alohida ahamiyatga egadir. Ularning uch turi mavjud bo'lgan: Jome (Juma) masjidi (shaharda juma va Hayit namozlari o'qiladigan umumshahar aholisi uchun), guzar masjidlari (mahallalarda kunlik namozlarni o'qishga mo'ljallangan), Namozgoh (shahar tashqarisidagi yo'lovchi va karvondagilar uchun mo'ljallangan) masjidlar. Masjidlarning diqqatga sazovor jihati ibodat qilinadigan mehrobi g'arbga, qiblaga – Makka tarafga qaratib quriladi.

Ilk masjidlar bizning kunimizgacha to'raligicha saqlanib qolmagan bo'lsa-da, ulardan ba'zilarining ayrim qoldiqlari yetib kelgan. XI-XII asrlarda qurilgan masjidlardan Buxoro viloyatidagi Dehgoron masjidining 9 gumbazi saqlanib qolgan. Bino devorlari xom g'ishtdan 4 ta yumaloq ustun pishiq g'ishtdan qilingan. G'arbiy Turkmanistondagi Misriyona masjidining peshtoq qismi saqlanib qolgan, xolos.

Masjidlar uchun alohida xususiyatga ega bo'lgan jihat bu minoralardir. Minoralar musulmonlarni namozga chorlashda muhim ahamiyat kasb etgan. 1127 yilda Buxoroda Minorai Kalon, 1196-1198 yillarda Vobkent minorasi, 1108-1109 yillarda Jarqo'rg'on minorasi quriladi. Minoralarning har bir «belbog'i» ga alohida rang bilan o'zgacha zeb berilgan.

Arxeologik qazishlar natijasida IX-X asrlarga oid Termizdagi Chorsutun, Buxorodagi Mag'oki Attor masjidlari qoldiqlari topildi. Har ikkala binoning gumbazli tomi g'ishtdan ishlangan yumaloq ustunlar ustida turadi.

Maqbaralar ham alohida diqqatga sazovordir. Islom dini O'rta Osiyo aholisi tomonidan qabul qilingach, hukmron sulola vakillari ajdodlari, o'zlari va avlodlari uchun maqbaralar qurdirganlar. Miyondagi Abu Said maqbarasi (1051 y.), Seraxs (Turkmaniston) da Seraxsbobo yoki Abul Fazl maqbarasi (1125 y.), Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi (XII asrning 40-yillari) ilk maqbaralar sirasiga kiradi. Samarqanddagi Shohi Zindadagi ayrim maqbaralar XII asrga oiddir. Urganchdagi El-Arslon va Takeshning (Ko'xna Urganch) maqbaralari, Xorazmdan XI-XIII asrlarga oid Bo'ronqal'a, Noibqal'a, Qavatqal'a chorbog'lari, Faxriddin Roziy va shayx Sharif mozori maqbaralari saqlanib qolgan., Termiz yaqinidagi Sulton Saodat majmuasi, O'zgandagi Qoraxoniylar maqbarasi ham diqqatga sazovordir.

Jamoat binolari orasida Termiz atrofida IX asrga mansub xom g'ishtdan qilingan Qirqqiz nomli chorbog'-saroy xarobalari topilgan bo'lib, u to'rtburchak shaklda qurilgan va gumbazga ega bo'lgan. Buxoro-Navoiy viloyatlari oralig'ida joylashgan Raboti Malik karvonsaroyi qoldiqlari ham diqqatga sazovor bo'lib, uning peshtoq qismigina saqlanib qolgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, umuman olganda mavjud yirik shaarlarda hunarmandchilikning 32 dan ortiq

turi mavjud bo'lgan. Kulolchilikda sirdan foydalanila boshlanib, turli epigrafik tasvirlar bilan birga turli hayvon va qushlarning tasvirlaridan ham foydalanila boshlangan. Kulolchilikda o'ziga xos maktablar – Marv, Niso, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Tarozi, Kesh kulolchilik maktablari va markazlari paydo bo'lgan.

XII asr oxiri – XIII asrga kelib kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifati kamayib, yashil rang bilan anglab bo'lmas suratlar chizilgan. Buni bevosita ko'chmanchi xalqlar bilan olib borilgan o'zaro madaniy aloqalar, qolaversa mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kelishi bilan bog'liqdir.

Mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi taraqqiyotga og'ir zarba berdi. Siyosiy parokandalik, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot butunlay izdan chiqdi. Termiz, Nasaf (Shulluktepa), Samarqand, Buxoro, Urganch shaharlari butunlay vayron etildi.

Chig'atoy ulusi takibida bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari yurt ozodligi uchun to'xtovsiz kurash olib bordilar. XIII asr oxiri - XIV asr boshlarida xo'jalik hayot tiklana boshlandi.

XIV asrning I-yarmida Kebekxon (1318-1326) Qarshi shahriga asos soldi. Lekin mo'g'ullar Movarounnahr madaniy hayotini yuksaltira olmadilar.

XIV asr 70-yillarida Amir Temurning hokimiyatga kelishi, markazlashgan davlatning tashkil topishi butun XV asr mobaynida Movarounnahr va Xurosonda madaniy hayot taraqqiyotini belgilab berdi. Amir Temur Movarounnahrni madaniyat, san'at o'chog'iga aylantirish uchun katta ishlarni amalga oshirdi. Uning rahbarligida saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, bog'lar barpo etildi.

Amir Temur Samarqand atrofida Misr, Damashq, Bag'dod, Sultoniya, Sheroz nomlari bilan qishloqlar barpo qildirdi. Amir Temur davrida muhtasham inshootlar qurildi. Bular jumlasiga Shohi Zinda maqbaralari, Bibixonim Jome' masjidi, Go'ri Amir, Shahrisabizdagi Oqsaroy, Jahongir maqbarasi, Gumbazi Sayidon, Qarshidagi Odina masjidi, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi. Toshkent yaqinidagi Zangi Ota maqbarasini kiritish mumkin. Bulardan tashqari Samarqandda Amir Temur qarorgohi Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, shahar atrofida Bog'i Chinor, Bog'i Baland, Bog'i Bihisht, Bog'i baland kabi bog'lar barpo qilindi.

Amir Temur davrida Movarounnahrda boshlangan madaniy yuksalish Ulug'bek davrida, Xurosonda esa Shohrux va Xusayn Boyqaro davrida davom etdi. Ulug'bek

Samarqandni obod qilishga alohida e'tibor qaratdi. Uning davrida Registon maydoni shakllandi. U qaytadan rejalashtirilib, maydonga Ulug'bek madrasasidan tashqari peshtoqli va ulkan gumbazli xonakoh, karvonsaroy, o'ymakor yog'ochlardan ishlangan masjidi Mukatta' bino qilindi. Ikki yuz o'n gumbazli Ko'kaldosh jome' masjidi qad ko'tardi. Bu oliy imoratlardan faqat Ulug'bek madrasasigina bizning davrimizgacha saqlangan. U ikki qavatli, xujralarining old tomonlari to'rt qirrali ayvon, burchaklarida darsxonalar, g'arbiy tomonida esa masjid joydashgan. Imorat peshtoqi sharq tomonga, Registon maydoniga qaragan. Madrasa peshtoqi, to'rt burchagidagi minoralari va devorlari naqshinkor parchin va koshinlar bilan qoplangan.

Ulugbek davrida Shohi Zinda ansambli kompozitsiyasi jihatidan to'la qurib bitkazildi. Uning markaziy qismidagi naqshinkor obidalar orasida ayniqsa, Qozizoda Rumiy maqbarasi me'moriy jihatdan eng ajoyibi hisoblanadi. U peshtokli, ulkan gumbazli ziyoratxonadan iborat bo'lib, koshinkor va beqiyos jilvali turli rangli parchinlar bilan naqshlangan. 1417 yilda Buxoroda, 1417-1420 yillarda Samarqand, 1433 yilda G'ijduvon madrasalari kurildi.

Ulug'bek tomonidan qurdirilgan me'moriy binolar ichida tarxi, matematik yechimlari, naqsh va bezaklari jihatidan eng nodir inshootlardan hisoblangan, 1428-1429 yillarda Afrosiyob xarobasi yaqinida Naqshi Jahon degan joyda uch qavatli binodan iborat bo'lgan rasadxonasi alohida o'ringa ega. Bu rasadxona Shaqkning ko'p asrli ilmu ma'rifat va madaniyati tarixida shuhrat topgan rasadxonalar orasida Movarounnahrda qad ko'targan yagonasidir. Bugungi kunda mazkur rasadxonaning faqat yer osti qismigina saqlanib qolgan. 1908 yilda V.L.Vyatkin rasadxona Faxri sekstantining yer osti qismini topadi. 1948 yildagi arxeologik qazishlar natijasida rasadxona radiusi 40 metrdan aniqroq doira shaklidagi binodan iborat bo'lganligi aniqlandi. Faxriy sekstanti binoni to'rt qismiga bo'ladi. Ularda katta-kichik xonalar bo'lgan. Abdurazzoq Samarqandiyning ma'lumotlariga ko'ra, rasadxona devorlarida to'qqiz osmon; graduslar, daqiqalar, soniyalar bilan to'qqiz osmon doirasi, yetti sayyora, muhim yulduzlar, tog'lar, dengiz va cho'llar bilan birga yer shari tasvirlangan edi. Ulug'bek kutubxonasida fanning turli sohalariga mansub 15000 tomlik kitoblar saqlangan.

Jamoat binolari qurilishi me'morchiligida Registon maydonida bino qilingan Mirzoyi hammomi va karvonsaroyi, «Bog'i maydan» da qad ko'targan «Chilsutun» («Qirq ustun») va «Chinnixona» saroylari diqqatga sazovordir. Tillakori madrasasi o'rinda bo'lgan Mirzoyi karvonsaroyida ko'pincha xorijiy mamlakatlardan kelgan savdogarlar qunishgan.

XV asr II-yarmida Xurosonda madaniy hayot taraqqiyotida Alisher Navoiy muhim rol o'ynadi. Unga zamondosh muarrixlarning shahodat berishicha, Xurosonda, xususan Xirot va uning buluklarida Navoiy tashabbusi bilan uch yuzdan ortiq jamoat binolari: masjid, madrasa, maqbara, xonakoh, hammom, shifoxona, saroy, istirohat bog'lari, rabot va karvonsaroylar hamda sug'orish inshootlaridan ariq (kanal), hovuz, ko'priq, koriz, bandlar (suv omborlari) qurilgan. Muarrix Xondamirning ma'lumotiga ko'ra, Alisher Navoiy o'z mablag'i hisobidan 52 ta rabot, 19 hovuz, 16 ko'priq, 9 hammom, bir qancha madrasa, masjid, xonakoh va shifoxonalar qurdirgan. Astrobod shahrida qurilgan Mir saroyi va Jome' masjidi, Marv shahridagi Xusraviya madrasalarini qurdirgan. Shuningdek u janglar va zilzilalar natijasida vayron bo'lgan inshootlarni ham qayta tiklattirgan. Jumladan, XIII asrda Hirotida qurilgan Jome' masjidi, 1405-1418 yillarda Mashhadda qurilgan Gavharshod masjidi, XI asr boshida Gurgon yaqinida o'rnatilgan Qobus minorasi, XI asrda Marv va Hirot oralig'ida qurilgan Arslonjoziba raboti va ko'plab boshqa inshootlar ta'mir ettirilgan. Bundan tashqari Alisher Navoiy Samarqandda Abusaid ajdodlari maqbarasi va ishratxona qurdirgan.

Temuriylar davrida tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishiladi. Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali, Mahmud Muzahhib, Xoji Muhammad Naqqosh va Shohmuzaffar kabi mo'ykalam sohiblari yetishib chiqqan. Bizgacha saqlanib qolgan tasviriy san'at namunalari va yozma manbalar Movarounnahr va Hirot tasviriy san'atining o'ziga xos uslubini, musavvirlik ijodiyotining hayoliy mavhumlikdan hayotiylikka, realistik tasvirga tomon rivojlanib borganini ko'rsatadi. Bu jihatdan, ayniqsa Behzod asos solgan Hirot musavvirlik maktabi ulkan yutuqlarga erishadi. Bu davr tasviriy san'at obidalari o'zining mavzui va voqeiylikiga qarab portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo'lgan. Buyuk siymolar qiyofasi tasvirlari orasida Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Xusayn Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqalarning portretlari bizgacha saqlanib qolgan.

Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan tasvirlar o'zining hayotiyligi bilan ayniqsa diqqatga sazovordir. Uning bir tasvirida ko'plab quruvchi-binokor, duradgor, toshlaroshlovchilar, arava va filga ortib kelinayotgan qurilish materiallari, beliga qilich taqqan va gorvon ko'tarib quruvchilarga o'shqirayotgan qutvol – qurilish boshlig'i tasvirlangan.

Zamondoshlari tomonidan Moniyi soniy, keyingi davrda esa «Sharq Rafaeli» deb nom olgan Behzod Xusayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Shayboniyxonlarning siymolarini, Xusrav Dehlaviyning «Layli va Majnun», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlariga chizgan tasvirlari o'zining ta'sirchan va jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, XIV asrning II-yarmi - XV asr mobaynida Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda shaharsozlik, me'morchilik, tasviriy va amaliy o'z taraqqiyotining yuqori darajasiga ko'tarildi. Bu esa keyingi davrdagi madaniy hayotga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

II bob bo'yicha xulosa

- Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyat nihoyatda murakkab bo'lgan. Bunda turli ko'chmanchi qabilalarining hujumlari, ma'lum bir muddat O'rta Osiyoda o'z hukmronliklarini o'rnatilganligini ko'rish mumkin (xioniylar, kidariylar, eftaliylar, Turk xoqonligi).

- Eftalitlarning turkiy etnik elementlar bilan aralashgan holda O'rta Osiyo qabilalari negizida vujudga kelganligidan guvohlik beradi. V asrning ikkinchi yarmiga kelib, eftalitlar davlati nihoyatda kuchayadi. Ularning dastlabki elchisi 456 yilda Hitoygacha borib yetadi. Eftalitlarning tobora kuchayib, borayotganligidan xavfsiragan eronlilar eftalitlarga qarshi 459-484 yillarda uch marta yurish qiladi, lekin urush natijasiz tugaydi. Eftalitlar V asrning ikkinchi yarmi va VI asr boshlarida O'rta Osiyo, Eronni Sharqiy qismi, Shimoliy Hindistonni yagona davlat sifatida birlashtiradilar.

- Eftalitlar xalqaro tijorat sohasida Eron, Hindiston, Xitoy, Yevropaning eng sharqiy viloyatlari bilan keng aloqada bo'lishgan.

- VI asrning boshlariga kelib Oltoyning janubiy viloyatlarida siyosiy munosabatlar jarayonining faollashishi yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bunda hal qiluvchi o'rinni Ashina sulolasi namoyandalari egallaganlar.

- Oltoyning janubiy tomonida Ashina sulolasi hatti-harakatlari tufayli siyosiy jarayon yuksalish yo'liga kiradi. Bundan tashqari zamonaviy tushunchadagi Xitoyning shimoliy qismida Vey (Yuan-Vey) sulolasi (386-558) hukmdorlik qilar va bu xonadonning asli chiqib kelishi esa turkiy negiz bilan bog'liq edi.

- Ashiniylar eftaliylar sulolasiga qarshi kurashda ularning janubi-g'arbidagi dushmanlari sosoniylar bilan yaqin munosabatlarga kirishadi. Buning uchun Mug'anxon 554 yili Eronga elchi yuborib, ikki tomonlama aloqa va ishonchni mustahkamlash yuzasidan amakisi Istaming qizi Asnabekani sosoniy Xisrav I ga (531-579) turmushga beradi.

- 565 yili Mug'anxonning amakisi Istami eftaliylar qo'shiniga qaqshatqich zarba bergan. 567 yili esa Tohariston va umuman eftaliylar qo'li ostida bo'lib kelgan

yerlarni zabt etishga muvaffaq bo'ladi. Shu tariqa VI asrning so'nggi choragi arafasida mintaqada navbatdagi sulola - ashinaliylar hukmronligi o'rnatiladi.

- IX asrda O'rta Osiyoda arablar hukmronligi tugatildi. Bu davrda O'rta Osiyoning shimolida Qarluqlar, O'g'uzlar davlatlari, janubi va markazida Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar davlatlari tashkil topdi. Dastlab markazlashgan davlat tepasiga Somoniylar (IX-X) sulolasi keladi, so'ngra uning iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan hududlarini uchta turkiy davlatlar - Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar (XI asrda) egallaydi. Shu bilan birga XII asr o'rtalaridan Qoraxoniylar va Saljuqiylarga tegishli yerlarda Buyuk Xorazmshohlar davlati vujudga keldi, biroq bu davlat mo'g'o'g'ullarning bosqini natijasida tugatiladi.

- IX-XII asrlarda shahar aholisi Movarounnahr umum aholi sonining 25-30% ni tashkil etgan. XI asrdan shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi o'zgaradi. Ular to'laligicha hunarmandchilik va savdo-sotiq markazi qiyofasini olgan. Shuningdek, shaharlarning u yoki bu hunarmandchilik tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashuvi jadallashadi. Masalan, Qadimgi Farg'onaning poytaxt bo'lgan Axsikent, Toshkent vohasining Ohangaron daryosi havzalarida qad ko'targan qator shaharlarda - Tunkent, Namudlig', Dahketda metallurgiya sanoati jadal rivojlanadi.

- Bu davrning madaniy hayotida yuz bergan yuksakliklar tarixda tengsiz edi. Ilm-fan, din va tasavvuf, me'morchilik va san'at, musiqa san'ati gullab yashnadi. Dunyoga nomi mashhur qomusiy allomalar – Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, al-Farg'oni, Abu Nasr Farobiy, Umar Hayyom kabilar yashab ijod etishdi.

- Mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi taraqqiyotga og'ir zarba berdi. Siyosiy parokandalik, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot butunlay izdan chiqdi. Termiz, Nasaf (Shulluktepa), Samarqand, Buxoro, Urganch shaharlari butunlay vayron etildi.

- XIV asr 70-yillarida Amir Temurning hokimiyatga kelishi, markazlashgan davlatning tashkil topishi butun XV asr mobaynida Movarounnahr va Xurosonda madaniy hayot taraqqiyotini belgilab berdi. Amir Temur Movarounnahrni madaniyat va san'at o'chog'iga aylantirish uchun katta ishlarni amalga oshirdi.

- Amir Temur davrida Movarounnahrda boshlangan madaniy yuksalish Ulug'bek davrida, Xurosonda esa Shohrux va Xusayn Boyqaro davrida davom etdi. Ulug'bek Samarqandni obod qilishga alohida e'tibor qaratdi. Uning davrida Registon maydoni shakllandi.

- XV asr II-yarmida Xurosonda madaniy hayot taraqqiyotida Alisher Navoiy muhim rol o'ynadi. Muarrix Xondamirning ma'lumotiga ko'ra, Alisher Navoiy o'z mablag'i hisobidan 52 ta rabot, 19 hovuz, 16 ko'priq, 9 hammom, bir qancha madrasa, masjid, xonakoh va shifoxonalar qurdirgan.

- Zamondoshlari tomonidan Moniyi soniy, keyingi davrda esa «Sharq Rafaeli» deb nom olgan Kamoliddin Behzod asos solgan Hirot musavvirlik maktabi ulkan yutuqlarga erishadi. Bu davr tasviriy san'at obidalari o'zining mavzui va voqeiyligiga qarab portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo'lgan. Buyuk siymolar qiyofasi tasvirlari orasida Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Xusayn Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqalarning portretlari, Xusrav Dehlaviyning «Layli va Majnun», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlariga chizgan tasvirlari bizgacha saqlanib qolgan.

III BOB. VIZANTIYA IMPERIYASINING O'RTA OSIYO DAVLATLARI BILAN SIYOSIY, IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARI

3.1. Vizantiya imperiyasining ilk o'rta asrlardagi O'rta Osiyo davlatlari bilan aloqalari

V asrga kelib siyosiy maydonga eftaliylar sulolasi chiqadi. Ular to VI asrning ikkinchi yarmiga qadar mintaqa siyosiy hayotida yetakchilik qiladilar.

Eftaliylarga oid qator ma'lumotlarni biz xitoy, hind, fors, arman, suriya, lotin manbalaridan topishimiz mumkin. Shuni qayd etib o'tish lozimki ularning hammasida ham eftaliylar atamasi uchramaydi. Sababi har bir til va yozuvning o'z xususiyatlari bo'lishida. Masalan, xitoy manbalarida eftaliylar ida, yeda, idan, idyan atamalari ostida kelishini kuzatish mumkin⁴¹. Suriya va lotin manbalarida esa eptal, abdal; arman yozuvlarida idal, tetal, xeptal; arab va fors mualliflari nazdida haytal, yaftal, hetal; hind manbalarida huna⁴² va hokazo.

Xitoylik mualliflar eftaliylarni turkiy tilli xalklar (tukyue) bilan bog'liq ravishda ta'riflab, ularning yuechji yo uyg'ur qabilalariga tegishli ekanini ham aytib o'tadilar⁴³. Vizantiyalik tarixchilar, masalan, Prokopi (VI asr), "ular (ya'ni eftaliylar) hunlardanir, tanalari (esa) oq", deb masalaga aniqlik ham kiritib o'tadi⁴⁴. Oq xuna, ya'ni eftaliylar haqida ma'lumotlar hind manbalarida ham bor. Pahlaviy yozuvida bitilgan "Bahman-Yasht" dagi sosoniylarning eftaliylar va boshqalar bilan munosabatiga doir quyidagi tarixiy tasdiqlar e'tiborni tortmay qolmaydi: "(Erondagi) podshohlik va oliy hokimiyat eroniy bo'lmagan qulvachchalarga, ya'ni xion, turk, haftal (eftal), tibetliklar... qo'liga o'tdi". Ko'rinib turganidek, eftaliylar to'g'ridan-to'g'ri turkiy shajaraga bog'lanayapti. Xitoy manbasida quyidagi ma'lumot keltirilgan: "Idan (eftaliylar) sulolasi Xan sulolasi davridan ma'lum Katta Yuechji avlodidan.

⁴¹ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.- Л., Изд. АН СССР, 1950-1953. Т. 1. Стр. 203, 217, 218, 229.

⁴² Пигулевская Н. Сирийские источники по истории народов СССР. 1941. Стр. 49-51, 163, 165.

⁴³ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. 2. Стр. 248.

⁴⁴ Пигулевская Н. Сирийские источники... Стр. 50.

Daxya (Baqtriya) bu Tula (Tohariston) demakdir. (Bu erlik) hukmdorning nomi Iede (Eftal, Eftalan, Eftalit) bo'lgan. (Keyinchalik) uning avlodlari (bu) nomni davlat nomiga aylantirib yuborganlar. Urf-odatlari tukyuelarnikiday (turklarnikiday)⁴⁵. Shu qabildagi dalillarni o'zida jo etgan bir qator boshqa manbalar tahlili shunday xulosaga olib keladiki, eftaliylar Turkiston mintaqasida yashab kelgan qadimiy urug' vakillaridan shakllangan sulola bo'lib, V asrda tegishli sharoit tug'ilishi bilan siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritishga erishganlar.

Bilamizki, so'nggi kushoniylar davrida davlatning siyosiy, iqtisodiy va tashqi munosabatlardagi ta'siri zaiflashib borgan. Ajab emas, bunday holatdan norozi va, aksincha, tashqi munosabatlardagi faollikdan manfaatdor mamlakat siyosiy va savdo doiralari eftaliylarning oliy hokimiyatga intilish harakatlarini qo'llab-quvvatlaganlar. Zero, mamlakat o'z taraqqiyot yo'lida to'xtab qolmasligi uchun qat'iy siyosatchilik faoliyati zarurligi barchaga ayon narsa. Ana shu tarixiy vazifani uddalash V asrning ikkinchi yarmida eftaliylar yo xitoylik tarixchilar tili bilan aytganda Eftal (Eftalan) avlodlari bo'yniga tushgan. Ular oliy hokimiyatni qo'lga kiritgach, o'z sulolalarini (hukumatlarini) bobolari nomi bilan bezaganlar. Bunga o'xshash hollarni biz mintaqa tarixida ko'plab uchratishimiz mumkin: Somon - somoniylar, Saljuq - saljuqiylar, Temur - temuriylar va hokazo. Eftaliylar atamasi shu sulola asoschisi Eftalan nomidan kelib chiqqanini vizantiyalik Feofan ham yozgan⁴⁶. Shuni ham qat'iy tasavvur qilish mumkinki, VI asrda ashinaliylardan mag'lubiyatga uchraganlaridan keyin ham eftaliylar xonadoni o'z doirasidagi faoliyatni davom ettiravergan. Eftaliylar sulolasining VII asrda ham barhayotligini shundan bilsa bo'ladiki, xitoy manbalariga ko'ra, 605-617 yillar oralig'ida ular Xitoy hukmdori saroyiga o'z elchilarini yuborib turganlar⁴⁷. Aftidan, bu eftaliylarning davlat tepasida turgan vaqtlaridagi Xitoy bilan o'rnatgan o'zaro sulolaviy aloqalarning davomi bo'lishi kerak.

⁴⁵ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. 2. Стр. 268, 322.

⁴⁶ Пигулевская Н. Сирийские источники... Стр. 50.

⁴⁷ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. 2. Стр. 286.

Shunday qilib V asrning ikkinchi choragidan boshlab mamlakatimiz, umuman Turkiston siyosiy hayotida eftaliylar xonadoni hukmron o'rin tuta boshlaydi. Bu yillar IV asrdayoq zaiflashishi yo'lga kirgan Kushoniylar saltanatining g'arbiy sarhadlari sosoniylar tahdidi ostida qolgan davr edi. Shuning uchun eftaliylarning sosoniylar bilan keskin munosabatlarga kirishishlari tabiiy bir hol bo'lgan. Garchi ikki tomon o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar V asr 30-yillaridayoq sodir bo'lgan bo'lsa-da, ammo hal qiluvchi kurashlar sosoniy hukmdor Piruz (Peroz) davriga (459-484) to'g'ri keladi. Taxminan 457 yili Vaxshunvar (Axshunvar) boshliq eftaliylar Chag'oniya (Surxondaryo viloyatining Termizdan yuqori qismlari), Tohariston, Badaxshonda o'z hokimiyatlarini o'rnatadilar. Bir oz vaqt o'tgach, ya'ni 459 yili Eron taxtiga Piruz chiqadi. Manbalarda Piruzning oliy hokimiyatga kelishi eftaliylar bilan bog'liq ravishda bayon qilinadi⁴⁸.

Nafaqat Piruz, balki uning akasi Xurmuzd (457-459) ham eftaliylar yordamida taxtni qo'lga kiritgani ma'lum. Eftaliylar va sosoniylar o'rtasidagi bu kabi munosabatlar sababini tushunish qiyin emas. Chunki Xurmuzd va Piruzlar o'z vaqtida taxt vorisi sifatida Sosoniylar davlatining sharqiy viloyatlarini (Seyistondan Marg'iyonagacha bo'lgan hudud) boshqarganlar (Xurmuzd 420-457 yillari; Piruz 457-459 yillari). Shu munosabat bilan ular qo'shni o'lka siyosiy, savdo doiralari bilan yaqindan muomalada bo'lganlar. Bu yaqinlik qay daraja bo'lganligini shundan ham bilib olsa bo'ladiki, sosoniylarning mazkur hududlarini boshqargan taxt vorislari "Kushon hukmdori" unvoniga ega bo'lganlar. Bu ma'lum vaqt muqaddam kushoniylar egalik qilgan viloyatlar ustidan hukmronlik va qolganlariga da'vogarlik degani bilan barobar. Shu erda Xitoy manbalarida sosoniylarning kelib chiqishini yuechjilar bilan bog'lashga doir hollarni eslab o'tining o'zi kifoya⁴⁹. Mazkur guvohliklar, hatto afsonavor bo'lganda sosoniylarning Turkiston bilan yaqinligi ko'zga tashlanib turgan hol. Buning isbotini Xurmuzd va Piruzning Eron taxtiga chiqishlarida eftaliylar ko'rsatgan yordam orqali ham ko'rish mumkin. Faraz qilish mumkinki, bu siyosiy tadbirdan nafaqat eftaliylar, balki mintaqa savdo-iqtisodiy

⁴⁸ Пигулевская Н. Сирийские источники... Стр. 53.

⁴⁹ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. 2. Стр. 326-327.

doiralari ham manfaatdor bo'lganlar. Aftidan, mo'ljalga ko'ra, Sharqiy Turkistondan Rim saltanatigacha bo'lgan ulkan hududni yaxlit iqtisodiy-savdo makoniga aylantirish asosiy maqsad bo'lgan. O'z o'rnida Piruz eftaliylarning yuksalib borishini vaqtinchalik deb bilib, ular kuchidan Eron taxtiga kelish uchun foydalangan bo'lishi kerak. Ammo eftaliylar qudrati oshib, tez orada ular sosoniylarga ham ta'sir o'tkazishini anglagan Piruz eftaliylarga qarshi jangga kiradi. Dastlabki to'qnashuvlardayoq eftaliylar tomonidan asirga olingan Piruzni Vizantiya hukmdori o'rta tushib, tutqunlikdan ozod qilishga erishadi⁵⁰. Shunga qaramay Piruz yana eftaliylarga qarshi harbiy yurish uyushtiradi. Bu safar qo'lga tushgan Piruz o'ttiz xachir kumush dirham evaziga qo'yib yuboriladi⁵¹.

Kushoniylar davridagi kabi eftaliylar zamonida ham saltanat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan. Xitoy manbalariga ko'ra taxt otadan bolaga qolmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa o'sha taxtga o'tirgan⁵². Demak, ana shu nomzodni aniqlab taqdim etadigan qandaydir bir kengash ham mavjud bo'lgan. Bu kengash sulolaning mo'tabar namoyandalari hamda saltanat arkonlaridan iborat bo'lgan bo'lsa ham ehtimoldan xoli emas. Eng muhimi eftaliylar davrida davlatimiz qonunlar asosida boshqarilganini alohida ta'kidlash lozim. Rumlik Prokopi (VI asr) "Eftaliylar davlatni qonunlar asosida boshqaradilar" deb yozarkan, ushbu qonunlar turkiy tuzuklar bo'lgani shubhasizdir⁵³.

Ajdodlarimizning so'nggi ming yil ichidagi harbiy mahorat bobidagi tajribasi eftaliylar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular lashkarining asosini otliq askarlar tashkil etib, o'z davrining eng qudratli harbiy kuchlaridan hisoblangan. Bunga dalil sifatida sosoniylarning Vizantiya bilan birga eftaliylarga qarshi chiqishi va mag'lubiyatga uchrashlari hamda ashinaliylarning sosoniylar bilan birgalikda eftaliylarni engishlariga doir guvohliklar xizmat qilishi mumkin.

Mintaqa shaharlari tarixida V asr oxiri - VI asr boshlari katta jonlanish yillari bo'lgani ma'lum. Ayniqsa, kichik shaharlarning tezlik bilan o'sib borishi, hashamatli

⁵⁰ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2001. 74-бет.

⁵¹ Ўша жойда.

⁵² Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. 2. Стр. 269.

⁵³ Пигулевская Н. Сирийские источники... Стр. 50.

binolari bo'lgan alohida-alohida qo'rg'onlarning yuzaga kelishi va ko'payishi Xorazm, Sug'diyona, Shosh va Baqtriya viloyatlarida keng kuzatiladi. Bunda iqtisodiy-savdo munosabatlarining izchil yo'lga qo'yilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. O'ylaymizki, mintaqamizning an'anaviy iqtisodiy imkoniyatlari (dehqonchilik, sun'iy sug'orish, chorvachilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik va boshqalar) bu davrda ham o'z ravnaqi yo'lida to'xtamaganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Manbalarda bu borada hech bir yo'qotish bo'lmagani haqida guvohliklar yetarli⁵⁴.

Ayniqsa, savdo-sotiq gurkirab rivoj topgan. Bir tomondan, ulkan mintaqaning siyosiy jihatdan yaxlitligi, ikkinchi tomondan, Sharq va G'arb mamlakatlariaro iqtisodiy-savdo munosabatlari oralig'ida bo'lib kelish ichki va tashqi savdo ishlarining yanada taraqqiy etib borishiga qulay sharoit yaratib bergan. Bu esa o'z o'rnida yo'l, qatnov, ta'minot, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayib borishiga yo'l ochgan. Tashqi savdoda ipak, lok, buyoqlar, rangli shishalar, qimmatbaho toshlar, arg'umoq otlar, matolar, shirinliklar, qurol-yarog' kabi noyob mahsulotlar bozori chaqqon bo'lgan. Shuni ham nazarda tutish lozimki, Buyuk Ipak yo'lining har ikkala yo'nalishining (shimoliy - Turfon, Qoshg'ar, Farg'ona, Sug'diyona, Marg'iyona; janubiy - Xutan, Yorkent, Pomir, Baqtriya) eftaliylar saltanati hududidan o'tishi ham muhim ahamiyat kasb etgani tabiiy.

Iqtisodiy taraqqiyot o'z-o'zidan madaniy hayotda ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi tushunarli hol. Biz yuqorida kichik shaharlarning gurkirab o'sishi haqida gapirdik. Arxeologlarimizning ta'kidlashlaricha, me'morchilik sohasida turar joylarni bir necha qavat qilib qurish, uy devorlarini naqqoshlik va suratkashlik san'ati namunalari bilan bezash bu davr uchun xarakterlidir. Diniy inshootlar qurilishiga ham alohida e'tibor berilib, ichki bezash ishlarida qimmatbaho toshlar, xususan oltindan keng foydalanilgani ma'lum⁵⁵.

Eftaliylarning tashqi aloqalari, yuqorida ta'kidlanganidek, Eron bilan g'oyatda keskin kechgan. Buning sabablaridan biri sosoniylarning ham G'apb va Sharq o'rtasida savdo aloqalarida yetakchi o'rinni egallashga qaratilgan urinishlarida edi.

⁵⁴ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи... 77-78-бетлар.

⁵⁵ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. 2. Стр. 286.

Sosoniylarning eftaliylarga o'lpon to'lashi Piruzning o'g'li Kubod (Kavod) hukmronligi yillarida ham davom etadi. Shu bilan birga qulay sharoit tug'ildi deguncha eftaliylar sosoniylarning ichki ishlariga aralashishga harakat qilganlar. Masalan, 496 yili taxtdan ag'darilib qamoqqa tashlangan Kubod qochib eftaliylar oldiga boradi. Suriyalik Ieshu Stilitning yozishicha, u “ko'zida yosh bilan har kuni (eftaliylar hukmdoridan) lashkar bilan qo'llab-quvvatlashni iltimos qilardikim, to... yana davlat boshqaruvini qo'lga olsam” deb. Haqiqatan, eftaliylar yordamida Kubod 499 yili yana Eron taxtiga o'tiradi. Eftaliylar sosoniylarni o'zlariga qaram qilib olganlaridan so'ng ularning imkoniyatlaridan Vizantiyaga qarshi kurashda foydalanmoqchi bo'ladilar. Chunonchi, eftaliylarning Vizantiyaga qarshi 502 yildagi yurishi sosoniylar ishtirokida amalga oshirilgan.

Eftaliylarning Xitoy bilan munosabatlari asosan, savdo-sotiq orqali amalga oshirilib, bunda yuqorida aytilganidek, Buyuk ipak yo'lining shimoliy va janubiy yo'nalishlarining mintaqamiz orqali o'tishi katta ahamiyat kasb etgan⁵⁶. Eftaliylarning Markaziy Hindiston, Yevropaning eng sharqiy viloyatlari bilan ham yaqin aloqalarda bo'lganlari ma'lum.

Shunday qilib, V-VI asrlarda mamlakatimizda, umuman, mintaqada yuz yildan ortiq davr davomida eftaliylar sulolasi hukmronlik qildi. Davlatni boshqarishda ular o'tmish dongdor sulolalardan qolishmaganlar. Aksincha, so'nggi kushoniylar zamonida bosh-boshdoqlik yo'lga kirgan mamlakatni qaytadan birlashtirib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar va tashqi aloqalar taraqqiyotini an'anaviy yuksak darajada tutib turish ishiga bosh-qosh bo'lganlar.

VI asrning boshlariga kelib Oltoyning janubiy viloyatlarida siyosiy munosabatlar jarayonining faollashishi yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Xitoy manbalariga ko'ra, bunda hal qiluvchi o'rinni Ashina sulolasi namoyandalari egallaganlar⁵⁷. Sharqiy Turkiston, Farg'ona, Sug'diyona, Xorazm, Baqtriya, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eronni o'z ichiga olgan hududda eftaliylar, hozirgi Mo'g'uliston va qisman Shimoliy Xitoy ustidan esa Jujan xonligi hukmronlik qilib kelardi.

⁵⁶ O'sha asar.

⁵⁷ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. I. Стр. 221.

Aytilganidek, Oltoyning janubiy tomonida Ashina sulolasi hatti-harakatlari tufayli siyosiy jarayon yuksalish yo'liga kiradi. Bundan tashqari zamonaviy tushunchadagi Xitoyning shimoliy qismida Vey (Yuan-Vey) sulolasi (386-558) hukmdorlik qilar va bu xonadonning asli chiqib kelishi esa turkiy negiz bilan bog'liq edi. Demak, VI asr boshlarida Kaspiy dengizidan Uzoq Sharqqacha bo'lgan katta hudud hayoti ko'pdan-ko'p turkiy tilli sulolalar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan⁵⁸.

Oltoy tog' tizimi janubiy qismining qadimgi nomi Oltin yish (Oltin vodi) bo'lib, tabiiy sharoiti har qanday jamiyat farovonligini ta'minlashda benazir hisoblangan. Xitoy manbalarida yozilishicha, tilga olingan Ashina sulolasi ham xuddi shu shart-sharoitda yuksalgan, siyosiy ta'siri ortib borib, ayniqsa Bumin (Tumin) sardorligi vaqtida bu jarayon yanada faol tus olgan. Uddaburon siyosatchi sifatida u ham siyosat, ham zo'ravonlik yo'lini tutadi. Masalan, Bumin Jujan xonligi bilan ochiqdan-ochiq aloqani uzib, 551 yili Vey xonadoni bilan quda-andalik aloqasiga kiradi. 552 yili esa Jujan xonligiga qarshi qurolli kurashga o'tlanib, ularni tor-mor qiladi⁵⁹. Ammo Bumin 553 yili vafot etadi va uning o'rniga taxtga o'g'li Qora Issiq (Isigi) o'tiradi. Qora Issiqxon ko'p hukmdorlik qilmay, shu yiliyoq qazo qiladi. Lekin u ham o'z hukmronligi davomida jujanlarga yana bir bor qattik, zarba berishga ulgurgandi. Demak, shu yilning o'zida Ashina sulolasining sardori ikki marta o'zgargan⁶⁰. Endigi gal taxtga Buminning kichik o'g'li Mug'anxon (553-572) chiqadi.

Mug'anxon davrida ashinaliylar "Koreya qo'ltig'idan G'arbiy dengizgacha, (Xitoy devoridan) Shimoliy dengizgacha" bo'lgan erlarni⁶¹ o'z siyosiy hukmlari ostita olishga muvaffaq bo'lganlar. Mug'anxon xuddi otasi Bumin kabi ham siyosat, ham zo'ravonlik yo'llaridan ustalik bilan foydalana bilgan hukmdor edi. Chunonchi, eftaliylar sulolasiga qarshi kurashda u, avvalo, ularning janubi-g'arbidagi dushmanlari sosoniylar bilan yaqin munosabatlarga kirishadi. Buning uchun Mug'anxon 554 yili Eronga elchi yuborib, ikki tomonlama aloqa va ishonchni mustahkamlash yuzasidan amakisi Istaming qizi Asnabekani sosoniy Xisrav I ga

⁵⁸ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи... 80-бет.

⁵⁹ О'ша асар... 81-бет.

⁶⁰ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. I. Стр. 228.

⁶¹ Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. – М., 1951. Стр. 51.

(531-579) turmushga beradi. Eftaliylar qarshiligiga qaramay ashinaliylar va sosoniylar o'rtasidagi o'zaro kelishuvga putur etmaydi. Lekin bu yaqinlashuv vaqtinchalik edi. Zero, Ashina sulolasining eftaliylardan so'ng albatta sosoniylarni ham bir yoqlik qilishni mo'ljallab qo'yganliklariga shubha qilmasa ham bo'lardi. Haqiqatan ham shunday bo'lib chiqdi. 565 yili Mug'anxonning amakisi Istami eftaliylar qo'shiniga qaqshatqich zarba bergan. 567 yili esa Tohariston va umuman eftaliylar qo'li ostida bo'lib kelgan erlarni zabt etishga muvaffaq bo'ladi⁶². Shu tariqa VI asrning so'nggi choragi arafasida mintaqada navbatdagi sulola - ashinaliylar hukmronligi o'rnatiladi.

O'sha davr siyosiy voqeligi nuqtai nazaridan olganda ashinaliylarning Turkistonni zabt etishlari ehtimoli baland edi. Chunki so'nggi yillarga kelib eftaliylar o'z siyosiy faoliyatlarida zaiflashish yo'liga kirgan va buni ular qo'l ostidagi yerlarning sosoniylar va ashinaliylar ixtiyoriga o'tib borishidan ham bilsa bo'ladi. Chunonchi, keyingi vaqtlarda Eron nafaqat yillik o'lpon to'lashdan bosh tortgan, balki 554 yili Toharistonni bosib olgandi, ya'ni eronliklarning ham Turkistonga da'vogarliklari nihoyatda jiddiy edi. 555 yili esa ashinaliylar Toshkent, Sirdaryo bo'ylari, Xorazmni zabt etadilar. Boshqacha aytganda, eftaliylarning ertangi ahvoli ma'lum bo'lib qolgan. Bundan tashqari Ashina sulolasi eftaliylar, sosoniylardan farqli o'laroq endi qudratga to'lib kelayotgan yosh siyosiy kuch hisoblanardi. Shu bilan birga, eng muhimi, Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalarining barqaror ravishda olib borilishini siyosiy jihatdan kafolatlovchi tomon bo'lib ham Ashina sulolasi namoyandalari chiqishlari mumkin edi. Shuning uchun ham 565 yilgi ashinaliylar va eftaliylar o'rtasidagi asosiy jangda sug'diyonaliklar betaraf bo'lib turgan bo'lsalar ajab emas. Chunki bu vaqtga kelib Vizantiya sustlik bilan bo'lsa-da, o'zida ipak yetishtirish ishini boshlab yuborgan hamda 564 yilgi ahdlashuvga binoan Mug'anxon Vey-Chjeu sulolasidan (537 yili, tilga ol- ganimiz, Vey sulolasi hukmron hududning g'arbiy qismida hokimiyatni qo'lga kiritgan xonadon) o'lpon sifatida yiliga 100 ming parcha ipak mato olish kerak edi. 100 ming parcha ipak mato o'z davri uchun juda

⁶² Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. II. Стр. 269; Пигулевская Н.В. Сирийские источники... Стр. 71-75.

katta hajm ekanligi qanchalik tabiiy bo'lsa, bu “o'lpon” ni G'arbga olib borib sotib, foyda olish va bu sohada doimo birinchi bo'lish sug'diyonalik savdogarlar uchun tushunarli va eplasa bo'ladigan tadbir edi.

Mug'anxon va uning avlodlari harbiy yutuqlarni davom ettira borib, yuqorida aytilganidek, Qora dengizdan Tinch okeangacha bo'lgan ulkan hududdagi saltanatga asos solishga erishadilar. Lekin shu bilan birga qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra (masalan, saltanat maydonining haddan tashqari kattaligi va uni boshqarishdagi murakkabliklar, tadbirkor, donishmand hukmdorlarning nisbatan kam bo'lishi, Vizantiya, Eron, Xitoy kabi qudratli davlatlar bilan doimiy raqobat va hokazo), avvaliga (VI asr oxiri) saltanat g'arbiy va sharqiy xoqonliklarga bo'linib, birinchisi VII asrning ikkinchi yarmida, ikkinchisi esa VIII asrda batamom barbod bo'ladi.

Ashinaliylar davrida o'lkaning dehonchilik, hunarmandchilik, quruvchilik, savdo-sotiq, konchilik kabi sohalaridagi taraqqiyoti to'xtamagan. Buning sababi tushunarli, albatta. Chunki mamlakatimizning tabiiy, jug'rofiy, kup asrlik tajribaviy imkoniyatlari nechog'lik; bo'lgani ham ma'lum. Shuning uchun yozma manbalarda, arxeologik qazishmalar natijalari orqali Farg'ona, Sug'diyona, Xorazm, Baqtriya (Toxariston) kabi viloyatlarda dehonchilikning barcha turlariga oid qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin. Dehqonlar mavjud suv resurslari hamda lalmikor yerlar imkonlaridan foydalanib bug'doy, arpa, sholi, mosh, tariq, no'xat, qovun, tarvuz kabi o'simliklardan yuqori hosil olganlar. Paxtachilik, pillachilik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi sohalar ham o'tgan asrlar kabi munosib darajada o'sib borganini o'rta asr tarixchilari qayd etib o'tganlar. Masalan, bir yerda o'lkada yetishtiriladigan paxtaning yuqori sifat darajasi ta'kidlansa, boshqa bir yerda uzumchilik, xususan, vinochilik borasidagi mirishkorlar tajribasiga ananaviy bo'lib qolgan tahsinlar o'qiladi. Bog'dorchilikka ham munosabat xuddi shu qabilda. Shaftoli, o'rik, olchaning bir necha turlari, yong'oq, pista, bodom va boshqa qator meva navlaridan ham sifatli, ham yuqori hosil olingan yo manba tili bilan aytganda “(mevali) daraxtlar savlat to'kib turgan”. Chunonchi, ajnabiylarni Samarqandning

“tilla shaftolisi” lol qoldirgani ma'lum⁶³. Shifobaxsh o'simliklardan ham keng foydalanilgan.

Qadimdan qazilma boyliklari bilan mashhur o'lkamizda bu davrda ham konchilikdagi faoliyat susaymagan. Oltin, temir, navshadil, kumush, qo'rg'oshin, mis, margimush, tuzning bir necha xili, turli qimmatbaho toshlar, shifobaxsh qotishmalar Sug'diyona, Shosh, Farg'ona, Toxariston kabi viloyatlarda qazib olingani manbalarda aniq ko'rsatilgan⁶⁴. Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot ko'lamini va sifati o'z-o'zidan keyingi uch tarmoq: hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiq ravnaqi uchun katta turtki bo'lishi tabiiy hol edi. Shuning uchun ham bu vaqtda metallsozlik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, to'qimachilik kabi kasb-korlar keng quloch yozib borgan. Ularning rivojiga oid misollar juda ham ko'p. Zargarlarning nafis bezaklari, taqinchoqlari, temirchilarning dehqon, quruvchiga yo bo'lmasa oddiy bir ro'zg'orga zaruriyatlarni (bolta, o'roq, mix, qaychi, zanjir, kalit), qurolsozlarning harbiylarga, zodagonlarga, ishqivozlarga yasab bergan puxta va noyob qurol-aslahalari, turli hajm va maqsadda ishlov berilgan sopol idishlar, paxta, jun, ipak matolar, qog'oz o'rnida ishlatib bo'ladigan darajada sayqal berilgan terilar va ko'plab mahsulotlarni sanayversak tugamaydi.

Yuqoridagi sohalar jonlanishi bilan quruvchilik kengayib boravergan. Ustaxonalar, diniy va rasmiy binolar barpo etish, ularni munosib ravishda sayqallash, bezash kabi tadbirlar quruvchilar bo'yniga tushgani tabiiy. Arxeologlar olib borgan qazilmalar shaharlarning o'sishi, yangi qal'alarning bunyod bo'lishi, ibodatxonalar, saroylar, fuqarolar turar joylarining qurilishiga doir ko'plab ma'lumotlarni yuzaga chiqarmoqda.

Sharq va G'arb o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tab kelgan o'lkamiz savdo ahli siyosiy makonning kengayishidan unumli foydalanib, o'z faoliyatlarini yanada jonlantirib yuboradilar. Ilgari xalqaro savdo asosan Xitoy-Turkiston-Eron orqali g'arbga tomon yo'nalishda olib borilgan bo'lsa, endilikda Kaspiy dengizi hamda Shimoliy Kavkaz yo'lidan ham unumli foydalana boshlandi. O'lkaning asosiy savdo

⁶³ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. 2. Стр. 281, 310, 316.

⁶⁴ Ўша жойда. Стр. 259, 272, 281- 282, 285.

hamkorlari bo'lib Xitoy, Eron, Hindiston, Vizantiya kabi mamlakatlar hisoblangan. Bu mamlakatlarga to'qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar, ulardan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg'umoqlar, bir necha xil tuz, vino, bog'dorchilik mahsulotlari, qazilma boyliklarning bir qancha turlari olib borilgan. Ayniqsa, savdo-sotiq ishlarida Sug'diyona savdogarlari dong chiqarganlar. Shu ma'noda xitoylik mualliflarning quyidagi guvohligi haqiqatga sazovordir: “(Sug'diyonalik) erkaklar yigirma yoshga to'lishlari bilan qo'shni mamlakatlarga oshiqadilar va (savdo-sotiqda) qaerda (qulaylik) va manfaat bo'lsa, (albatta) u erga qadam ranjida etadilar”⁶⁵.

Yuqorida biz ashinaliylarning tashqi siyosiy aloqariga tegishli ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tdik. Umuman olganda esa o'z davrining xalqaro munosabatlari doirasida ham geografik, ham siyosiy (bugungi kun iborasi bilan aytganda geosiyosiy) jihatlardan markaziy o'rinni egallab turgan xoqonlik o'zidan tashkari mavjud uch yirik davlat: Xitoy, Eron, Vizantiya bilan raqobat qilishiga to'g'ri kelgan.

Ashina sulolasi endigina kuchga kirib kelayotgan dastlabki davrda birinchi vazifa qilib yon-atrofni mustahkamlashni qo'ygan. Shuning uchun ham yuqorida aytilganidek nasl-nasabi noma'lum jujanlardan kechib, qavman yaqin veylar bilan yaqinlashiladi. Bu ashinaliylarning sharqiy yo'nalishdagi mavqeini mustahkamlamay turib G'arbra tomon odimlash qiyin kechishini yaxshi tushunganliklaridan dalolat beradi. Bu vaqtda Eron ham, Vizantiya ham eftaliylar bilan teskari edi. Shu sababdan ham sosoniylar va ashinaliylar o'rtasida eftaliylarga qarshi ittifoqqa erishish shunday oson hal bo'ladiki, ish hatto eronlik hukmdorlarning turkistonlik malikalardan biriga uylanishigacha borib, ashinaliylar endi Eron saroyida o'z kishilariga ega bo'lib oladilar. Tez orada eftaliylar hukmronligi xotimaga etadi. Endigi gal ashinaliylar Vizantiya bilan harbiy ittifok, tuzib Eronni siquvga olib, hatto ular eftaliylarga to'lab kelgan yillik o'lponni bundan buyon bizga to'laysizlar, qabilidagi shart ham qo'yadilar. Shart-sharoit etilganda xoqonlikning Qrimda Vizantiya bilan yuzma-yuz

⁶⁵ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений... Т. 2. Стр. 310.

kelgan vaqtlari ham bo'lgan. Albatta, ashinaliylarning Xitoy, Eron, Vizantiya bilan munosabatlarda o'z hukmlarini o'tkazib, harbiy ustunliklarga erishgan vaqtlarda saltanat siyosiy-geografik jihatdan yuksalgan.

3.2. Rivojlangan o'rta asrlarda Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari

Turkiston xalqlari hayotida o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchilik turmush tarzi yonma-yon, bir-biriga g'oyatda bog'liq ravishda mavjud bo'lib kelgan. Xorazm, Zarafshon, Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo vo'ha va vodiylarida yashagan xalqlar ming yillar davomida asosan o'troq hayot kechirib kelgan bo'lsalar, atrofdaga cho'lu biyobonlarda, tabiiy ravishda, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchilar istiqomat qilgan. Shu bilan birga ko'chmanchi muhitdan ham vaqti kelib qudratli siyosiy sulolalar yetishib chiqqani ham ma'lum. Bu, ayniqsa, saljuqiylar sulolasi misolida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Saljuqiylar turkiy o'g'iz qavmi tarkibida dastlab hozirgi Janubiy Qozog'iston hududiga to'g'ri keladigan yaylovlarda, Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi hayot kechirar edilar. Aslini olganda xuddi shu vaqtda saljuqiylar sulolasi hali shakllanmagan edi. Boshqacha aytganda, saljuqiylar bu etnik nom emas. X asrda Balxash ko'lining janubidan to Quyi Volgagacha bo'lgan hududda turkiy xalqlardan bo'lmish o'g'uzlar yashardilar. Ular ko'plab qabila va urug'larga bo'linganlar. Ana shundaylardan biri - qiniq urug'idan chiqqan Saljuq ismli shaxs o'zining fazilatlari, bilimdonligi, abjirligi va mardligi orqasida obro'-e'tibor qozonib boradi va bir qancha o'g'iz qabilalari sardori, katta harbiy kuch boshlig'i darajasiga erishadi⁶⁶. Tabiiy ravishda bunday shaxslarning borib-borib o'z davrasi, ta'sir doirasi vujudga keladi. Saljuqda ham shunday bo'lgan. Bu esa o'z o'rnida muayyan qarama-qarshiliklarni ham vujudga keltirgan. Xullas, iqtisodiy-siyosiy raqobat natijasida Saljuq o'z tarafdorlari bilan yuqorida tilga olingan Sirdaryoning o'rta oqimlarini tark

⁶⁶ Агаджанов С.А. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв. - Ашхабад, 1969. Стр. 179-180.

etib, daryoning quyi oqimi chap qirg'og'ida joylashgan Jand viloyati yaqiniga kelib o'rnashadi. Bu voqea taxminan X asrning o'rtalarida sodir bo'lgan. Shu orada ular islom dinini qabul qiladilar. Ular xuddi shu asrda Movarounnahrni idora qilayotgan somoniylar, aniqrog'i so'nggi somoniylarni harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlaganlarini bilamiz. Saljuqiylarning Movarounnahr siyosiy hayotiga faol aralashuvi ayniqsa somoniylarning qoraxoniylar bilan raqobati yillari kuchaydi. Bu esa saljuqiylar qaramoidagi o'g'iz qavmlarining Samarqand, Buxoro, Kesh viloyatlariga borib o'rnashishlari uchun sharoit yaratdi. Ular o'z turmush tarzlariga ko'ra yaylovlar, dashtliklarda o'rnashganliklari tabiiy. Shahar va vohalarda esa, avvalgidek, o'troq turkiy aholi istiqomat qilavergan⁶⁷.

XI asrning 40-yillaridayoq saljuqiylar Xorazm, Eron, Kavkazortiga harbiy yurishlar uyushtiradilar. 1055 yili esa To'g'rulbek xalifalik poytaxti Bag'dodni egallaydi va o'z nomiga xutba o'qittiradi. To'g'rulbek hayotligidayoq saljuqiylar Eron, Iroq, Kavkazorti o'lkalarini o'z ta'sir doiralariga tortgan edilar. 1071 yili esa keyingi saljuqiy hukmdor Sulton Alp Arslon (1063-1072) Kichik Osiyoda Vizantiya podshosi Romen IV Diogenni yengib, o'zini asirga oladi. Bu esa saljuqiylarning Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o'rnashib olishlari uchun katta zamin tayyorlaydi. Sulton Malikshoh (1072-1092) zamonida Samarqand, Buxoro, O'zgand (Farg'ona) ham saljuqiylar qo'l ostida birlashadi. Sharqiy Turkistondagi qoraxoniylar ham saljuqiylar ustunligini tan oladilar. Sulton Malikshoh hukmronligi davrida saljuqiylar saltanati Sharqiy Turkistondan O'rta dengizgacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan.

Savdo-sotiqning rivojlanishida ishlab chiqarish (dehqonchilik, hunarmandchilik) bilan bir qatorda ulkan iqtisodiy-savdo makonining mavjudligi ham muhim o'rin tutgan. Albatta, bunday makonni yaratish oson bo'lmagan. Shaharlarda bozorlar ahvolini yaxshilash, taptib o'rnatish, karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash, ma'lum masofalarda rabotlar, to'xtash joylari barpo etish, pul muomalasini nazorat qilish kabi qator muhim tadbirlarni doimo amalga oshirishga

⁶⁷ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи... 124-125-бетлар.

to'g'ri kelgan. Buning natijasida mintaqaning O'rta va Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa, Hindiston, Xitoy kabi mamlakat va o'lkalar bilan savdo aloqalari gurkirab borgan⁶⁸.

Saljuqiylar saltanatining Sharqiy Turkistondan O'rta dengizgacha yastanishi geografik jihatdan ularni to'g'ridan-to'g'ri tarixiy Xitoy va Vizantiya bilan chegaradosh qilib qo'ydi. Xitoy ham, Vizantiya ham bundan xavfsirashi turgan gap edi. Shuning uchun ham ular iloji boricha saljuqiylarning zaiflashib borishidan manfaatdor edilar. Bunda “cho'g'ni birovning qo'li bilan ushlash” siyosatidan unumli foydalanishga ko'p harakat qilingan. Chunonchi, saljuqiy Sulton Malikshoh davrida Vizantiya diplomatik yo'llar bilan Xitoyni saljuqiylarga qarshi gij-gijlab, ular o'rtasida urush chiqarishga obdon harakat qilgani ma'lum. Ammo Sun xonadonidan bo'lmish Xitoy hukmdorlari urushdan ko'ra savdo aloqalari ko'proq manfaatliroq ekanini anglab bu yo'ldan yurmaydilar. Vizantiya bu bilan tinchimay endi to'g'ridan-to'g'ri g'arbda, Yevropaning o'zida saljuqiylar, aniqrog'i “musulmonlar xavfi” ni bayroq qilib, ularga qarshi kurashga da'vat qila boshlaydi. Demak, saljuqiylar Vizantiya uchun, eng avvalo siyosiy, xalqaro savdo munosabatlarida katta raqib hisoblanardi. Odatda, raqibni engish ishi unga nisbatan ko'pchilik fikri, ya'ni mafkurasini qarshi qo'yishdan boshlanganidek, Vizantiya saljuqiylarning harbiy-siyosiy xavfiga qarshi mafkura, e'tiqod omilini qo'ydi. Bundan Rim cherkovi va boshqa Yevropa mamlakatlari iloji boricha foydalanishga harakat qildilar. Shu tariqa XI asrning so'nggi o'n yilligida mafkura bo'yoqlari bilan chaplangan salib yurishlari boshlangan. Salibchilarning sharqqa qarab harakatlarini qirqida saljuqiylarning xizmatlari katta bo'lgan.

Sharqning qimmatbaho mollari azaldan G'arb mamlakatlari savdogarlarining diqqatini jalb qilib kelgan. Shoyi, qimmatbaho ma'danlar va toshlar, dorivorlar va Sharqning afsonaviy turfa boyliklari G'arb mamlakatlarida doim mashhur bo'lgan. Yakkaxudolik, lekin har xil diniy e'tiqod: Sharqda islomning va G'arbda nasroniylarning g'alabasi savdo-sotiq ishlariga monelik qila olmadi.

⁶⁸ Агаджанов С.А. Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв. – Ашхабад, 1973. Стр. 73-74.

Xatto salib yurishlari davrida ham Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo unumli rivojlanib bordi. Biroq XIV asr o'rtasida Eron va Iroqda mo'g'ullarning Xuloguiylar sulolasi saltanatining tugashi va o'sha davrda Oltin O'rdada mo'g'ullar hukmining susayishi bilan bog'liq bo'lgan notinchliklar yuzaga kelishi sababli G'arb savdogarlari va mollari uchun Markaziy Osiyo bozorlariga yo'l yopildi va bu xalqaro savdoga talafot yetkazdi.

XIV asr oxirida yosh Usmonli davlatining kuchayishi va uning Egey hamda Qora dengizlarni tutashtiruvchi bo'g'ozlarni o'z qo'lga olishi natijasida g'arbliklar uchun Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqqa olib boruvchi yo'llar yopildi. Shu tariqa G'arb mamlakatlari uchun "turk masalasi" yuzaga keldi. Uni hal qilmay turib, Hindiston va Xitoyga o'tib bo'lmasdi.

Yevropa salibchilari 1396 yili Bolgariyadagi Nikopol shahri yaqinida mag'lubiyatga uchraganlaridan so'ng Vizantiya imperatori Maniul II Paleolog (1391-1425) (Sharq manbalarida Takur deb atalgan) 1399 yili G'arbdan yordam so'rab murojaat qildi. U turklarga qarshi Rim papasi bilan ittifoq tuzmoqchi edi.

Shu kezlarda Amir Temur qudrati va uning ko'p yerlarni zabt etgani haqida Trapezund saltanati orqali Yevropaga xabarlar yeta boshladi. G'arb davlatlari rahbarlari Amir Temur bilan muloqotga kirishdilar.

1400 yil avgustida Amir Temur o'z lashkari bilan Shimoli-sharqiy Anatoliyadagi Mingko'l yaqinida turganida xuddi shunday imkoniyat tug'ilgan edi.

"Shul asnoda Farang tarafidan elchilar keldilar, - deb yozadi Sharafuddin Ali Yazdiy, - amir Murodkim, Rum qaysarlaridan erdi, aning o'g'lini kelturdilarkim, ani faranglar asir qilib erdilar va xavoxohlikdin hazrat qoshida keltirub erdilar, beklar, elchilarni hazrat Sohobqiron qoshig'a kiyurdilar. Ul hazrat alarni navozish birla qabul qildi va alarga xil'atlar kiydurub, har naki niyozlik erdi, alarg'a komronlik baxshida qildilar. Va alar Tarabzun yo'lidin qaytdilar"⁶⁹.

Boshqa manbalarga ko'ra, kelgan elchilar aslida Konstantinopolning Pera dahasidan kelgan genuyaliklardir. Elchilar ne maqsadda kelganliklari haqida

⁶⁹ Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков. – Т., 1996. 382 а-б.

aytilmagan bo'lsa ham, Amir Temur bundan avvalroq Trapezund (Tarabzun) saltanati bilan aloqa o'rnatganligi ma'lum.

Binobarin, Amir Temur XIV asrning oxirgi o'n yilligida Vizantiya saltanati bilan ham aloqa o'rnatgan, chunki Trapezund Konstantinopol ma'murlari va Pera bilan uzviy bog'liq edi.

Demak, bundan ko'rinadiki, Amir Temur Boyazidga qarshi kurashda o'zining quruqlikdagi harakatlarini genuyaliklar va yunonlarning suvdagi harakatlari bilan moslashtirmoqchi bo'lgan.

Amir Temur bilan yevropaliklar o'rtasida necha o'nlab elchiliklar bo'lgan. Ko'pincha adabiy yoki tarixiy yodgorliklarda izi qolgan elchiliklar eslatib o'tiladi. Bu o'rinda gap ikkita - Kastiliya elchiligi va Amir Temur tomonidan jo'natilgan rohib - arxiepiskop Ioann elchiligi haqida bormoqda.

Genuya va Venesiya senatining hisob-kitoblarida ana shu elchiliklarning keldi-ketdisi haqidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Mazkur ma'lumotlarda elchilarning kelishi va bunga qancha mablag' sarflangani qayd etilgan, chunki bu o'rinda gap faqat buxgalteriya hisoboti haqidagina bormoqda. Sir tutilgan siyosiy maktublar bu hisobotlarda aks etmagan.

Murod qo'mondonligida, keyinchalik uning o'g'li Boyazid qo'mondonligida Usmonli turklar 1396 yilda Nikopol ostonalarida o'zlariga qarshi turgan nasroniy davlatlari uyushmasini yakson etib, G'arbiy Yevropani qo'lga kirita boshladilar va Konstantinopolda o'z qarorgohlariga asos soldilar.

Genuyaliklar va venesiyaliklar (ularning bo'linmalari Kavkaz, Tana, Saroy va Astraxanda turar edi) Osiyo bilan savdo-sotiq qilishar va Amir Temurning zafarlaridan xabardor edilar. Ular Amir Temur 1386 yil qishida Gurjistonni, Armanistonni zabt etganidan, 1387 yilda Arzirumga yaqinlashib qolganidan xabardor edilar. Ular Usmonli sultonligining qo'shnisi bo'lgan Arzinjon hukmdori, turkman amiri Taxurtan, garchi u sultonlikni bosib olishga rosa uringan bo'lsa ham, endi Amir Temurga tobeligidan, Sohibqiron uning homiysi bo'lib qolganligidan voqif edilar⁷⁰.

⁷⁰ Амир Темур жаҳон тарихида. – Т., 2001. 125-бет.

Shunday qilib, agar ikki ulug' lashkarboshidan biri ahvolni chigallashtiradigan bo'lsa, chaqmoqdan o't chiqib ketishi mumkin edi. Shu boisdan ham, genuyaliklar va venesiyaliklar Amir Temur bilan yaqinlashish siyosatini tutganliklariga ajablanmasa ham bo'ladi. Boyazid ularning hayot-mamotiga tahdid solganida Konstantinopol imperatorini unga qarshi gij-gijladilar.

Ayni paytda Amir Temur 1395-1396 yillarda Oltin O'rda ustidan g'alaba qozongandan keyin yana Kavkazni egallab, Kichik Osiyo bilan yaqinlashdi. U Tana, Astraxan va Saroyini egalladi, O'rda bilan savdo-sotiq qilib turgan Venesiya va Genuya bo'linmalari yer bilan yakson etildi va shu tariqa Qora dengiz bilan tutashib ketgan Buyuk Ipak yo'lining bir tarmog'i to'sib qo'yildi.

Yevropaliklar va Amir Temur junatgan diplomatik missiyalarni Anqara jangidan avvalgi, shu jang vaqtidagi, shu jangdan keyingi guruhlariga bo'lish mumkin.

Anqara jangidan avvalgi missiyalar nihoyatda sir tutilar edi, chunki genuyaliklar, venesiyaliklar va vizantiyaliklar Boyazidning qahr-g'azabidan cho'chirdilar, ayni vaqtda ular murosai-madora siyosatini, go'yoki mutelik siyosatini yuritishar edi, Amir Temurning barcha buyuk yurishlari sirru asror pardasiga o'ralgan edi. Shu bilan birga hisob daftarida, ayniqsa Genuyaning hisob daftarlarida ko'pdan-ko'p choparlarning kelish-ketishi haqida qisqa, lo'nda bitiklar mavjud. Jumladan, "Genuya davlatining arxivlari" da keltirilishicha, bu bitiklarni Mishel Balar o'zining "Genuya Italiyasi" asarida tahlil qilgan.

1394 va 1399 yilda Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Amir Temur huzuriga Fransua ismli dominikan monaxini ikki marta elchi qilib jo'natdi. Unga Sandro (uni ba'zi manbalarda Sarasinus deb ham ataydilar) hamroh bo'lgan. Sandro Genuya Podestati bilan yaqin aloqada bo'lgan, chunki uning qo'lida Genuyaning homiysi bo'lgan Fransiya qirolining Amir Temur nomiga yozilgan maktubi mavjud edi. Fransua o'zining birinchi safari chog'ida, agar Amir Temur Boyazidga qarshi urush ochguday bo'lsa, Sharqiy O'rta dengiz yoqasida joylashgan Yevropa davlatlari yordam beradilar, degan fikrni Amir Temurga yetkazdi.

Amir Temurning javobi ma'lum emas, lekin bu javob, albatta, biror-bir talabga bog'liq bo'lgan, chunki Fransua o'z hamrohi Sandro bilan ikkinchi bor Amir Temur

huzuriga kelganida, Fransiya qirolining maktubi bilan tasdiqlangan Konstantinopol imperatorining majburiyatlarini unga izhor etdi. Bunga ko'ra, agar Amir Temur Boyazidga qarshi urush boshlasa, odatda, Boyazidga mo'ljallangan xiroj Amir Temurga berilishi aytilgan edi.

Konstantinopol imperatorining Amir Temurga yozgan va Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan maktubida bitilgan ayrim jumlar ana shu elchiliklar haqida guvohlik beradi.

Binobarin, monax Fransua vositachiligida evropaliklar bilan Amir Temur o'rtasida do'stona muloqot boshlangan.

1400 yil mobaynida Venetsiya senati Amir Temur huzuriga o'zining ikki vakili - Andrea Jistiniani va Mateo Barbadigolarni jo'natdi.

1401 yil avgust oyida asli peralik, keyinchalik Genuyada o'troq bo'lib qolgan kishining hisob daftarida yozilganiga qaraganda, bu shaharga Amir Temur elchisi kelgan. Mazkur elchi imperator saroyiga tashrif buyurgan, bu o'sha vaktdayoq imperator bilan Amir Temur o'rtasida aloqa o'rnatilgan, deyish uchun asos bo'ladi.

Ana shu ikki elchi Pera genuyaliklarining usmonlilar bilan ittifoqdan va har qanday xolislikdan voz kechishni iltimos qilishgan. Ushbu iltimos mamnunlik bilan qabul qilindi va elchilarga ikkita ot tuhfa etildi.

Peradagi hisob daftarida 1402 yil 18 mayidan 21 iyunigacha bo'lgan davrda Amir Temur elchisi kelib ketganligi ta'kidlangan⁷¹.

Nusxasi Venetsiya arxivlarida saqlanadigan bir maktubga qaraganda, 1402 yil iyunida yoki iyul oyi boshlarida Amir Temur monax Fransuani Konstantinopol imperatorining muovini huzuriga jo'natgan (imperator bu vaqtda Yevropaga yordam so'rab jo'nab ketgan edi). Ushbu maktubda Amir Temur monax Fransuani qabul qilganini, monax unga yoqqanini va u Trapezund imperatoridan o'zaro ittifoq uchun yigirmata yaxshi qurollangan gallerlarni talab qilganini yozadi, shundan keyin Amir Temur muovinga Boyazid huzuriga monax Fransua hamrohligida elchilar jo'natganini ma'lum qiladi.

⁷¹ Амир Темур жаҳон тарихида... 126-бет.

Elchilar Konstantinopol va Pera shu vaqtgacha Boyazidga beradigan xirojni bundan buyon Amir Temurga to'lashi lozimligini aytishlari kerak bo'lgan. Xatda ilova qilinganidek, Konstantinopol mushtarak ish uchun yana 20 galer taqdim etishi kerak, shundan so'ng Amir Temur Boyazil bilan urush boshlash niyatidadir.

Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Ioann VII esa, o'z navbatida, Amir Temur kuchlarining bir qismini Bosfor orqali Yevropaga o'tkazib qo'yishga va'da berdi. Biroq Anqara jangidan so'ng ular o'z va'dasiga amal qilmadi. Ammo Konstantinopol tez orada Amir Temurning hokimiyatini tan olishga majbur bo'ldi.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, Anqara yaqinidagi jang butun G'arb olamining diqqatini jalb qildi, zero Anqarada Yevropaning taqdiri hal qilinayotgan edi. Fransuz qiroli Karl VI ning, Vizantiya imperatori Manuil II ning, Rim Papasining, Genuyaning, Venesiyaning hamda Kastiliya va Lionning qiroli Genrix III ning elchilari bu urushni kuzatib turgan edilar. Payo de Sotomayor va Ernan Sanches de Palasueloslar ispan qirolining elchilari edi.

Yevropa davlatlarining Anqaradagi jangga qiziqishi tasodifiy emas edi. Usmonli sultonining Janubi-sharqiy Yevropada erishgan qator g'alabalari o'sha paytlarda katta qudratga ega bo'lmagan Yevropa monarxlari uchun dahshatli ogohlantirish edi.

Salibchilarning 1396 yildagi mag'lubiyati o'sha paytda nafaqat alohida bir Yevropa davlati, balki davlatlarning birlashgan kuchlari ham Usmonli sultonining qudratiga bas kelolmasligini ko'rsatdi. Shuning uchun, agar Amir Temur bo'lmaganida, butun Yevropaning yoki uning bir qismining usmonlilar tomonidan bosib olinishi ertami-kechmi bo'ladigan ish edi.

Anqara ostonasidagi jangda Kastiliya qirolining elchisi tasodifan hozir bo'lib qolgan edi. Qirol o'zining ikki kibor (dvoryan) ini Kichik Osiyoga jo'natar ekan, bundan maqsad Boyazid va Temur haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, ularning Yevropaga munosabatini bilib olish edi. 1402 yil mayi yoki iyunida shu ikki ispanni Boyazid qabul qildi.

Amir Temur yaqinlashib qolganida bu elchilar Anqara qal'asidagi xaramga yashirib qo'yildi. Ular jangni va Amir Temurning jangdan keyin qal'aga kirib kelishini qal'a devorlari ustida turib kuzatdilar. Shunday qilib, ular birinchi bo'lib Sohibqironni g'alaba bilan qutlash imkoniga ega bo'ldilar, Amir Temur elchilarni qabul qildi. Ular Sohibqiron o'z qirollari Genrix III bilan do'stona munosabat o'rnatish to'g'risida murojaat etdilar.

Elchilar Yevropaga qaytib ketishayotganida Amir Temur ular orqali Boyazid xaramidan ozod etilgan, nasl-nasabi toza uch nafar yosh qizni o'z nomidan Kastiliya qiroliga covg'a qildi. Ularga o'z elchisi Muhammad al-Keshiyni ham qo'shib yubordi. Uning qo'lida 1402 yil avgust sanasi qo'yilgan va qirolga atalgan do'stona xat bor edi. Maktubda Amir Temur Boyazid ustidan g'alaba qozonganini aytib, nasroniylarga mehr-oqibatli bo'lishini bayon etgan. Maktubning nusxasigina saqlangan.

Anqara jangidan keyin Amir Temur yuborgan otliq askarlar, turklarning qarshiligini engib, iloji boricha ko'proq o'ljani qo'lga kiritganidan so'ngra jang tugadi. Shundan so'ng Amir Temur bilan evropaliklar o'rtasida elchilar bordi-keldisi yana ham ildamlashdi. Lekin bu uchrashuvlar tafsiloti bizga ma'lum emas.

Amir Temur o'zini hamma e'tirof etishini talab qilar va ilgari Boyazidga to'lab kelingan xirojni endilikda o'ziga to'lashlariga majbur etmoqchi edi. U Turkiyada qolmoqchi emas, o'z talabi tez orada bajarilishini kutar edi. U, harqalay, nasroniylar bilan boshlangan do'stona aloqalarni rivojlantirmoqchi, Yevropa bilan bo'ladigan savdo-sotiqni kuchaytirish niyatida edi.

Darhaqiqat, u endilikda shu qit'adagi yo'llarni nazorat etib turar va Yevropa mamlakatlari bilan savdo qilishdan manfaatdor edi. Uning evropalik ittifoqchilari, avvalo, kuch-qudratga to'lgan hukmdorni ranjitmaslikni o'ylashar, Boyazid saltanatini sindirgani uchun Yevropa Amir Temurdan minnatdor ekanini izhor etishni istashar va va'da qilingan xirojni unga to'lay boshlashga kirishmoqchi ekanliklarini ma'lum qilishardi. Ular yoshi 66 dan oshgan Amir Temurni ancha qartayib qolgan deb o'ylab, taxtdan ketishi mumkinligi uchun vaqtdan yutish hayolida edilar.

Rodos risarlari tomonidan muhofaza qilinayotgai Izmir qal'asigina, garchi tantanali buyruq bo'lsa-da, darvozalarini ochmadi, oqibatda boshiga katta kulfat tushdi.

1402 yil 2 sentyabr kuni Konstantinopol imperatori muovininining ikki vakili - Podestat Bartolomeo Rosso va uning yordamchisi Jano Lomellino Amir Temurga peshvoz chiqib, unga beriladigan xirojning miqdori va turlari haqida kelishib olmoqchi bo'lishdi.

1402 yil sentyabri boshlarida Yangi Foseya (grek-turk savdosining muhim markazi) shahri vakili Messir Galeasso Amir Temur huzuriga kelib, uch kun turdi va 22 sentyabrda jo'nab ketdi.

O'sha vaqtda Amir Temur huzuriga Yevropadagi boshqa mamlakatlar elchilari ham xiroj bilan kelishdi. Bular orasida Fransua Gattiluzio chopari, Lesbos va Xios orolida hukmronlik qilgan genuyalik Maono ham bor edi.

Xuddi o'sha oyda Amir Temur elchilari Peraga kelishdi, elchilarga covg'a-calomlar in'om etildi.

1402 yil dekabrda esa, Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini vakili Kolajane Kayraio Amir Temur huzuriga yo'l oldi.

Amir Temur 1402 yil noyabr va dekabr oylari oralig'ida o'g'li Pir Muhammadni va Shayx Nuriddinni risarlar qal'asi boshlig'i huzuriga elchi sifatida yubordi. Ulardan taslim bo'lish va islomni qabul qilish talab etildi. Risarlardan rad javobi olganidan keyin, 1402 yil 2 dekabrda Amir Temur qal'aga bir necha kun hujum qildi. Barcha risarlar halok bo'lishdi.

1403 yil yanvarida Genuya Podestati Amir Temur huzuriga yo'l oldi.

Boyazid ustidan qo'lga kiritilgan g'alaba katta tarixiy ahamiyatga ega. Bu paytlarda G'arbiy Yevropa, avvalo Italiya ilk Renessans davrini o'tayoggan edi. Italiyaning shahar-davlatlari bo'lmish Venesiya va Genuya esa usmonlilarga dushman edi.

Agar Boyazid Anqara yaqinida g'alabaga erishganida, uning qudrati bir necha barobar ortib ketardi, chunki u holda butun islom davlatlari uning ta'sir doirasiga o'tardi. Bu esa, birinchi galda, Venesiya va Italiya uchun halokat bilan barobar edi.

Anqara jangidan so'ng Fransiya va Angliya yozishmalar orqali Amir Temur bilan diplomatik munosabat o'rnatdi. Fransuz qiroli Karl VI bilan Amir Temur o'rtasidagi yozishmalarning bir qismi Fransiya hujjatxonasida saqlangan.

Ulardan anglashilishicha, Amir Temur Fransiya qirolining takliflarini rad etmagan va Karl VI ning Sharqqa nisbatan siyosatini qo'llagan. Amir Temurning forsha yozilgan va 1402 yil 1 avgust sanasi qo'yilgan maktubi aslida Anqara jangidan (1402 yil 20 iyul) avval yozilgan bo'lib, unga sana keyin qo'yilganligi aniqlandi. Maktubda Amir Temur o'z davlati bilan Fransiya o'rtasida savdo aloqalarini o'rnatish istagini bildirgan.

Amir Temurning bizgacha saqlanib qolgan lotincha tarjimadagi ikkinchi maktubi ham 1402 yil 1 avgust bilan sanalangan. Ikkala maktubni ham Sultoniyanning katolik arxiepiskopi Ioann III Fransiyaga olib borgan.

Arxiepiskop Ioann boshchiligidagi elchilarning 1403 yil iyunida Parijga tashrif buyurganliklari haqidagi xabar “Franklar qilmishlarining davriy bitigi” da keltirilgan. Elchi Parijga kelishi bilan tashrifning asosiy maqsadlarini tantanali ravishda bayon qildi:

1) Amir Temurning turk sultoni ustidan g'alabasi va turk sultonining asir qilinganligi haqida, Boyazid tomonidan asir olingan nasroniylarning ozod etilganligi va agar yana boshqa nasroniy asirlar bo'lsa, Amir Temurning ularni ham ozod etish mayli borligini ma'lum qilish;

2) Fransiya saltanati buyukligining shohidi bo'lish istagini va Amir Temur saltanati hashamatini bildirish.

Shundan so'ng elchi Amir Temur nasroniy davlatlarni qiziqtiruvchi quyidagi ikki taklifni kiritishini aytdi:

- ikki davlat savdogarlarining erkin savdo munosabatlarini ta'minlash;
- agar qiroli gersoglar rozi bo'lishsa, bu savdo erkinligini tegishli bitim orqali kuchga kiritish.

Karl VI ning Amir Temur nomiga 1403 yil 15 iyulda yo'llagai birgina maktubi saqlangan. Maktub: “Karl, xudoning marhamati bilan fransuzlarning qiroli, eng shavkatli va eng g'olib hazrat podshoh Temurbekka salom va tinchlik bo'lsin” so'zlari

bilan boshlanadi. So'ngra maktubda Fransiya bilan Amir Temur davlati o'rtasida savdo aloqalari o'rnatish masalasiga katta o'rin berilgan. Karl VI maktubidan uning fuqarolari Amir Temur mulkiga bemalol bora olganliklari anglashiladi.

Amir Temur bilan Karl VI o'rtasidagi yozishmadan ma'lum bo'lishicha, ikkala podshoh ham savdo bitimi tuzishdan manfaatdor. Biroq 1405 yil fevralida Amir Temur vafot etishi bu ishni poyoniga yetkazish imkonini bermadi.

Amir Temur va Mironshoh Angliya bilan diplomatik yozishmalar olib borishgan. Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) ning lotincha yozilgan va Mironshoh bilan Amir Temurga yo'llangan ikki maktubi saqlangan. Bir tarafdin, Amir Temur va Mironshoh bilan, ikkinchi tarafdin, Angliya qiroli o'rtasida yana o'sha eslatilgan Sultoniya arxiepiskopi Ioann vositachi bo'lgan. Arxiepiskop Ioanning diplomatik tashrifi 1399 yil (Genrix IV taxtga o'tirgan yil) bilan 1404 yil orasidagi davrni o'z ichiga oladi⁷².

Genrix IV dan kelgan maktubda Mirzo Mironshoh "Mirassa Amirassa" deb atalgan. Qirol Mironshohning katoliklarga bo'lgan do'stona va xayrixohlik munosabatlari va "ayniqsa diniy arboblarga va franko-katoliklarga lutfi karam baxsh etib, nasroniy savdogarlarning shaxsiy va faoliyat xavfsizligini ta'minlaganligi va barobariga savdo g'araziga xayrixohligi" uchun minnatdorchilik izhor etadi.

Maktubda, "buyuk podshoh katolik dinining homiysi... bundan keyin ham bu qadar tavfiqli va saodatli niyatlardan voz kechmasligiga" umid bildiriladi, hamonki "janobi oliylari o'z xohishlari bilan ... xudoning shukri uchun davlat ishlariga taalluqli ba'zi masalalar xususida va shu vaqtdan boshlab sulh borasida biz bilan do'stona bitim tuzishga iroda etibdilar, janobi oliylari bilishni lozim topsinlarkim, biz ana shu bitimga bizning nomimizdan mazkur arxiepiskop imzo chekishini astoydil istaymiz". Angliya qiroli arxiepiskop Ioangga to'la ishonishini bildiradi: u inglizlarning ishlaridan yaxshi xabardor⁷³.

⁷² Амир Темур жахон тарихида... 127-128-бетлар.

⁷³ Умняков И. Из истории международных отношений Спедней Азии с Западной Европой в начале XV в. – М., 1960. Стр. 7.

Maktub bunday yakunlanadi: “Bizning iltimosimizga ko'ra ham, uning oliy martabasiga ko'ra ham (arxiepiskoining) so'zlariga to'la ishonishingizni so'raymiz, shuningdek unga bo'ysunganlarning hammasini va maxsus biriktirilgan yana necha shaxsni ham qabul qilishingizni so'raymiz, bizga hammasini aniq tavsif etingki, biz ham o'z tarafimizdan janoblarining istaklarini bajo keltirgaymiz”⁷⁴.

Maktub London shimolidagi Xortfordda fevral oyida, aniqlanishicha, 1402 yilda (maktubda yil ko'rsatilmagan) yozilgan.

Genrix IV ning Amir Temurga maktubi Sohobqironning hozirgacha saqlangan maktubiga javoban yozilgan. U shunday boshlanadi: “Genrix, xudoning marhamati bilan Angliya va Fransiya qiroli, shuningdek Irlandiya hokimi, buyuk va kudratli podshoh Temurbekka, Tangrini sevuvchi do'stga, hammasining xaloskoriga salom va tinchlik bo'lsin”.

Dominikan ordeni monaxi Fransisk Amir Temurning ishonchli kishilaridan biri bo'lgan. Uning nomi Amir Temurning Vizantiya imperatori muoviniga yo'llagan maktublarida va fransuz qiroli Karl VI, ingliz qiroli Genrix IV nomlariga yuborilgan ikki maktubida eslatilgan. Bu monax Amir Temurning diplomatik vazifasini bajarish bilan birga unga G'arb haqida ma'lumotlar keltirgan. U haqda boshqa ma'lumotlar saqlanmagan.

Yevropa qirollari bilan bo'lgan yozishmalardan ma'lumki, Amir Temurning qudratli olamshumul davlatning hukmdori sifatida obro'si G'arbda juda yuksak bo'lgan. Yevropa monarxlari uni chuqur ehtirom bilan “eng shavkatli va eng g'olib podsho Temurbek”, deydilar.

Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar davlatida Yevropa davlatlariga munosabat o'zgardi. Temuriylarning biror G'arb mamlakati bilan diplomatik munosabatda bo'lganliklari haqida ma'lumotga ega emasmiz.

Amir Temurning ba'zi elchilari o'z vazifalarini ado etish asnosida o'ldirilgan. Lekin Amir Temurning o'zi doimo elchi daxlsiz ekanligini ta'kidlab kelgan. Agar elchi hatto dushman tarafidan kelgan bo'lsa ham, u doimo ularga sarpo kiydirgan.

⁷⁴ Ўша асар. Стр. 9.

Amir Temur karvon yo'llarining xavfsizligi uchun harakat qilib, doimo ham yaqin, ham uzoq mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga intilardi. U ulkan hududlar va ko'plab mamlakatlarni bir davlatga birlashtirib, ular orasida uzviy iqtisodiy aloqalar o'rnatishga harakat qilgan.

III bob bo'yicha xulosa

- V asrning ikkinchi choragidan boshlab mamlakatimiz, umuman Turkiston siyosiy hayotida eftaliylar xonadoni hukmron o'rin tuta boshlaydi.

- Eftaliylarning sosoniylar bilan keskin munosabatlarga kirishishlari tabiiy bir hol bo'lgan. Ikki tomon o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar V asr 30-yillaridayoq sodir bo'lgan bo'lsa-da, ammo hal qiluvchi kurashlar sosoniy hukmdor Piruz (Peroz) davriga (459-484) to'g'ri keladi. Dastlabki to'qnashuvlardayoq eftaliylar tomonidan asirga olingan Piruzni Vizantiya hukmdori o'rtaga tushib, tutqunlikdan ozod qilishga erishadi. Shunga qaramay Piruz yana eftaliylarga qarshi harbiy yurish uyushtiradi. Bu safar qo'lga tushgan Piruz o'ttiz xachir kumush dirham evaziga qo'yib yuboriladi.

- Eftaliylar yordamida sosoniylardan Kubod 499 yili Eron taxtiga o'tiradi. Eftaliylar sosoniylarni o'zlariga qaram qilib olganlaridan so'ng ularning imkoniyatlaridan Vizantiyaga qarshi kurashda foydalanmoqchi bo'ladilar. Eftaliylarning Vizantiyaga qarshi 502 yildagi yurishi sosoniylar ishtirokida amalga oshirilgan edi.

- Oltoy tog' tizimi janubiy qismining qadimgi nomi Oltin yish (Oltin vodi) bo'lib, tabiiy sharoiti har qanday jamiyat farovonligini ta'minlashda benazir hisoblangan. Ashina sulolasi xuddi shu shart-sharoitda yuksalgan, siyosiy ta'siri ortib borib, ayniqsa Bumin (Tumin) sardorligi vaqtida bu jarayon yanada faol tus olgan. Bumin Jujan xonligi bilan ochiqdan-ochiq aloqani uzib, 551 yili Vey xonadoni bilan quda-andalik aloqasiga kiradi. 552 yili esa Jujan xonligiga qarshi qurolli kurashga o'tlanib, ularni tor-mor qiladi

- Buminning o'g'li Mug'anxon xuddi otasi kabi ham siyosat, ham zo'ravonlik yo'llaridan ustalik bilan foydalana bilgan hukmdor edi. U eftaliylar sulolasiga qarshi

kurashda ularning janubi-g'arbidagi dushmanlari sosoniylar bilan yaqin munosabatlarga kirishadi. Mug'anxon 554 yili Eronga elchi yuborib, ikki tomonlama aloqa va ishonchni mustahkamlash yuzasidan amakisi Istaming qizi Asnabekani sosoniy Xisrav I ga (531-579) turmushga beradi.

- 565 yili Mug'anxonning amakisi Istami eftaliylar qo'shiniga qaqshatqich zarba bergan. 567 yili esa Tohariston va umuman eftaliylar qo'li ostida bo'lib kelgan erlarni zabt etishga muvaffaq bo'ladi. Mug'anxon va uning avlodlari harbiy yutuqlarni davom ettira borib, Qora dengizdan Tinch okeangacha bo'lgan ulkan hududdagi saltanatga asos solishga erishadilar.

- Eron ham, Vizantiya ham eftaliylar bilan teskari edi. Shu sababdan ham sosoniylar va ashinaliylar o'rtasida eftaliylarga qarshi ittifoqqa erishish shunday oson hal bo'ladiki, tez orada eftaliylar hukmronligi xotimaga etadi. Endigi gal ashinaliylar Vizantiya bilan harbiy ittifoq, tuzib Eronni siquvga olib, hatto ular eftaliylarga to'lab kelgan yillik o'lponni bundan buyon bizga to'laysizlar, qabilidagi shart ham qo'yadilar. Shart-sharoit yetilganda xoqonlikning Qrimda Vizantiya bilan yuzma-yuz kelgan vaqtlari ham bo'lgan. Ashinaliylarning Xitoy, Eron, Vizantiya bilan munosabatlarda o'z hukmlarini o'tkazib, harbiy ustunliklarga erishgan vaqtlarda saltanat siyosiy-geografik jihatdan yuksalgan.

- Saljuqiylar turkiy o'g'iz qavmi tarkibida dastlab hozirgi Janubiy Qozog'iston hududiga to'g'ri keladigan yaylovlarda, Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi hayot kechirganlar.

- Saljuqiylarning Movarounnahr siyosiy hayotiga faol aralashuvi ayniqsa somoniylarning qoraxoniylar bilan raqobati yillari kuchaydi. Bu esa saljuqiylar qaramog'idagi o'g'iz qavmlarining Samarqand, Buxoro, Kesh viloyatlariga borib o'rnatishlari uchun sharoit yaratdi.

- XI asrning 40-yillaridayoq saljuqiylar Xorazm, Eron, Kavkazortiga harbiy yurishlar uyushtiradilar. 1055 yili esa To'g'rulbek xalifalik poytaxti Bag'dodni egallaydi va o'z nomiga xutba o'qittiradi. To'g'rulbek hayotligidayoq saljuqiylar Eron, Iroq, Kavkazorti o'lkalarini o'z ta'sir doiralariga tortgan edilar. 1071 yili esa keyingi saljuqiy hukmdor Sulton Alp Arslon (1063-1072) Kichik Osiyoda Vizantiya

podshosi Romen IV Diogenni yengib, o'zini asirga oladi. Bu esa saljuqiylarning Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o'rnashib olishlari uchun katta zamin tayyorlaydi.

- Saljuqiylar saltanatining Sharqiy Turkistondan O'rta dengizgacha yastanishi geografik jihatdan ularni to'g'ridan-to'g'ri tarixiy Xitoy va Vizantiya bilan chegaradosh qilib qo'yadi. Xitoy ham, Vizantiya ham bundan xavfsirashadi. Shuning uchun ham ular iloji boricha saljuqiylarning zaiflashib borishidan manfaatdor edilar.

- Saljuqiy Sulton Malikshoh davrida Vizantiya diplomatik yo'llar bilan Xitoyni saljuqiylarga qarshi gij-gijlab, ular o'rtasida urush chiqarishga obdon harakat qilgani ma'lum. Ammo Sun xonadonidan bo'lmish Xitoy hukmdorlari urushdan ko'ra savdo aloqalari ko'proq manfaatliroq ekanini anglab bu yo'ldan yurmaydilar. Vizantiya bu bilan tinchimay to'g'ridan-to'g'ri g'arbda, Yevropaning o'zida saljuqiylar, aniqrog'i "musulmonlar xavfi" ni bayroq qilib, ularga qarshi kurashga da'vat qila boshlaydi. Ya'ni saljuqiylar Vizantiya uchun, eng avvalo siyosiy, xalqaro savdo munosabatlarida katta raqib hisoblanardi. Raqibni yengish uchun Vizantiya saljuqiylarning harbiy-siyosiy xavfiga qarshi mafkura, e'tiqod omilini qo'yadi. Bundan Rim cherkovi va boshqa Yevropa mamlakatlari iloji boricha foydalanishga harakat qiladilar. XI asrning so'nggi o'n yilligida mafkura bo'yoqlari bilan chaplangan salib yurishlari boshlanadi. Salibchilarning sharqqa harakatlarini qirqishda saljuqiylarning xizmatlari katta bo'lgan.

- Yevropa salibchilari 1396 yili Bolgariyadagi Nikopol shahri yaqinida mag'lubiyatga uchraganlaridan so'ng Vizantiya imperatori Maniul II Paleolog (1391-1425) (Sharq manbalarida Takur deb atalgan) 1399 yili G'arbdan yordam so'rab murojaat qildi. U turklarga qarshi Rim papasi bilan ittifoq tuzmoqchi edi. Bu vaqtda Amir Temur qudrati va uning ko'p yerlarni zabt etgani haqida Trapezund saltanati orqali Yevropaga xabarlar yeta boshladi. G'arb davlatlari rahbarlari Amir Temur bilan muloqotga kirishdilar.

- Amir Temur XIV asrning oxirgi o'n yilligida Vizantiya saltanati bilan ham aloqa o'rnatgan, chunki Trapezund Konstantinopol ma'murlari va Pera bilan uzviy bog'liq edi.

- Amir Temur bilan Yevropaliklar o'rtasida necha o'nlab elchiliklar bo'lgan. 1394 va 1399 yilda Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Amir Temur huzuriga Fransua ismli dominikan monaxini ikki marta elchi qilib jo'natdi.

- Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Ioann VII Amir Temur kuchlarining bir qismini Bosfor orqali Yevropaga o'tkazib qo'yishga va'da berdi. Anqara jangidan so'ng Konstantinopol Amir Temurning hokimiyatini tan olishga majbur bo'ladi.

- 1402 yil dekabrda Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini vakili Kolajane Kayraio Amir Temur bilan uchrashishga muvaffaq bo'lgan.

- Amir Temur karvon yo'llarining xavfsizligi uchun harakat qilib, doimo ham yaqin, ham uzoq mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga intilardi. U ulkan hududlar va ko'plab mamlakatlarni bir davlatga birlashtirib, ular orasida uzviy iqtisodiy aloqalar o'rnatishga harakat qilgan.

XULOSA

Yuqoridagi boblarda keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda tadqiqot ishi yakunida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Vizantiya imperiyasi Rim imperiyasi parchalangach uning sharqiy qismida vujudga kelgan, IV-XV asrlar davomida mavjud bo'lgan iqtisodiy jihatdan rivojlangan, poytaxti Konstantinopol shahri bo'lgan davlat edi. Vizantiya geografik jihatdan qulay joylashganligi tufayli Sharq bilan G'arb o'rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga sabab bo'ldi, siyosiy va harbiy markazga aylandi.

- Imperator Yustinian I hukmronligi davri (527-565) da ma'muriy va huquqiy islohotlar o'tkazildi, markaziy davlat mustahkamlandi, kuchli armiya vujudga keltirildi. Imperiyaning aynan gullab-yashnagan davri uning hukmronligi vaqtiga to'g'ri keladi.

- XIII asr boshlaridan ichki tarqoqlik avj oldi, markaziy hokimiyat inqirozga yuz tutdi, chet ellik istilochilarning xuruji kuchaydi. Salib yurishi qatnashchilari Vizantiya hududining bir qismini bosib olib, Lotin imperiyasiga asos soldilar. Shu bilan birga Vizantiya yerlarida mustaqil yunon davlatlari: Nikey, Trapezund imperiyalari, Epir davlati paydo bo'ldi.

- 1453 yilda Konstantinopol usmonli turklar tasarrufiga o'tgan. XV asrning 60-yillari boshida Vizantiya imperiyasi barham topdi, uning hududi Usmonli turk imperiyasi tarkibiga kirdi. Vizantiya Rim, yunon va ellinizm an'analari ta'sirida vujudga kelgan madaniyat markazi bo'lgan. Uning o'ziga xos maorifi, texnikasi, san'ati, ilm-fani taraqqiy etganki, buni o'sha davrlarda yashab o'tgan qator olumlari misolida ko'rsh mumkin.

- Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyat nihoyatda murakkab bo'lgan. Bunda turli ko'chmanchi qabilalarining hujumlari, ma'lum bir muddat O'rta Osiyoda o'z hukmronliklarini o'rnatilganligini ko'rish mumkin (xioniylar, kidariylar, eftalitlar, Turk xoqonligi).

- Eftalitlarning turkiy etnik elementlar bilan aralashgan holda O'rta Osiyo qabilalari negizida vujudga kelganligidan guvohlik beradi. V asrning ikkinchi yarmiga kelib, eftalitlar davlati nihoyatda kuchayadi. Ularning dastlabki elchisi 456

yilda Hitoygacha borib yetadi. Eftalitlarning tobora kuchayib, borayotganligidan xavfsiragan eronlilar eftalitlarga qarshi 459-484 yillarda uch marta yurish qiladi, lekin urush natijasiz tugaydi. Eftalitlar V asrning ikkinchi yarmi va VI asr boshlarida O'rta Osiyo, Eronni Sharqiy qismi, Shimoliy Hindistonni yagona davlat sifatida birlashtiradilar.

- Eftalitlar xalqaro tijorat sohasida Eron, Hindiston, Xitoy, Yevropaning eng sharqiy viloyatlari bilan keng aloqada bo'lishgan.

- V-VI asrlarda mamlakatimizda, umuman, mintaqada yuz yildan ortiq davr davomida eftaliylar sulolasi hukmronlik qildi. Davlatni boshqarishda ular o'tmish dongdor sulolalardan qolishmaganlar. Eftaliylarning tashqi aloqalari Eron bilan g'oyatda keskin kechgan. Buning sabablaridan biri sosoniylarning ham G'apb va Sharq o'rtasida savdo aloqalarida yetakchi o'rinni egallashga qaratilgan urinishlarida edi. Eftaliylar sosoniylarni o'zlariga qaram qilib olganlaridan so'ng ularning imkoniyatlaridan Vizantiyaga qarshi kurashda foydaladilar. Chunonchi, eftaliylarning Vizantiyaga qarshi 502 yildagi yurishi sosoniylar ishtirokida amalga oshirilgan.

- Eftaliylar davlati tushkunlikka yuz tutgach uning o'rniga Ashiniylar sulolasi chiqib oladi. Asli Oltoyning janubiy qismidagi yerlarni egallagan Ashiniylar sekin-astslik bilan tobora kuchsizlanib borayotgan Eftaliylar hududini egallay boshlagandilar. Bundan tashqari Ashina sulolasi eftaliylar, sosoniylardan farqli o'laroq endi qudratga to'lib kelayotgan yosh siyosiy kuch hisoblanardi. Shu bilan birga, eng muhimi, Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalarining barqaror ravishda olib borilishini siyosiy jihatdan kafolatlovchi tomon bo'lib ham Ashina sulolasi namoyandalari chiqadilar. Vizantiya imperiyasi bilan bu sulola vakillarining tashqi iqtisodiy soha va diplomatik aloqalari juda yaxshi bo'lgan.

- Ilk o'rta asrlarda garchi tashqi siyosatdagi raqobat yuqori bo'lsa-da, Buyuk ipak yo'li orqali savdo aloqalari nihoyatda yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin. Arxeologik izlanishlar jarayonida Vizantiyada zarb etilgan tangalar, moddiy ashyolar Toshkent va uning atrofidan ko'plab topilgan. Bunday topilma oxirgi marta 2013 yilning bahorgi arxeologik izlanishlar jarayonida vizantiyalik zodogonga tegishli jasad qoldig'i va qisman saqlanib qolgan kiyim-kechaklari, tugmalar, beliga taqilgan

kamari sof tilladan yasalganligi aniqlandi. Bunga o'xshash topilma - boy savdogarga tegishli tilladan qilingan ashyolar XX asrning 70-yillarda topilgan edi. Ayni vaqtda ushbu topilmalar Toshkentdagi O'zbekiston tarixi muzeyida saqlanmoqda.

- Rivojlangan o'rta asrlarning birinchi yarmida O'rta Osiyoning shimolida Qarluqlar, O'g'uzlar davlatlari, janubi va markazida Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar davlatlari tashkil topdi. Dastlab markazlashgan davlat tepasiga Somoniylar (IX-X) sulolasi keladi, so'ngra uning iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan hududlarini uchta turkiy davlatlar - Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar (XI asrda) egallaydi. Shu bilan birga XII asr o'rtalaridan Qoraxoniylar va Saljuqiylarga tegishli yerlarda Buyuk Xorazmshohlar davlati vujudga keldi, biroq bu davlat mo'go'g'ullarning bosqini natijasida tugatiladi.

- IX- XIII asrlar madaniy hayotida yuz bergan yuksakliklar tarixda tengsiz edi. Ilm-fan, din va tasavvuf, me'morchilik va san'at, musiqa san'ati gullab yashnadi.

- IX-XIII asrlar oralig'ida O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar orasida Saljuqiylar davlati Vizantiya bilan tashqi aloqa o'rnatganligini ko'rish mumkin. 1071 yil saljuqiy hukmdor Sulton Alp Arslon (1063-1072) Kichik Osiyoda Vizantiya podshosi Romen IV Diogenni yengib, o'zini asirga oladi. Bu esa saljuqiylarning Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o'rnashib olishlari uchun katta zamin tayyorlaydi.

- XIV asr 70-yillarida Amir Temurning hokimyatga kelishi, markazlashgan davlatning tashkil topishi butun XV asr mobaynida Movarounnahr va Xurosonda madaniy hayot taraqqiyotini belgilab berdi. Amir Temur Movarounnahrni madaniyat, san'at o'chog'iga aylantirish uchun katta ishlarni amalga oshirdi. Uning rahbarligida saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, bog'lar barpo etildi.

- Amir Temur hukmronligi davrida xalqaro munosabatlar, diplomatiya va tashqi savdo aloqalariga alohida ahamiyat berilganligini Amir Temur saroyiga kelgan hamda Amir Temur tomonidan xorijiy, jumladan Yevropa davlatlariga yuborilgan elchilar misolida ko'rish mumkin. Vizantiya imperiyasi masalasiga qaraydigan bo'lsak, bu davrda imperiya ancha kuchsizlanib qolganiga qaramay 1394 va 1399 yillarda Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Amir Temur huzuriga

Fransua ismli dominikan monaxini ikki marta elchi qilib jo'natadi. Bu bilan u o'zini Usmonli turklar hujumidan saqlab qolinishini, agar Amir Temur Boyazidga qarshi urush ochguday bo'lsa, Sharqiy O'rta dengiz yoqasida joylashgan Yevropa davlatlari yordam berishlarini Amir Temurga yetkazishdan iborat bo'lgan.

- Nusxasi Venetsiya arxivlarida saqlanadigan bir maktubga qaraganda, 1402 yil iyunida yoki iyul oyi boshlarida Amir Temur monax Fransuani Konstantinopol imperatorining muovini huzuriga jo'natgan (imperator bu vaqtda Yevropaga yordam so'rab jo'nab ketgan edi). Ushbu maktubda Amir Temur monax Fransuani qabul qilganini, monax unga yoqqanini va u Trapezund imperatoridan o'zaro ittifoq uchun yigirmata yaxshi qurollangan gallerlarni talab qilgani yozilgan.

Vizantiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan olib borgan aloqalarini tahlil etib, quyidagi takliflarni bildirdik:

1. O'zbek tilida Vizantiya tarixi bilan bog'liq ilmiy asarlar tarjimalarini ko'paytirish. Rus tilidagi tadqiqotlarda asosan Vizantiya imperiyasining Sharqiy Yevropa va Rus bilan olib borgan diplomatik aloqalari keng yoritilgan.

2. O'rta Osiyo davlatlarining Vizantiya imperiyasi bilan turli davrlarda olib borgan xalqaro aloqalari haqidagi ma'lumotlar juda kamligini hisobga olinadigan bo'lsak, bu boradagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.A. Karimovning asarlari

- I.1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. 7-жилд. - Т., Ўзбекистон, 1999.
- I.2. Каримов И.А. Озод ва обод, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. - Т., Ўзбекистон, 2000.
- I.3. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. - Т., “Маънавият”, 2008. 171 б.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari,

Vazirlar Mahkamasining qarorlari

- II.1. “Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузурида Ўзбекистоннинг Энг Янги тарихи бўйича жамоатчилик кенгашилини ташкил этиш тўғрисида”ги Ўз Республикаси Президентининг Қарори // “Халқ сўзи”, 12 феврал 2002 йил; 5-сон, 4-7 б.
- II.2. “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги ЎЗР Вазирлар Маҳкамасининг Қарори // Халқ сўзи, 27 июн 1998 йил.

III. Asosiy adabiyotlar:

- III.1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., “Шарқ”, 2001. -368 б.
- III.2. Амир Темур жаҳон тарихида. - Т., “Шарқ”, 2001. -304 б.
- III.3. Агаджанов С.А. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв. - Ашхабад, Ўлим, 1969. – 248 с.
- III.4. Агаджанов С.А. Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв. – Ашхабад, Ўлим, 1973. - 276 с.
- III.5. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.- Л., Изд. АН СССР, 1950-1953.

- III.6. Византийские очерки. - М., Наука, 1996. – 298с.
- III.7. Города Центральной Азии на Великом шёлковом пути. ТД конференции, посвященной 60-летию профессора Ю.Ф. Бурякова. - Самарканд, 1994.
- III.8. Дашков С.Б. Императоры Византии. - М., Наука, 1996. – 188 с.
- III.9. Каждан А. П. Византийская культура (X-XII вв.). - СПб.: Алетейя, 2006. – 304 с.
- III.10. Кулаковский Ю.А. История Византии. - М., Наука, 1996. Т. 1. – 278 с. Т. 2. – 264 с.
- III.11. Культура Византии (IV-первая половина VII в.) / Отв. редактор З.В. Удальцова. – М., Наука, 1984. – 720 с.
- III.12. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. - М., Наука, 1951. – 189 с.
- III.13. Пигулевская Н.В. Сирийские источники по истории народов СССР. - М.-Л., Изд. АН СССР, 1941. – 186 с.
- III.14. Пугаченкова Г.А. На среднеазиатских трассах Великого шелкового пути: очерки истории и культуры. - Т., Фан, 1990. – 194 с.
- III.15. Пўлатов Х. Шаҳарсозлик маданияти. - Т., Фан, 2008. – 248 б.
- III.16. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник. - Т., Фан, 1999. – 278 с.
- III.17. Rtveladze E.V. O'zbekistoning tarixiy o'tmishi. - Т., “San’at Jurnalı”, 2009. – 240 б.
- III.18. Тер-Мкртичян Л.Х. Армянские источники о Средней Азии 5-7 вв. - М., Наука, 1949.
- III.19. Удальцова З. В. Византийская культура / Отв. ред. д-р ист. наук Е.В. Гутнова. - М.: Наука, 1988. – 289 с.
- III.20. Успенский Ф. И. История Византийской империи. - М.: АСТ, Астрель, 2001.
- III.21. Успенский Ф. И. История Византийской империи: Становление. - М.: АСТ, Астрель, 2012. - 608 с.

- III.22. Успенский Ф. И. История Византийской империи: Рассвет (Комнины). - М.: АСТ, Астрель, 2012. - 480 с.
- III.22. Успенский Ф. И. История Византийской империи: Эпоха смут. - М.: АСТ, Астрель, 2012. - 608 с.
- III.23. Успенский Ф. И. История Византийской империи: Македонская династия. - М.: АСТ, Астрель, 2011. - 800 с
- III.24. Успенский Ф. И. История Византийской империи: Крушение. - М.: АСТ, Астрель, 2011. - 576 с.
- III.25. Чичуров И.С. Византийские исторические сочинения. - М., Наука, 1980. – 344 с.
- III.26. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изохлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков. – Т., “Шарқ”, 1996. – 384 б.
- III.27. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти”, 2001. – 757 б.

IV. Internet sayti

IV. 1. www.wikipedia.org

ILOVALAR

Vizantiya imperiyasining Paleologlar davri bayrog'i va gerbi



Vizantiyashunos olimlar



Fyodr Ivanovich Uspenskiy

Aleksandr Petrovish Kajdan

Zinaida Vladimirovna Udalova

Vizantiya imperiyasi hududining o'zgarib borishi


476 yilgi holat



550 yilgi holat



717 yilgi holat



1025 yilgi holat



1180 yilgi holat



1355 yilgi holat



Saljuqiylar tangasi

Сулейманшах ибн Кылыч Арслан



Дирхем Калыч-Арслана IV
(1246 - 1264гг)



Серебряный дирхем, 1241-1242 г.



<http://donovedenie.ru/>

Vizantiya imperiyasining bronza tangalari



Yustinian I folliysi

